



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023, № 3

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **Z.S.Dadanov, I.X.Nasriddinov**
O'qitishda muammoli – modulli vaziyatlar
- 7 **M.G'. To'xtasinov**
Maktab – uzluksiz ma'naviy rivojlanish asosi
- 11 **I.T.Muradov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida maktab bitiruvchilarining kasb va rejalari
- 15 **Z.A.Artikbayeva**
Uzluksiz ta'limda matematika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini aniqlash mexanizmi
- 19 **E.U.Xudoyberdiyev**
Ta'limni boshqarishda strategiyadan foydalanish uzluksiz ta'lim uzviyligini ta'minlash omili sifatida
- 23 **K.K.Kudratov**
Uzluksiz ta'limda informatika o'qituvchilarining amaliy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari
- 27 **Sh.T.Yakubjonova, T.Norboboyeva, N.I.Shonazarova, X.I.Abduraimova**
Botanika kursida amaliy mashg'ulotlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari
- 30 **G.Mardiyeva**
Zamonaviy ta'limda pedagogik innovatsiyalar va ularning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 34 **I.Yu.Abduraxmanova, M.T.Umaraliyeva**
Elektron ta'lim vositalari – o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish omili sifatida
- 38 **M.Umaraliyeva**
Inklyuziv ta'lim siyosati va yangicha yondashuvlar tahlili
- 43 **J.D.Pulotov, M.L.Boltayeva**
Umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun multimediali elektron darsliklar yaratish zaruriyati
- 47 **M.E.Mamarajabov**
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda raqamlashtirilgan mustaqil ta'lim
- 52 **N.D.Oqriddinova**
Uzluksiz ta'lim tizimida masofaviy ta'lim: afzalliklari va kamchiliklari
- 57 **A.X.Maxmydov**
Методологические аспекты цифровой трансформации в системе непрерывного образования
- 61 **P.M.Medemova**
Перспективные направления совершенствования толерантности у обучающихся

MA'NAVIY TARBIYA

- 65 **X.M.Tojiboyeva**
O'tmish allomalar merosi vositasida o'quvchilarda «Ommaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni uzluksiz shakllantirish
- 69 **D.M.Begmatova**
Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning madaniy immunitetini rivojlantirish yo'llari
- 73 **F.S.Usmanova**
Talaba-yoshlar madaniyat kompetentligini shakllantirishda vatanparvarlik g'oyalari nazariy ahamiyati
- 77 **G.B.Sheraylakova**
Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari madaniyatining strukturasi

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 82 **F.X.Ibragimova**
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida
- 86 **M.A.Umataliyev**
Ta'lim jarayonida talabalarga natyurmort kompozitsiyasini qurish va tasvirlashni o'rgatish metodikasi
- 91 **Ch.M.Shaymanov**
Modda tuzilishi to'g'risidagi ilk tassavvurlar va ularning rivojlanish bosqichlarini uzluksiz tamoyillari asosida o'rganish
- 94 **G.M.Qurbonova**
Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish shakllari

XORIJY TILLARNI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

- 98 **P.X.Ljuraev, Z.Karimova**
Особенности преподавания иностранных языков взрослым студентам
- 103 **X.I.Umarov**
Применение технологий для дистанционного обучения при преподавания иностранного языка
- 108 **Sh.A.Atdjanova**
Uzluksiz ta'lim tizimida chet til o'rganish jarayonida uchraydigan interferentsiya hodisalari xususida

**O'QITISHDA MUAMMOLI – MODULLI VAZIYATLAR**

**Z.S.DADANOV,
I.X.NASRIDDINOV**
Angren universiteti

Maqola o'qitish tizimida keng ommalashgan muammoli-modulli ta'lim turi haqida ma'lumot beradi. Avval, muammoli-modulli o'qitish tushunchasiga keng qamrovli izoh beriladi. So'ng, muammoli-modulli o'qitishning shakllanishi va qo'llanishi tarixi, uning hozirgi bosqichida metodologik mazmunga ega bo'layotganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: muammoli-modulli o'qitish, metodik xatolar, o'rganish xatolari, tuzilmali egiluvchanlik, mazmunli egiluvchanlik, texnologik egiluvchanlik, individual o'quv dastur, yaxlit o'quv faoliyatini shakllantirish.

В статье представлена информация о широко распространенном в системе образования проблемно-модульном виде обучения. Во-первых, дается всестороннее объяснение концепции проблемно-модульного обучения. Затем рассматривается история становления и использования проблемно-модульного обучения, его методологическое содержание на современном этапе.

Ключевые слова: проблемно-модульное обучение, методические ошибки, ошибки обучения, структурная гибкость, содержательная гибкость, технологическая гибкость, индивидуальный Учебный план, формирование целостной учебной деятельности.

The article provides information about the type of problem-module education, which is widely popular in the educational system. First, a comprehensive explanation of the concept of problem-module teaching is given. Then, the history of the formation and use of problem-module learning, its methodological content at the current stage is discussed.

Key words: problem-module teaching, methodological errors, learning errors, structural flexibility, content flexibility, technological flexibility, individual curriculum, formation of holistic educational activity.

Modulli ta'lim dastlab AQSh, Olmoniya Angliya kabi rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish tizimida qo'llanila boshladi va katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Biroq modulli ta'lim o'zining yetarlicha «puxta»ligiga qaramasdan mazmun jihatdan ham, «yosh» jihatdan ham (u 60-yillarda vujudga kelgan) hanuzgacha tortishuvlarga, fikrlar qarama-qarshiligiga uchrab kelayapti. Qator xorijiy mualliflar (V.Goldshmidt, M.Goldshmidt va boshqa) modul deganda aniq o'rnatilgan maqsadga erishishga yordamlashadigan yaxlit o'quv faoliyatini shakllantirishni tushunishadi. Modul mohiyati o'quv materialining avtonom bo'laklarini ko'rish to'g'risidagi birmuncha farqliroq fikr D.J.Rassel tomonidan aytili.



P.A. Yusyavichenening ko‘rsatishicha, «modulli o‘qitish mohiyati shundan iboratki, o‘rganuvchi qismdan yoki to‘liq mustaqil ravishda unga taklif etilayotgan o‘zida harakatlarning maqsadli dasturini, axborotlar bankini va qo‘yilgan didaktik maqsadga erishish bo‘yicha metodik ko‘rsatmani qamrab olgan individual o‘quv dasturi bilan ishlashi mumkin. Bunda pedagog vazifasi axborotli nazorat qilishdan tortib maslahatchi – koordinatsiyalovchilikka qadar turlanishdan iborat bo‘ladi».

Muammoli o‘qitishning didaktik tizimda birmuncha to‘liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta‘lim hisoblanadi. U o‘rganuvchilarni fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning yechimiga yonda-shishni faollashtirishga va nihoyat – ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ta‘sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini – muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tuzish bilan ta‘minlanadi. Muammoli vaziyat o‘qitish jarayonida muhim motiv va hayajonli vosita sanaladi. Uning samarasi to‘g‘risida A.M.Matyushkin, M.I.Mahmudov, I.Ya.Lerner kabi yirik olimlar o‘z nazariyalarini yaratganlar.

Muammoli – modulli o‘qitish texnologiyasida asosiy didaktik xatolarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o‘rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o‘zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: gnoseologik, metodik va o‘quv gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyusiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo‘l qo‘yiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o‘quvchi (talaba)larda borliqni tanqidiy mushohadalash, tahlil qilish va o‘z xatolarini to‘g‘rilash ko‘nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o‘quv predmeti va fanga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiradi: o‘rganilayotgan fan mazmuni o‘rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig‘indisi sifatida emas, balki g‘oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzida, ijtimoiy maktab va yo‘nalishlar kurashi va tarzda, odam va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi – u egiluvchan hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko‘p jihatdan uning ilmiy texnikaviy va ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta‘sir etish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Egiluvchan tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo‘lishi mumkin.



Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli model tuzilmasining safarbarligi, muammoli model dastur pog'onaligi, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqalar.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materiallarining blok va modulli tamoyili asosida saralanish evazgija vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining qo'yidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimini egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv – bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

V.M.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli modulli asosga o'tkazish qo'yidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarni ishlab chiqishni ta'minlaydigan didaktik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog'liq holda talabalarning u yoki bu muammoli modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish suratini ta'minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun ssenariylar sifatida foydalanish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi koordinatsiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialni bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putur yetkazmagan holda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosda kursni qisqartirish.

Shu bilan birgalikda opponentlar tomonidan muammoli modulli o'qitishning qator kamchiliklari ko'rsatiladi, ular; ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni o'quvchilarning mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta: o'quv predmetining yaxlitligini va mantiqini inkor etish; o'quvchilarni tayyorlash torligi, o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolari yoki masalalar seriyasiga qadar qisqartirish, umumlashmagan ziyon yetkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikni ko'p mehnat talab qilishi.



Ta'lim mazmunini muammoli – modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

– bilish faoliyatining fundamental metodlar doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish;

– tayanch muammoli moddularning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilan faoliyati metodlarining tamoyilli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu, o'qitishning tayanch mazmuniga oid qo'yidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi;

– fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;

– yechimi bilan faoliyati metodlarning mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;

– ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek muammoli – modulli dasturlarning turli-to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo'yicha o'quvchilarning yakka tartibda olg'a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo'llash kulami qo'yidagi tartiblarni qamrab oladi; tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli targ'ibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom – ma'lumot moduli sifatida boshqa fanlar doirasida va integratsiyalangan – integrativ kurs doirasida.

Shunday qilib, muammoli – modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini qo'yidagicha izohlash mumkin; o'quvchilarning talab etilgan darajada bilimdonligiga erishish uchun o'quv materiali mazmunini yirik tizilmalash. Unga mos holda o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini tanlash amalga oshirilib, ular o'quvchilarni to'liq, qisqargan yoki chuqurlashgan o'qitish variantlarini mustaqil tanlash va o'tishga yo'naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. - Т.: «Нихол» нашриёти, 2013, 2016. - 279 б.

2. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. - Т.: 2006. - 163 б.

3. Юнусова Д. Математикани ўқитишнинг замонавий технологиялари. Дарслик. - Т.: Фан ва технология, 2011. - 200 б.

4. Юнусова Д. Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти.- Т.: Фан, 2009. - 165 б.



MAKTAB – UZLUKSIZ MA'NAVIY RIVOJLANISH ASOSI

M.G'.TO'XTASINOV,

Namangan viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasida mudiri

Mazkur maqolada bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan muhim vazifalar, xususan, o'quvchi-yoshlar ma'naviy tarbiyasi va bu sohada kamchiliklar hamda muammolar tahlil qilingan bo'lib, ushbu masalalar bo'yicha fikr-mulohalar ilgari surilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim islohotlari, ma'naviy muhit, jamiyat ma'naviyati, mafkuraviy immunitet, globallashuv, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, pedagog mas'uliyati, yangi metodikalar, targ'ibot tadbirlari, mediata'lim*

В данной статье анализируются важные задачи, стоящие сегодня перед системой образования, в частности, духовное воспитание учащихся и недостатки и проблемы в этой области, а также представлены мнения по этим вопросам.

Ключевые слова: *духовно-нравственное воспитание, образовательная реформа, духовная среда, социальная духовность, идеологический иммунитет, глобализация, духовно-просветительская деятельность, педагогическая ответственность, новые методы, адвокационная деятельность, медиаобразование.*

This article analyzes the important tasks facing the education system today, in particular, the spiritual education of students and the shortcomings and problems in this area, and also presents opinions on these issues.

Key words: *spiritual and moral education, educational reform, spiritual environment, social spirituality, ideological immunity, globalization, spiritual and educational activities, pedagogical responsibility, new methods, advocacy activities, media education*

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning joriy yil 25-may kuni maktablarni bitiruvchi o'g'il-qizlarga yo'llagan tabrigida ta'kidlanganidek, «...hozirgi notinch zamonda farzandlarimizni yuksak ma'naviyat egalari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Keng ko'lamdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilmogda, yoshlarimiz o'rtasida kitobxonlikni kuchaytirish, ulami adabiyot, san'at va sport to'garaklariga yanada faol jalb etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda»[https://uza.uz/uz/posts/maktablarni-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga_375097].

Birgina, 2022-yil 25-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida maktab ta'limidagi islohotlarning borishi muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda sohaga tegishli ishlar 7 ta indikatorlar bo'yicha tahlil qilinganda 1526 ta umumta'lim maktabining ma'naviy muhiti salbiy ekanligi qayd etilib, maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni



yana qayta tahliliy ko'rib chiqib, bu bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etayotgani alohida ta'kidlandi [<https://uzreport.news/politics/prezident-maktab-ta-limidagi-islohotlarning-borishini-muhokama-qildi>].

Ayni shu masalada davlatimiz rahbari soha xodimlari oldiga qator vazifalarni qo'yib, maktab ma'naviyat ostonasi bo'lishi kerakligi, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda kitobxonlik, she'rriyat, musiqa, tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligi, 1-sinf dan 11-sinf gacha o'quvchilar uchun ma'naviyat kitoblari chop etish dolzarbligi ko'rsatib o'tildi.

Darhaqiqat, milliy ta'limning muhim afzalliklaridan biri ta'lim-tarbiyaning uyg'unligidir. Shunday ekan, o'quvchi-yoshlar ta'lim-tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, jamiyatimiz ma'naviyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish, bu bo'yicha o'ziga xos milliy metodikalarni joriy qilish bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

Maktabga endigina qadam qo'yan bolalar uchun maktab ma'naviyat o'chog'i, o'qituvchi esa ma'naviyat timsoli bo'lishi lozim. O'quvchining yoshi ulg'aygani sari ma'naviy ehtiyojlari ham yuksalib boradi. Bu ehtiyojlarni to'g'ri anglab, ularni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash biz pedagoglarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Qolaversa, bugungi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni turli tahdidlarga bardosh bera oladigan, mustahkam irodali va yuksak ma'naviyatli, ayni vaqtda bilimli va intellektual salohiyatli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash hayotiy ehtiyoj. O'quvchi-yoshlarni Vatan va xalqqa sadoqatli, ma'nan yetuk, insonparvar, har tomonlama komil shaxslar etib tarbiyalash – eng oliy maqsadlarimizdan biriga aylangan. Bu ishda maktab ta'limining o'rni va roli benihoya kattadir.

Bevosita maktab ta'lim-tarbiyasida o'quvchilar uchun vatanparvarlik, mardlik, mehnatsevarlik, do'stlik, yaxshilik, tinchlik, ota-ona va ustozlarni ulug'lovchi va boshqa ezgu g'oyalar aks etgan she'rilar, g'azallar, qo'shiqlar, rivoyatlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Xususan, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda «Madhiya», «Shashmaqom», «Andijon polkasi», «Dilxiroj», «Tanovon», «Lazgi» kabi milliy kuy-qo'shiqlar, shuningdek, Buxoriy va Termiziy hadislari, A.Navoiy, A.Oripov, E.Voxidov, M.Yusuf, Zulfiyaxonim, H.Olimjon, A.Obidjon kabi shoirlar hamda A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, X.To'xtaboyev, T.Malik, S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi yozuvchilar asarlaridan foydalanishning roli va ta'sirchanligi yuksakdir. Bu o'rinda boshlang'ich sinflar ma'naviyatini yuksaltirishda ertak, matal, afsona, she'r, qo'shiq, doston, maqollardan keng foydalanish alohida muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish lozim.

Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan 15 mingdan ziyod maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlarini, shuningdek, sinf rahbarlari va albatta



barcha o'qituvchi-pedagoglarni ma'naviy-ma'rifiy sohada tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishi masalasini ham ko'rib chiqishimiz, ular uchun muntazam rivojlantirib borish dasturlarini qabul qilishimiz darkor. Shu o'rinda shaxsning ma'naviy rivojlanib borishi ham uzluksiz jarayon bo'lib, bunda o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit tizim bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining o'z mi va ahamiyati beqiyosligini ta'kidlab o'tish zarur.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi.

Ushbu ta'lim tizimi turlariga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari va davlat talablarida kishining ma'naviy yuksalib borishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalanishi, komil shaxs bo'lib voyaga yetishini nazarda tutuvchi qator vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1059-son qarori bilan tasdiqlangan Konsepsiyaning «Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish» deb nomlangan 3-bobida

«Uzluksiz ma'naviy tarbiya:

– davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

– ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

– davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi», deb qayd etilgan.

Shuningdek, uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab olishi alohida belgilangan:

– birinchi bosqich - oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila davri, ikkinchi davr – bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

– ikkinchi bosqich – maktabgacha ta'lim 3 - 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

– uchinchi bosqich – umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – 7 (6) - 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr - 11 - 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);



– to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta‘lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta‘lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17 - 30 yosh, ikkinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta‘lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 - 22 (24) yosh) [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1059-son qarori]. Bulardan ko‘rinib turibdiki, uzluksiz ta‘lim tizimining barcha turlarida shaxs ma‘naviy olamini uzluksizlik va uzviylik asosida rivojlantirib borishini nazarda tutilib qator vazifa va choralar belgilangan.

Bugungi kunda soha vakillari oldidagi yana bir muhim vazifalardan biri globallashtirish va axborot almashinuvi jadallashtirish bir vaqtda o‘quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik, mediamadaniyatni rivojlantirish orqali turli axborot xurujlari, buzg‘unchi yot g‘oyalardan asrash, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Globallashtirish sharoitida har jihatdan barkamol, komil insonni voyaga yetkazishda internetdan tarqalib kelayotgan, milliy g‘oyamiz va ma‘naviyatimizga yot bo‘lgan turli xil xurujlardan asrash, o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ilm-fan, zamonaviy texnologiya yutuqlarini puxta egallagan har tomonlama yetuk va barkamol etib voyaga yetkazish muhimdir. Bunda yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish maqsadida voyaga yetmaganlar orasida, salbiy ta‘sirlarni o‘zida mujassam etgan diniy ekstremizm, terrorizm, missionerlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlarga qarshi tarbiyaviy ishlarni muntazam olib borish, milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarimizning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil qilish, yoshlar ongiga ota-ona, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g‘urur, komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq tuyg‘u va tushunchalarni singdirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1059-son qarori
2. Bo‘stonov A. Globallashtirish jarayonlari sharoitida yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalari// Ta‘limdagi islohotlar strategiyasida sog‘lom bola masalasi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. - Qarshi: Nasaf, 2014. - B. 216.
3. https://uza.uz/uz/posts/maktablarni-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga_375097
4. <https://uzreport.news/politics/prezident-maktab-ta-limidagi-islohotlarning-borishini-muhokama-qildi>



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA MAKTAB BITIRUVCHILARINING KASB VA REJALARI

I. T. MURADOV,

*A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot
instituti katta ilmiy xodimi*

Mamlakatimizda bitiruvchi yoshlarning kasb tanlashi borasidagi qarorlarini o'rganish, jumladan ularning qaysi yo'nalish bo'yicha o'qishni davom ettirishi va qaysi kasbni tanlashi, kasblarni bilishi hamda tanlashi borasidagi fikrlarini tahlil qilish bugungi kunda maktab ta'limining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mehnat muhojirlari, bitiruvchilar, umumta'lim maktablari, so'rovnomalar, xorijda mehnat qilish, kasblar, kirish imtihonlari.

Изучение решений молодых людей, выпускающихся в нашей стране, о выборе профессии, в том числе анализ их мнения о том, в каком направлении продолжат обучение и какую профессию выберат, знают и выберат профессии, является одним из актуальных вопросов школьного образования на сегодняшний день.

Ключевые слова: Трудовые мигранты, выпускники, общеобразовательные школы, опрос, работа за границей, профессии, вступительные экзамены.

Studying the decisions of young people graduating in our country about choosing a profession, including analyzing their opinions about which direction to continue their studies and which profession to choose, to know and choose professions, is one of the urgent issues of school education today.

Key words: migrant workers, graduates, secondary schools, survey, working abroad, professions, entrance exams.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonunining [1] 7-moddasiga asosan uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining bunday turlarining har bir bosqichida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni tarixan qisqa davr uchun misli ko'rilmagan rivojlanish sifatida baholash mumkin. Bunday



shiddatli rivojlanish bugungi kun uchun yetarlidek ko‘rinadi. Ammo, har qanday yangilik boshqa yangilikning kirib kelishiga turtki bo‘ladi. Respublikamizda 11 yillik umumiy o‘rta ta‘lim tizimini shakllanganligi, ularning kadrlar yetishtirib berishdagi o‘rni beqiyos. Bundan tashqari ta‘lim tizimida uzviylik va uzluksizlik masalalarini yuqori darajada ko‘rib chiqilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, tarkibiy qismlarining funksiyalari aniq belgilangan va o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni tizimli bajarilishini ta‘minlashni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi «Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4963-son qarori [3] maktab ta‘limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Rasmiy statistika asosida xalq ta‘limi tizimida yagona davlat siyosatiga mos chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini o‘rganish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e‘lon qilish, xalq ta‘limi sohasidagi muammolarni tahlil qilish va ularga yechim izlab topish mexanizmini yo‘lga qo‘yish, mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi.

Abdulla Avloniy aytganidek «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Ushbu maqolada respublikadagi barcha umumta‘lim muassasalari bitiruvchilari, ularning hohish va istaklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Ma‘lumki, yaqinda qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 37-maqсадida umumta‘lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish belgilab qo‘yildi. [2]

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, aholisi 35 milliondan ortiq bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolarining qariyb 5,8 million nafari mehnat migranti sifatida respublikadan tashqarida doimo xorijda ishlaydi. Deyarli har beshinchi «iqtisodiy faol» o‘zbekistonlik mehnat muxojiri hisoblanadi, ularning Mehnat muhojirlarining katta qismi 80-85 foizi 4465692 nafari Rossiya Federatsiyasida ish faoliyatini olib boradi. Bundan tashqari, 2022 yilning ikkinchi yarmida O‘zbekistondan 3354 nafar fuqaro Qozog‘istonga, 1123 nafari Turkiyaga, 826 nafari Janubiy Koreyaga, yana 1574 nafari boshqa mamlakatlarga ish uchun chiqib ketgan[5].

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktab bitiruvchilari soni 390 mingga



yaqinni va 1-sinf o'quvchilari esa 585 000 nafarni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida 10 yildan so'ng bitiruvchilar soni 1,5 barobarga ortishini bildiradi.

2020-2021 o'quv yilida umumta'lim maktablarining 437,3 ming nafar 11-sinf bitiruvchilaridan 109,3 ming (25%) nafari OTMga kirgan bo'lsa, OTMga kirmagan bitiruvchilar soni 328,0 mingni (75%) tashkil etdi. [4; B 21]

Har ikkala yondashuv asosida – borib ko'rganda ham so'rovnomaga o'tkazilganda ham xulosalar bir xil bo'ldi. So'rovnomada ham yuqoridagi masala, «Agar siz xorijda mehnat qilishga ketishni rejalashtirgan bo'lsangiz, nima sababdan ketmoqchisiz?» deb so'ralganda, ularning 37 foizi o'qishga qiziqishi borligi, ammo moddiy imkoniyati yo'qligi sababli ketmoqchiligini aytgan. 9 foiz bitiruvchilarning o'qishga qiziqishi yo'qligi sababli ketmoqchiligi ma'lum bo'ldi. Respondentlarning 33 foizi esa bu savolga aniq javob bera olmagan.

So'rovnomaga olib borilgan tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizda yuzdan ortiq kasb mavjud bo'lsada, bitiruvchilar bor-yo'g'i 20 ga yaqin kasb haqida tasavvurga ega. Eng achinarlisi, 18 ta fan o'qituvchilari bilan suhbatlashilganda, ularning o'z sohasi bo'yicha bitiruvchilarga beradigan tavsiyasi eng ko'pi bilan 5-6 ta kasbni tashkil etmoqda.

Ma'lumot uchun: Manpower Group bandlik so'roviga ko'ra [6], dunyo bo'ylab eng ko'p talab qilinadigan 5 ta – «IT dasturiy ta'minot muhandisi», «Savdo va marketing», «Operatsiyalar va logistika», «Ishlab chiqarish (tarmoqlar bo'yicha)», «Ofisda mijozlar bilan ishlash» kabi kasb aniqlandi.

Tadqiqot natijasida ma'lum bo'lishicha, 20,9 foiz bitiruvchilar pedagogika va psixologiya kasbini tanlagan, bu jami bitiruvchilarning 81500 nafarni tashkil etmoqda. Eng quyi ko'rsatkich ijodiy sohalarda ekanligi qayd etilgan, ya'ni 1,4 foiz. Hunarlar ichida eng baland ko'rsatkich ijtimoiy xizmat sohalari (sartarosh, tikuvchi, kosmetolog va boshqalar)da (3,7%), eng quyi natija esa fermerlik, dehqonchilik, hunarmandchilik va ustachilikda (0,9%) ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijalar 2021/2022 o'quv yilini tamomlayotgan 11-sinf bitiruvchilarining 67 foizi «Sizning bu yil 11-sinfni bitirgandan keyingi rejalaringiz?» degan savolga allaqachon kasb(soha)larini tanlab qo'rganini ko'rsatmoqda. Ammo, kelajagi haqida aniq tasavvurga ega, deb hisoblangan bitiruvchilarning ko'pi kasb-hunarlar haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega emas. Hatto, juda ko'p kasblarni bilishmaydi, ya'ni, mehnat bozorida qaysi kasbga talab yuqori, qaysi kasbdan qancha daromad olish mumkinligiga qiziqishmagan. 6 foiz bitiruvchilar kelajakni hozirdan rejalashtirishga hali erta deb hisoblashini hamda shaxsiy hayot, oila qurishni rejalashtirayotganini ta'kidlagan. Buning natijasida mehnat bozorida nomutano-siblik yuzaga kelmoqda. Shu sababli maktab dasturlariga kasblar haqida mavzular, ma'lumotlar kiritish, yuqori sinf o'quvchilarini kasblarga o'qitish ishlarini jadallashtirish talab etiladi.



So'rovnomani tahlil qilganda, «Kirish imtihonlariga qay darajada tayyorgarlik ko'rdingiz?» degan savolga bitiruvchilarning 44 foizi kirish imtihonlariga repetitorga bormasdan o'zlarini mustaqil tayyorgarlik ko'rganini, 7 foizi esa o'qish niyati yo'qligini ma'lum qilgan.

«Siz kasb tanlashda nimaga ahamiyat berdingiz?» savoliga 57 foiz bitiruvchilar o'z istagiga ko'ra kasb tanlayotganligini aniqlandi. 6 foiz yoshlar o'zlarini to'g'ri kelgan kasb(soha)da sinab ko'rmoqchiligini ma'lum qilgan.

Hozirgi vaqtda respublika maktablarida fanlar (23 ta) bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj 6200 nafarga yaqin. Bitiruvchilarning 57 foizi «O'z istagiga ko'ra» kasb tanlayotganliklarini inobatga olib, ularga yuzdan ortiq mavjud kasblar haqida batafsil yo'nalishlar, videoliklar, yoshlar faol bo'lgan saytlar, kanallarda ma'lumotlar taqdim etilsa, ularning qiziqishlari ortadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston oxirgi 5-6 yilda yoshlarning kasb-hunar egallashi va o'rganishiga, mehnat migratsiyasiga nisbatan o'z munosabatini tubdan o'zgartirdi va muxojirlarning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini e'tirof etdi. Shundan keyin mamlakat rahbariyati tomonidan yoshlar xususan, mehnat migrantlarining kasb-hunar o'rganishiga, huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4963-son qarori.
4. A.Radjiev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnomani va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami. 2-qism. Toshkent-2022. - 119 bet.
5. TALIS - The OECD Teaching and Learning International Survey // OECD - <https://www.oecd.org/education/talis/>.
6. <https://www.weforum.org/agenda/2022/05/most-in-demand-professions-list-2022/>
7. <https://t.me/avlonyuz>
8. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar



UZLUKSIZ TA'LIMDA MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI ANIQLASH MEXANIZMI

Z.A.ARTIKBAYEVA,
TDPU p.f.n.

Ushbu maqolada uzluksiz ta'limda matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalari samaradorligini oshirish masalalari ko'tarilgan.

Tayanch so'zlar: matematik masala, uzluksiz ta'lim, matematik nazariya, bilim, tafakkur, tayyorgarlik, qobiliyat, tirishqoqlik, uzviylik, daraja, psixologiya

В данной статье затронуты вопросы повышения эффективности профессионально-методических умений учителей математики общеобразовательных школ.

Ключевые слова: математическая задача, математическая теория, знание, мышление, готовность, способность, упорство, преемственность, степень, психология.

In this article, issues on improving the effectiveness of professional-methodical knowledge of Mathematic teachers of Basic Educational schools are discussed.

Key words: mathematical problem, mathematical theory, knowledge, out looking, readiness, ability, hardworking, connect ability, level, grade, psychology.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti bevosita fanlarni, ayniqsa, tabiiy va aniq fanlarning rivojlanishi shu bilan birgalikda matematika fani rivojlanishi bilan chambarchas bog'lik. Matematika fani bo'yicha «O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son qarori ijrosi sifatida soha vakillari, tajribali professor-o'qituvchilar, metodistlar tomonidan tayyorlandi. U maktabgacha, umumiy o'rta, akademik litsey, boshlang'ich professional va oliy ta'lim dasturlaridan iborat.

Uzluksiz ta'limda matematika o'qituvchisining asosiy sifatlaridan biri – bu qat'iyatlilik va tirishqoqlik bo'lib, bu sifat bir tomondan kasbiy malakaning shakllanishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan ko'proq bilimga ega bo'lishga va egallangan bilimlarni o'quvchilarga o'rgatishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilar bilim zahirasi kengayishiga va uni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatining yana ham kengayib borishiga yordam qiladi.

Uzluksiz ta'limda matematika o'qituvchisining psixologik-pedagogik tayyorgarligi yuqori bo'lishi kerak bo'ladi, chunki:



- matematik tushunchalar, faktlar orasidagi bog‘lanish uzviylikni ko‘ra bilishda, shu uzviylikdan tegishli matematik xulosalarni keltirib chiqarishda;
 - matematik masala, misollarni yechishda kerak bo‘ladigan matematik qonun-qoida, shartlar va prinsiplarni tanlay bilishda;
 - matematik nazariyalarning birini ikkinchisi bilan taqqoslay bilishda va ularning bir-biridan tafovuti, farqi, bir-biridan kelib chiqishi, bir-birini to‘ldirishi, ustma-ust tushishi kabi sifatlarni aniqlashda;
 - matematik bilimni boshqa fan bilimlari bilan integratsiyalash yoki tatbiq qilishda undan foydalanishda muhim ahamiyatga ega ekanligini bilgan holda o‘zini shunday jarayonga tayyorlash uchun psixologik kategoriyadan unumli foydalanishi lozim bo‘ladi. Buning uchun albatta matematik tafakkurni rivojlantirgan bo‘lishi lozim bo‘ladi, bunda tafakkur operatsiyalaridan unumli foydalanishi muhim ahamiyatga egadir.
- Agar biz matematika o‘qituvchisining matematik tayyorgarligiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, u holda undagi bilimlar bankining strukturaviy tuzilishi quyidagi shajara ko‘rinishida bo‘lishi mumkin:



Bunda asosiy matematik bilimni beruvchi o‘quv predmetlari bilan bevosita o‘rta umumta‘lim maktablari, akademik litseylar, kollejlari uchun muhim bo‘lgan bilimlar tizimi asosan «elementar matematika», «matematik tahlil», «algebra va



sonlar nazariyasi», «geometriya» fanlari bilan bir qatorda matematik mantiq ham o'zining mantiqiy amallari bilan matematika o'qituvchisining shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Bunda o'qituvchi nafaqat darslikda berilgan, balki barcha matematik adabiyotlarda berilgan masala, misollarni yechishga psixologik tayyor bo'lishi bilan birga shu masala va misollarni yechish uchun zarur bo'ladigan qonun va qoidalarni bilishi, ularni tahlil qila bilishi, undan tegishli xulosalarni chiqarishni bilishi ham kerak bo'ladi. Shuning uchun ham matematika o'qituvchisi to'laqonli shakllanishi uchun o'quvchilar bilan birga ishlash psixologiyasini ham o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa A.Ya.Bloxning fikriga qaraganda, matematikada aniq tushunchani kiritishga, matn ustida ishlashga, ichki-matematik modellash-tirishni bilishga, tabiiy-ilmiy qonuniyatlarning bog'lanishidan foydalanishni bilish kerakligiga alohida ahamiyat berilishi lozim.

Bu esa o'z navbatida matematikani puxta o'rganishni ta'minlash bilan birgalikda o'quvchilarda tatbiqiy quvvatni oshirishga yordam ham beradi. Ayrim matematika o'qituvchilari nazariyani ancha yaxshi biladi, uni atroflicha tushuntirib berishi ham mumkin, lekin A.Ya.Blox aytganidek, matematikani ichki-matematik modelini yaxshi bilmasligi oqibatida uni amaliy tatbiqida qiynalishi mumkin. Masalan: $x^3 + 1 = 2\sqrt{2x - 1}$ tenglamani yeching - deb berilgan misolni qaraydigan bo'lsak, tenglama sirtidan bir qarashda belgilab olib kvadrat tenglamaga keltirsa bo'ladigandek tuyuladi, lekin bu belgilab olishga ham, darajaga oshirishga ham bo'ysunmasdan o'quvchidan boshqa bir original yo'llar izlash kerakligini eslatadi va shunga undaydi ham. Shu bois matematika o'qituvchisi shunday misollarga duch kelganda uni yechishdan qo'rqib qochishi kerak emas, balki uni yechishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Lekin bunday misollar matematika o'qituvchisining psixologiyasiga ko'p holda salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, balki qo'rqitib yuborishi ham mumkindir. Bunday holda nazariy o'quv materialining berilishiga ahamiyat qaratish kerak bo'ladi, ya'ni funksiya monoton bo'lsa u

holda $f(f(x))=x \Leftrightarrow f(x)=x$ munosabati o'rinli bo'lishiga asosan unda $x = \frac{(x^3+1)3+1}{2}$

ga ko'ra $\frac{x^3+1}{2} = x$ tengligini yozish mumkin bo'ladi. Birdan $x^3-2x+1=0$ bo'lib, $(x-1)(x_2+x-1)=0$ bundan x_1, x_2, x_3 , lami topish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi funksiya tushunchasini o'tganda, uni monoton o'sish va kamayish oraliqlari haqida fikr yuritir ekan, uni shu yuqorida



keltirilgan ajoyib xossasi haqida ham qisqacha to‘xtab o‘tilsa, o‘quvchilarga matematik bilimlarni chuqurroq o‘rganish imkoniyati yuzaga kelgan bo‘ladi va shu qatorda o‘ziga ma‘lum ishonchga ega bo‘lishga erishgan bo‘lar edi. Shuning uchun ham matematika o‘qituvchisini har xil sharoitlarda sinab ko‘rish uning ehtiyotkorligini, tejamkorligini, va shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi haqidagi fikrlarga to‘la suyangan holda ish olib borishga o‘rgatishga ahamiyat berish lozim.

Matematika o‘qituvchisining matematik qobiliyati, eruditsiyasi, intuitsiyasi, mantiqi ham ma‘lum darajada rivojlanganligi juda muhim ahamiyatga egadir. Pedagogik, metodik tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi o‘quvchilar ko‘z o‘ngida shaxs sifatida rivojlangan bo‘lishi uchun uning mutaxassislik bilim va qobiliyatiga egalik hamda shu o‘quvchilar ishonchini qozonishi taqozo qilindi. U pedagog-o‘qituvchi sifatida pedagogik yangiliklarni sistemali o‘zlashtirib borishi, yig‘ilgan yangi pedagogik texnologiyalarni o‘z ish faoliyatida tatbiq qilib borishi, boshqa fan asoslaridan va ulardagi axborotlardan xabardor bo‘lishi, o‘z ishida foydalanishi, psixologik kategoriyalar, prinsiplar, qonuniyatlardan pedagogik faoliyatida yetarli darajada foydalanishi hamda o‘z ishiga ijodiy yondashgan holda amalga oshirib borishi pedagog-matematik sifatida shakllanganligidan dalolat beradi.

Psixologiyadan ma‘lumki, inson o‘zining hamma turdagi faoliyatlarini rivojlantirib, takomillashtirib borishi natijasida u shu yo‘nalishda ijod qila boshlaydi yoki, bir so‘z bilan aytganda, ijodiy faoliyatining boshlang‘ich elementlari yuzaga kela boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida, ayniqsa, matematik qobiliyatning rivojlanishini namoyon qiladi.

Xullas, yuqoridagi fikrlarni amalga oshira borishda bevosita matematika o‘qituvchilarining matematik-pedagogik tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим миллий ўқув дастурлари.-Т.2021 йил.
2. Н.В.Богомолов. Математикадан амалий машғулотлар.- Т.: «Ўқитувчи», 1984.-75 б.
3. Ш.О. Алимов ва б. Алгебра. 8-9 синф дарсликлари. Т., Ўқитувчи. 2010.
4. В.С. Крамов Повторяем и системализируем школьный курс алгебры и начала анализа. Москва, Просвещение, 1990.



TA'LIMNI BOSHQARISHDA STRATEGIYADAN FOYDALANISH UZLUKSIZ TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

E. U. XUDOYBERDIYEV,

*A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot
instituti maqsadli tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish, ta'lim muassasalarida sifat samaradorligiga erishishda strategiyaning ahamiyati, ta'limni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish zarurati haqida mulohaza yuritilgan. Ta'lim sifatini strategik rejalashtirish va uni amalga oshirishga ta'sir etuvchi muhim omillar; maktab ta'limida strategik boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z va iboralar. *Uzluksiz ta'lim, ehtiyoj, konsepsiya, strategiya, innovatsiya, samaradorlik, ta'limni boshqarish, ta'lim sifati, baholash, rejalashtirish, faoliyat, natija, rahbar, inson resurslari.*

В данной статье рассматриваются вопросы реализации концепции непрерывного образования, важность стратегий в достижении эффективности качества в образовательных учреждениях, необходимость совершенствования методов разработки стратегий управления образованием. Обсуждаются важные факторы, влияющие на стратегическое планирование качества образования и его реализацию, особенности стратегического управления в школьном образовании.

Ключевые слова: *Непрерывное образование, потребность, концепция, стратегия, инновации, эффективность, образовательный менеджмент, качество образования, оценка, планирование, деятельность, результат, лидер, человеческие ресурсы.*

In this article, the implementation of the concept of continuous education, the importance of the strategy in achieving quality efficiency in educational institutions, and the need to improve the methods of developing the educational management strategy are considered. Important factors affecting strategic planning of educational quality and its implementation, specific features of strategic management in school education are discussed.

Key words: *Continuing education, need, concept, strategy, innovation, effectiveness, educational management, educational quality, evaluation, planning, activity, result, leader, human resources.*

Dunyo hamjamiyatida inson resurslaridan oqilona foydalanish masalasi dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Ayni shu muammo yechimi ustida tinimsiz izlanishlar, ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda va birdan-bir yechim sifatida ta'limning uzluksizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, OECD



mamlakatlari ta'limdagi innovatsiyalarni rag'batlantirish, osonlashtirish, o'lchash, ta'lim muassasalarida ta'limni strategiya asosida boshqarish uchun samarali va dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo'yicha bilim, tajriba almashib kelmoqda.

Shu o'rinda «OECD» haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu – iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti (OECD) hisoblanadi. Tashkilotning asosiy maqsadi – a'zo davlatlar umumiy muammolarga yechim topish uchun birgalikda ishlash, rivojlanish, global standartlar, tajriba almashish va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash, yaxshi hayot uchun yaxshiroq siyosatni ilgari surish.

OECD tashkilotining ta'lim uchun CERI innovatsion strategiyasi uzliksiz ta'lim tizimini tubdan va bosqichma-bosqich innovatsiyalar asosida doimiy takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash, odamlarni innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashda yangi yondashuvlarni o'rganmoqda. Shuningdek, ta'limni strategiya asosida boshqarish jaroyoniga innovatsiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilgan. Loyiha ikkita asosiy va qo'shimcha ish yo'nalishini ishlab chiqqan. Ular quyidagilar:

1. Ta'limdagi innovatsiyalar. Bu ta'lim sohasida innovatsiyalarning turli shakllarini qanday rivojlantirish va o'lchash mumkinligi hamda ular qanday yaxshi natijalarga olib kelishini o'rganadi.

2. Innovatsiyalar uchun malaka va ta'lim. Bu innovatsion jamiyatlarda zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plamini va ularni ta'limda qanday rivojlantirish mumkinligini o'rganadi[3;1].

Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini oshirish uchun uning uzviyligini ta'minlash borasida jiddiy islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida «Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir», deb belgilab qo'yilganligining o'zi davlat ta'lim tizimining barcha boshqichlari bir-birini to'ldirgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishini nazorat qilishi va qo'llab-quvvatlashini bildiradi. Shu bilan bir qatorda davlat tomonidan ta'lim muassasalari faoliyatining sifat samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilgan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'rtinchi yo'nalishi mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan hamda buning uchun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, bu orqali ta'lim muassasalarining o'ziga xos ijobiy imidjini yaratish nazarda tutilgan. Bu harakatlarning barchasi ta'lim sifatini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Chunki sifatli ta'lim orqali inson kapitalini rivojlantirish, zamon talablari darajasidagi ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash, o'zgaruvchan turmush tarziga moslashib, unda o'z o'rnini topa oladigan kreativ shaxslarni tarbiyolash mumkin.



Bugun insoniyat oldindan bilib bo'lmaydigan noaniqliklarga duch kelmoqda. Bunday sharoit ta'lim tizimida rejalashtirishga zaruratni keltirib chiqaradi va ushbu vaziyatda «...rejalashtirishga bunday yondashuv muvaffaqiyatli bo'lishi uchun maktab ichida asosiy qadriyatlar va umumiy qabul qilinadigan vositalar to'g'risida kelishuvga ega bo'lish kerak, ular an'anaviy ierarxik boshqaruv modeliga asoslanmagan, qoidaga bog'liq bo'lmagan moslashuvchan hamda bir-biridan ajratilish xususiyatiga ega funksiyalarni o'z ichiga qamrab olishiga urg'u berish muhim»[1;13]. Biz ham maktab ta'limida boshqaruv strategiyasini ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda qo'llash tarafdorimiz. Chunki dunyodagi globallashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy tendensiyalarning tez o'zgarishi natijasida insonlarning ehtiyojlari ham shunga mos tarzda o'zgarib turadi. O'zgaruvchan ehtiyojlarni qondirish uchun esa ta'limni boshqarish strategiyasining moslashuvchanligi va qadriyatlarini inobatga olishi katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Strategik rejalashtirishning yetakchi maqsadlari ta'lim muassasasini rivojlantirishning muayyan vaqt oralig'iga mo'ljallangan umumiy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq emas, balki ushbu ta'lim muassasasi ko'rsatadigan ta'lim xizmatlarining eng muhim yo'nalishlarini, shuningdek, bu yo'nalishning iste'molchilar ehtiyojiga nechog'li mosligini tushunib olish va ularni qayta ko'rib chiqish bilan belgilanadi[7;112]. Strategik rejalashtirish ta'lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish[6;120]dir. Strategik rejalashtirishda biz belgilamoqchi bo'lgan kelajak, avvalambor, manfaatdor ta'lim hamkorlarining turli tarmoqlari kelishuvi orqali belgilanishi kerak. Keyinchalik, bunday kelajakni rejalashtirish uchun o'quv tizimi ishlab chiqilishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tegishli ta'lim tizimi va siyosatining tasviri bu bosqichda ta'minlanishi kerak, so'ngra ketma-ket texnik tahlil va o'zgartirish orqali kelishuvga erishiladi, chunki har qanday ta'limdagi eng muhim strategik boshqaruv muvaffaqiyatining asosiy omili insondir»[5;2].

Sifat o'z-o'zidan taminlanib qolmaydi. Sifatga erishish uchun SMART (aqlli) strategiya kerak va strategik harakat ushbu to'rtta bosqichda amalga oshirilishi zarur: «strategik baholash, strategik faoliyatni rejalashtirish, strategik faoliyatni amalga oshirish, strategik faoliyat natijalari»[4; 2-5].

Ayrim tadqiqotlarda esa ta'limni takomillashtirish strategiyasi samarali o'qitish amaliyotini takomillashtirishning asosiy strategiyasi sifatida qaralishi kerakligi va ayni paytda strategik boshqaruv xavfli boshqaruv ekanligiga e'tibor qaratilgan[5;3]. Ushbu fikr strategiyani belgilashda noto'g'ri tahlil va baholash, rejani aniq va puxta tuzmaslik natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlardan kelib chiqqan. Yana bir xavfli jihati shundaki,



strategiyani faqat rahbarlar ishlab chiqib, qolgan jamoa a'zolari ishtirok etmasa va uni o'zini deb his qilmasa ham strategiya amalga oshmay qolishi mumkin. Chunki jamoa o'zini deb bilmagan strategiyani amalga oshirish uchun o'zida mas'uliyat sezmaydi hamda samaradorlikka erishilmaydi.

Ta'limdagi islohatlarning natijasi yuzaga chiqishi uchun uzoq vaqt talab etiladi. Strategik boshqaruv ham uzoq muddatga mo'ljallangan innovatsiyalarni joriy qilishni nazarda tutadi. Bunda asosiy maqsadga kichik maqsadlarni bo'ysundirish hamda kichik maqsadlarga boshqichma-bosqich avvaldan belgilangan muddat ichida erishish orqali asosiy maqsad amalga oshiriladi. Shu bois ta'limni strategiya asosida boshqarish zamon talabi va sifat kafolati ekanligini inobatga olib, har bir maktab rahbari o'z jamoasi bilan birga ish faoliyatida strategiyadan foydalanish muhimligini anglab yetishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bell, L. (1999), .Back to the Future, the development of education policy in England., The Journal of Educational Administration, vol. 37, nos. 3 & 4, pp.200. -p.13.
2. Connolly, Michael; James, Chris; Fertig, Michael (2017-12-20). «The difference between educational management and educational leadership and the importance of educational responsibility». Educational Management Administration & Leadership. 47 (4): p.505. doi:10.1177/1741143217745880. ISSN 1741-1432. S2CID 148809630
3. Innovation strategy for education and training. OECD. www.oecd.org/edu/innovation, - p. 1.
4. Sammut-Bonnici T. Strategik menejment. Wiley Encyclopedia of Management - Vol 6 International Management, 2015. - pp. 2-5. DOI: 10.1002/9781118785317.wcom060194
5. Yaakob M.F.M., Habibi A., Musa M.R., Othman R. Strategic management and strategic planning in school: is it worth for teachers? Article in Academy of Strategic Management Journal. January 2019. - pp. 2-3.
6. Джурраев Р.Х., Тургунов С.Т. Таълим менежменти. Тошкент: «Ворис-Нашриёт», 2006. - 119-120 б.
7. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Тошкент: «Турон-Иқбол»: 2006 - 102, 112 б.



UZLUKSIZ TA'LIMDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING AMALIY VA KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

K.K.KUDRATOV,
TDPU

Informatika o'qituvchining amaliy va kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlar, o'quv-bilish faoliyatining qat'iy pedagogik omillar orqali o'zlashtirilishini, talabalarda o'quv-tarbiya jarayonining subyektiv motivlariga bog'liq bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka, amaliy faoliyatga tayyorgarlik hamda o'quv fanlariga munosabat, intellektual-motivasion pedagogning qobiliyati va shaxsiy tajribasini inobatga olish kabi pedagogik didaktik omillar namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: algoritmik ketma-ketlik, amaliy va kognitiv, maqsadli komponent, bilim, ko'nikma, ochiq axborot-ta'lim, intellektual-motivasion, emotsional-irodaviy.

Информатика дает дидактические возможности для развития практической и познавательной компетентности учителя, овладения учебной деятельностью за счет собственно педагогических факторов, знаний и умений, которые зависят от субъективных мотивов образовательного процесса у учащихся, а также педагогико-дидактических факторов, таких как квалификация, проявляются подготовка к практической деятельности и отношение к учебным предметам с учетом способностей и личного опыта интеллектуально-мотивационного педагога.

Ключевые слова: алгоритмическая последовательность, практическо-познавательный, целевой компонент, знание, умение, открытая информационно-образовательная, интеллектуально-мотивационная, эмоционально-волевая.

Informatics provides didactic opportunities for the development of the practical and cognitive competence of the teacher, mastery of educational activities due to the actual pedagogical factors, knowledge and skills that depend on the subjective motives of the educational process among students, as well as pedagogical and didactic factors, such as qualifications, preparation for practical activities and attitude to academic subjects are manifested, taking into account the abilities and personal experience of an intellectual and motivational teacher.

Key words: algorithmic sequence, practical and cognitive, target component, knowledge, skill, open information-education, intellectual-motivational, emotional-volitional.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-individual sifatlarini rivojlantirishda «kompetensiya» tushunchasi bilan bog'liq holda «subyektiv» tushunchasini qarash muhim hisoblanadai. Demak, kompetensiya bo'lajak o'qituvchining individual sifatlarini rivojlantirish muammosini ko'rib shiqishning maqsadga



muvofiqligini ko'rsatadi. Ma'lumki, «kompetensiya» tushunchasini bo'lajak o'qituvchi shaxsining sifatlariga qo'yiladigan, unga muayyan faoliyat sohasidagi hayotiy vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradigan obyektiv talab sifatida qarash muhim hisoblandai.

Amaliy va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga quydagisha to'xtalib o'tilgan: kompetensiya – biror narsani yaxshi yoki samarali bajarish qobiliyati; ishga joylashishdan oldin qo'yilgan talablarga muvofiqlik; axborot-ta'lim funksiyalarini bajarish qobiliyati.

Akademik R.X.Djuraev bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv qobiliyatini rivojlantirishning asosiy jihatlari to'xtalar ekan: ta'lim – tarbiya jarayonida mutaxassislarining individual xususiyatlarini rivojlantirish masalalari, «ta'lim jarayonini tashkil etishda, talabalarni majburlash tarzida emas, balki har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy yondashish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, talaba har bir ishda namuna bo'lish, fikrlash, anglash hamda talab va ehtiyojlarni tushunish, qat'iy-intizomga rioya etish, ilmiy-nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash» deb izohlaydi.

N.A.Muslimov tadqiqotlarida kompetensiyaga shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati deb izohlaydi.


O.A.Qo'ysinov bo'lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishini shunday tahlil qiladi, kasbiy kompetensiya bu bilim, mahorat va tajriba uzviyligi bo'lib, loyihalash mutaxassis faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi omil deb qarash kerakligiga alohida urg'u berib o'tadi.

Demak, ushbu atamalarning tadqiqotchilar tomonidan turlicha tahlil keltirilganligiga didaktik imkoniyatlar talabalarning individual traektoriyasining dinamik yo'nalganligini ta'minlashning barqaror natijadorligiga erishish asosida alohida urg'u berish masalasi muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda amaliy va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida: birinchidan, amaliy va kognitiv kompetensiya ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ochiq axborot-ta'lim orqali talabalarning ichki motivlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va mustaqil ta'limni rivojlantirishning algoritmik ketma-ketligiga asoslangan kompetentli yondashuvga ustuvorlik berish; ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda amaliy va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish kreativ-ijodkorlik sifatlarini yuzaga chiqarishda, ochiq axborot-ta'lim muhitlaridan foydalanish bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashda guruh jamoasining tashqi motivatsion ta'sirlar orqali rivojlantirish; uchunchidan, bo'lajak informatika o'qituvchilari maqsad qilib qo'ygan faoliyat ko'nikmalariga yetishlari,



mustaqil ijodiy faoliyat yuritishlari, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda zarur ko'nikma va izlanuvchanlik qobiliyatlari kabi o'quv didaktik imkoniyatlarini talabalarning individual traektoriyasining dinamik yo'nalganligini ta'minlashning barqaror natijadorligiga erishish asosida ro'yobga shiqarish sifatleri xozirgi vaqtda dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.



«Amaliy va kognitiv kompetensiya» tushunchasi tahlilini ochib berishda ta'limiy yondashuvlarni integrallashuvi orqali quyidagi xulosalarni keltirib o'tishni lozim deb topdik: olib borilgan tadqiqotlarda o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim texnologiyalarini bilishga, o'quv faoliyati, o'z-o'zini boshqarishga va bilim olish malakalarini egallashga e'tibor qaratilganligi; amaliy va kognitiv kompetensiya jamiyat taraqqiyotida ta'limning sifat jihatdan takomillashtirishini nazarda tutadi; ta'limda kompetensiyaviy yondashuv shaxsiy sifatlarini rivojlanishi, amaliy va kognitiv kompetensiya tarkibida intellektual, motivatsion, emotsional, irodaviy, qadriyatli, baholovchi va boshqa komponentlarni ajratib ko'rsatadilar, lekin kognitiv ta'lim alohida iqtidorga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-bilish qobiliyati ko'plab omillarga bog'liq, lekin ko'proq darajada – ta'lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va aqliy qobiliyatlariga intellektual-motivatsion bog'liq holda rivojlanib boradi. Demak, aqliy rivojlanish deganda ularni egallash jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma, aqliy harakatlar majmui tushuniladi. Inson erishgan aqliy rivojlanish darajasi uning intellektual-motivatsion qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Agar aql – bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish sharti bo'lsa, unda aqliy rivojlanish fikrlashning mazmuni, usullari va shakllarini tavsiflaydi. Aql-idrok qobiliyatlarining nisbatan barqaror tuzilishi bo'lib, ular turli xil sifatdagi axborotni qayta ishlash va uni ongli ravishda baholashni ta'minlaydigan jarayonlarga asoslanadi.



Amaliy va kognitiv kompetentlikka bag'ishlangan mavjud tadqiqotlarida faqat o'quv-bilish faoliyati hamda kompetensiya mazmunini aniqlashning ustuvor tamoyillari orqali shakllantirish mumkinligi ta'kidlanadi. Kompetensiya mazmunini aniqlashning ustuvor tamoyillari quyidagilardan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy va kognitiv kompetensiyaning tarkibiy tuzilishida quyidagi komponentlar: bilim, ko'nikma, malaka, dunyoqarash, shaxsiy munosabat kabi jihatlar alohida o'rin egallaydi; bilim – bo'lajak mutaxassisdan o'z maqsadlariga yetishlari, mustaqil faoliyat yuritishlari, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishlari zarur ko'nikmalar, ta'limiy va izlanuvshanlik qobiliyati kabi o'quv imkoniyatlarini ro'yobga shiqarishlarida muhim ahamiyat kasb etadi; bo'lajak mutaxassisda ko'nikmaning shakllanganlik darajasiga bog'liq asosiy ko'nikmalar matematik savodxonlik va boshqalar ushun zarur bo'lgandan iborat ta'lim; malaka – bo'lajak mutaxassisning o'quv-tarbiya jarayonida olingan bilim, egallangan ko'nikma natijasi sifatida yangi bilimlarni mustaqil egallay olish, ochiq axborot-ta'limi ularni birlashtirishda muhim o'rin tutadi; dunyoqarash — bo'lajak mutaxassisning o'z oldiga qo'ygan maqsadga yetishishida bilim sifatini oshirishda o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati, o'z-o'zini tartibga solish, shaxsning o'z-o'zini rivojlanish jarayoni natijasidir deb takidlashga asos bo'ladi. Shaxsiy munosabat – bo'lajak mutaxassis ta'limiy munosabatlarga tayyorligi, ya'ni ta'lim jarayonida egallangan bilimning o'zlashtirish darajasini yaxshilashi, amaliy va kognitiv qiziqishi, o'zaro ta'siri, umumiy hisobga olish jarayonida ustuvorliklar muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kudratov K.K. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda sunrav bookoffice dasturining imkoniyatlari// «Ilmii axborotlar» №2 2017-yil b.19-23
2. Kudratov K.K. O'qitish jarayonida kognitiv kompetentlikni shakllantirish. «Uzluksiz ta'lim» jurnali .maxsus son 2021-yil b.54-58.
3. Kudratov K.K Bo'lajak informatika o'qituvchilarining amaliy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlari.// European Journal of Interdisciplinary Research and Development Volume-10 Dec. - 2022 Website: www.ejird.-journalspark.org ISSN (E): 2720-5746 211 JIF:7.985



BOTANIKA KURSIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

SH. T. YAKUBJONOVA,

TDPU g.f.f.d., dotsent

T. NORBOBOYEVA,

dotsent ChDPU b.f.n.,

N.I. SHONAZAROVA X.I. ABDURAIMOVA,

ChDPU o‘qituvchilari

Maqolada oliy o‘quv yurtlarini ikkinchi kurs biologiya yo‘nalishi bo‘yicha yuksak o‘simliklar sistematikasi kursidan «Dala qirqbo‘g‘imining tuzilishi va ko‘payishi» mavzusidagi o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotning dars ishlanmasi berilgan.

Kalit so‘zlar: *sporafit, sporangiy, sporalar, anteridiy, arxegoniy, gametofit, ildizpoya, spermatazoidlar, tuxum hujayra, zigota, rizoid.*

В статье представлена разработка урока практического занятия по теме «Строение и размножение осоки полевой» из курса высшей систематики растений в области биологии второго курса высших учебных заведений.

Ключевые слова: *спорафит, спорангий, споры, антеридий, архегоний, гаметофит, корневище, сперматозоиды, яйцеклетка, зигота, ризоид.*

In the article, the lesson development of the practical training on the topic «Structure and reproduction of field sedge» from the course of advanced plant systematics in the field of biology of the second year of higher educational institutions is given.

Key words: *sporophyte, sporangidium, spores, antheridium, archegonium, gametophyte, rhizome, spermatozoa, egg cell, zygote, rhizoid.*

Oliy ta‘lim muassasalarida ma‘ruza darslari amaliy mashg‘ulotlar bilan birga olib boriladi. Botanika kursida amaliy mashg‘ulotlar deyarli har bir mavzuni o‘rganishda tashkil etiladi. Botanika kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni maqsadi talaba va o‘quvchilarning bilimlarini oshirish orqali amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda yanada rivojlantirish. Yoshlarning nazariy bilimlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga, atrof-muhit ekologik holatini asoslashga, tabiat bilan munosabatda olgan bilimlarini qo‘llay olishlarida muhim yordamchi bo‘la oladi. Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish orqali talaba yoshlar o‘zi yashab turgan joyning ekologik monitoringini o‘rganadi [5].

Bir necha yillar davomida laboratoriya mashg‘ulotlarida to‘plangan tajribalarga asoslanib, O‘simliklar sistematikasi kursidan «Dala qirqulog‘imining



tuzilishi va ko'payishi» mavzusida o'tiladigan laboratoriya mashg'ulotining dars ishlanmasini berishni lozim topdik[6].

Darsning ta'limiy maqsadi: Qirqbo'g'im o'simligining quruqlikka moslashish munosabati bilan ularning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlarini talabalarga tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarga o'simliklarning xilma-xilligi, ularni turli ekologik muhitga moslashishini tushuntirish orqali ekologik tarbiya berish, o'simliklarni muhofaza qilishga o'rgatish.

Darsni rivojlantiruvchi maqsadi: O'simliklarni aniqlash, tanib olish, laboratoriya jihozlaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Mox, qirqbo'g'imlarni gerbariylari, yangi uzib olingan o'simliklar, lupa, mikroskop, tayyor mikropreparatlar, laboratoriya jihozlari, mox, qirqbo'g'imning ko'payishi va rivojlanishini aks ettirgan sxematik rasmlar.

Bo'lim: Qirqbo'g'imtoifa-Equisetophyta

Ajdod(sinf): Qirqbo'g'imtoifa-Equisetophyta

Oila: Qirqbo'g'imdoshlar- Equisetaceae

Turkum: Qirqbo'g'im-Equisetum

Tur: Dala qirqbo'g'imi- Equisetum arrense

Ishning borishi: Amaliy mashg'ulotni boshlashdan avval talabalar bilan mavzu yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

Quyidagi ko'rsatmalardan foydalanib amaliy mashg'ulot bajariladi.

1. Mox va dala qirqbo'g'imining gerbariylari yoki yangi uzib olingan tuplarini yonma-yon qo'rib, barcha qismlarini bir-biriga taqqoslang, farqli belgilarni aniqlang. O'simliklarni quruqlikka chiqishi munosabati bilan ularda hosil bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

2. Qirqbo'g'imning yerostki qismini ko'zdan kechiring. Ildizpoyasi, qo'shimcha ildiz va tugunaklarini toping. Ildizpoyasida va tugunaklarida qanday zahira oziq moddalar to'planishi, ularni qaerda hosil bo'lishi, ahamiyatini izohlab bering.

3. Dala qirqbo'g'imining umumiy ko'rinishini ko'zdan kechiring, bahorgi va yozgi poyalarini aniqlang, ularni bir-biriga solishtiring, farqli belgilarini aniqlang.

4. Qo'ng'ir rangli bahorgi poyani shoxlanmaganligiga, bo'g'im, bo'g'im oraliqlariga bo'linganiga, bargida joylashgan nashtarga o'xshash reduksiyalangan barglarni poyada joylashishiga, poyani uchida joylashgan spirali boshog'iga e'tibor bering. Bahorgi poyani vazifasini aniqlang.

5. Yozgi yashil poyalardagi bo'g'im, bo'g'im oraliqlari bo'g'imda to'p-to'p o'rnatilgan shoxlaridan va boshqa o'simliklarning poyasidan kichikroq



bo‘lak singdirib olib, navbat bilan ikki barmog‘ingiz orasiga olib ezib ko‘ring, farqini toping. Farqli belgini izohlab bering.

6. Shoxlanmagan qo‘ng‘ir tusli bahorgi poyani uchida joylashgan boshqochani toping va kuzating. Boshqochani hosil qilgan sporofillardan bittasini pinsetda uzib olib, lupa orqali kuzating. Sporofillni qanday qismlardan tuzilganligini ko‘rsating. Qirqbo‘g‘imning etilgan boshqochasini siltab sporalarini tushiring. Buyum oynasiga joylashtirib (qoplag‘ich oyna bilan yopmasdan) mikroskopda kuzating. Uni qanday qismlardan tuzilganini aniqlang. Sporanı asta-sekin puflab ko‘ring, elatera harakatini kuzating. Nima uchun qirqbo‘g‘im sporasini barometr deb atalishini izohlab bering.

7. Rasm-sxemadan foydalanib o‘sib turgan dala qirqbo‘g‘im-sporofitdagi yozgi va bahorgi poyalarni bahorgi poyani ichida hosil bo‘lgan boshqochani ko‘rsating. Sporalı boshqochada yetilgan sporangiydan chiqayotgan tashqi ko‘rinishi bir xil fiziologik xususiyati bilan farq qiladigan to‘rt qanotchali sporalarni kuzating.

8. Urg‘ochi o‘simta-gametofit hosil qilgan sporalarni plyus (+) ishorasi bilan, erkak o‘simta-gametofit vujudga keltirgan sporanı minus (-) ishorasi bilan belgilang. Gametofitlarnı bir-biriga taqqoslang farqli va o‘xshashlik belgilarnı toping. Ularning shakliga, rangiga, unda joylashgan arxegoniy, anteridiylarga e‘tibor bering. Anteridiyda yuzaga kelgan ko‘p xivchinli spermatazoidlarnı suvga chiqib, arxegoniy tomon harakatlanib, uni ichidagi tuxum hujayrani urug‘lantirganini ko‘rsating. Urug‘lanish natijasida vujudga kelgan zigotadan o‘sib chiqqan yangi qirqbo‘g‘im o‘simligi – sporofitni toping.

Talabalar topshiriqlar yuzasidan baholanadi. Dars so‘nggida mavzu yuzasidan uyga topshiriqlar va nazorat savollari beriladi.

Xulosa. Mamlakatimiz tabiiy sharoiti o‘simliklarning rang-barang turlarga boy bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlarnı tashkil etishda hududimizda tarqalgan o‘simliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mahalliy materiallardan foydalanish talabalarga mahalliy o‘simliklarnı tanib olish, ularni turlarini aniqlash, ularni muhofaza qilishda ahamiyatga ega.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Пратов Х ва бошқалар. «Таълим тажрибаси», Тошкент, 2020.
2. Рейвн П. и др. «Современная ботаника» Том 1.2. Москва «Мир» 1990.
3. Тошмухамедов З.И. Ўсимликлар систематикасидан амалий машғулотлар. Тошкент. «Ўзбекистон». 2001.
4. Худойқулов С.М., Казаренко Л.И. Ўсимликлар систематикасидан амалий машғулотлар. Тошкент. Ўқитувчи", 1984.
5. Якубжонова Ш.Т., Ишмўминов Б.Б. Экология ва атроф муҳит муҳофазаси.- Т: Bookmanу принт, 2022. 45-49 бетлар.



ZAMONAVIY TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

G.MARDIYEVA,

p.f.n.

Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishdagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'lida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik texnologiya, muammoli o'qitish, ijtimoiy, iqtisodiy, fan-texnika, axborot texnologiyalar, mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik, tanqidiy fikrlash va boshqalar.

This article discusses the problems of improving the quality of education, the use of teaching technologies to overcome them, their specific features.

Key words: knowledge, skills, competencies, pedagogical technology, problembased learning, social, economic, science and technology, information technology, independence, initiative, responsibility, critical thinking and more.

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo'ylab qaysi korxonada, qaysi tashkilotda bo'lmasin, mutasaddilar bilan uchrashmasin, albatta, uchta so'zni takrorlashlari va talab etishlari bejiz emas. Bular – sifat, samara va natijadorlik. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak, Prezidentimiz o'zi qayta-qayta e'tirof etgani kabi «Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmida». Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li – yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham «Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir», deyiladi Murojaatnomada.

Prezident tomonidan ko'pgina vazirliklarni, tashkilotlarni qisqartirish tashabbusi ham aslida sifat va samaraga e'tibor qilish, ishning unumini nazarda tutish bilan bog'liq. Bir karra ta'lim berish ikki karra ta'lim olish ekanini unutmashlik zarur. Ta'lim berishning ham o'ziga xos mashaqqati, rohati, muhim usul va uslublari bor. Bilish boshqa, uni yetkazish va unga amal qilish boshqa. Chunki ilmu amal birlikda bo'lmasa, samara haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Sifatli ta'lim masalasi avvalambor, intellektual salohiyatga ega bo'lgan, zamonaviy bilim, texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng bo'lgan muallimga bog'liqdir.

O'qituvchi ko'p bilimga ega bo'lsa, axborot texnologiyalarini obdon o'rgangansa, xorij sertifikatlariga ega bo'lib, ko'p tillarni bilsa, hatto, bo'yi barobar



kitobu ilmiy maqolalar yozgan bo'lsa ham, hali bu ta'limning sifati va samarasi degani emas. Bu masalaning bir tomoni, xolos. Chunki ta'limning sifatli bo'lishi uchun jahon miqosidagi sohaviy yangiliklar va bilimlarni obdon o'rganish, hamkorlik rishtalarini bog'lash, yetuk mutaxassis, malakali o'qituvchilar tajribasini ommalashtirish badaliga bo'lishi asosiy maqsaddan yiroq emas.

Keyingi 10-15 yil ichida O'zbekiston Respublikasi ta'limi sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi. Shunday bo'lishi ham tabiiy edi. Chunki butun taraqqiy etgan dunyo hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar insoniyat rivojlanishning yangi bosqichiga o'tganligini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi davrga monand yangicha tafakkur va ongni shakllantirishdek o'ta muhim va murakkab muammoni qo'ydi. Bu muammoni hal etish, albatta, hukumat va jamiyatning ilg'or qatlami sanalgan ziyolilar, olimlar, ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanadigan o'qituvchi va tarbiyachilar zimmasiga tushadi. Jumladan, innovatsiya ham ana shu murakkab muammoni hal etish maqsadiga qaratilgan, ijtimoiy zarurat tufayli paydo bo'lgan g'oyalardan biridir.

Innovatsiya pedagogik tizim ichida amalga oshiriladigan jarayon ekanligini inobatga olib, avvalo, pedagogik tizim, uning ichki komponentlari to'g'risida gapirib o'tmoqchimiz.

Pedagogik tizim – bu shunday muntazam komponentlar majmuiki, ular yangilanishlar jarayonida o'zgarmay qoladi. Agar yangilanishlar chegaradan chiqadigan bo'lsa, tizim buziladi va uning o'rniga yangi tizim paydo bo'ladi.

Bugun o'qituvchi qadri, nufuzi yuksalayotgan, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi izchil takomillashtirilayotgan muhim jarayonlarni boshdan kechiryapmiz. Mana shu e'tibor va g'amxo'rlikdan har bir o'qituvchi faxr-iftixor tuyushi bilan birga, ularga munosib bo'lishga intilishi – davr talabi. Pedagoglar bugunning yoshlari hayoti va talabiga javob bera oladigan o'quv metodikasi bilan ishlashi lozim. Ochig'i, eski, zamon ruhiga mos bo'lmagan bilimlarni beraversak, bugungi tarixiy imkoniyatni qo'ldan boy beramiz. Biz mamlakat ertasini kamolga yetkazypmiz, yurtdoshlarimiz ziyoli qatlam deya ortimizdan ergashmoqda. Ana shu mas'uliyat, zalvarli vazifa yuki har birimizni doim sergak torttirishi shart.

Bugunning o'qituvchisi yangicha fikrlaydigan, yoshlar hayotidan uzilmagan, o'z sohasining kelajak taraqqiyotini teran tahlil eta oladigan, asosiysi, navqiron avlod ko'ngliga yo'l topa oladigan haqiqiy muallim – ziyoli bo'lish kerak. Aslida, Prezidentimiz ta'lim sohasi vakillaridan kutayotgan va talab qilayotgan muhim vazifa ham aynan shudir.

Bilimlarni o'rgatish bilan birga, ulardan samarali foydalanmaslik an'anasiga ham barham berish vaqti keldi. Bog'chadanoq o'g'il-qizlarning qobiliyatiga tashxis qo'yish, qiziqishini aniqlab, shu yo'nalishga boshqarish maqsadga muvofiq.



Maktab davridan boshlab o'quvchilar salohiyatidan samarali foydalanib, innovatsiyalar yaratish, egallagan bilimini aynan shu layoqatga yo'naltirishga o'rnatish kerak. Hozir iqtidori, qiziqishidan qat'i nazar, bolalar bir xil dastur asosida o'qitiladi. Buning o'rniga yuqori sinflar o'quvchilari qobiliyatiga mos soha va yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olsa, ishlasa, darsga ham, ishga ham zavq-shavq bilan boradi. Samarali aqliy mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning ikki asosiy yo'li mavjud: intensiv va ekstensiv. Intensiv yo'l pedagogik tizimni uning ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ekstensiv yo'l esa pedagogik tizimga qo'shimcha investitsiyalar – yangi vositalar, jihozlar, texnologiyalar va mablag'ni jalb etishga asoslanadi.

Pedagogik tizimni intensiv yo'l bilan rivojlantirish imkoniyati cheklangan deb hisoblanmoqda. Chunki ming yillar mobaynida maktab hayotida hamma imkoniyatlar sinab ko'rildi.

G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan rivojlanmoqda. Ular pedagogik mahsulot miqdoriy ko'rsatkichini yangi axborot texnologiyalari hisobiga o'stirish, turli o'quv faoliyati uchun ketadigan vaqtni qayta taqsimlash, sinf ishini tabaqalashtirish va individuallashtirishga e'tibor bermoqdalar. Xo'sh, shu yo'l bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanyaptimi? Savolning javobi mavhumligicha qolmoqda. Ko'pgina mustaqil ekspertlar ham ushbu savolga javob berishga ikkilanyaptilar.

Muammoning o'ziga xos yechimi – bu «integratsiyalashgan innovatsiya» bo'lib, u pedagogik tizimni rivojlantirishda intensiv va ekstensiv yo'lni birlashtirish imkoniyatini ochib beradi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik tizimning hali qo'llanilmagan zahiralarni sinchkovlik bilan tahlil etishni talab qiladi. Pedagogik tizimning zaif joylarini yangi texnologiyalar bilan mustahkamlab, uning umumiy samaradorlik darajasini oshirish mumkin.

Ko'proq qaysi muammolar innovatsion jarayonning obyekti bo'lishi mumkin? Yana o'sha doimiy pedagogik muammolar: o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini oshirish; ta'lim sur'atini tezlashtirish; vaqtdan unumli foydalanish va hokazo. Innovatsion g'oyalarga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, ko'rinadiki, ular aslida hech qanday yangi asosdagi g'oyalarga emas. Shuningdek, eski muammolarni hal etishning «yangi chora»lari ham yo'q. +aqiqiy innovatsion g'oyalari sifatida faqat inson rivojlanishi to'g'risidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal etishda hali qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar, yuqori natija beradigan aniq amaliy texnologiyalarni tan olishimiz mumkin.

Ko'pgina umumiy va xususiy innovatsion loyihalar tahlili quyidagilarni umumiy pedagogik innovatsiyalarga kiritish imkonini berdi:

1) o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning yangi bo'lmagan, ammo hamisha dolzarb bo'lgan umumiy g'oyasi va amaliy texnologiyasini yaratish;



2) yaxlit holda nazariy va amaliy texnologiyani qamrab olgan insonparvar pedagogikani yaratish;

3) pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishga yangi g'oyalarga asosida yondashish;

4) yangi g'oyalarga, axborotlashtirish vositalari va ommaviy kommunikatsiyaga asoslangan texnologiyalar.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'rtinchi ustuvor yo'nalishida aynan adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha qator maqsadlar belgilangan. Demak, ta'lim islohotlari izchil davom etadi. Yangi o'quv dargohlari quriladi. Mavjudlari zamon andozalariga mos ta'mirlanadi. Ta'lim sifati, o'qituvchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari muntazam kengayib boradi. Zero, bu ishlarning natijasi ta'lim-tarbiya sifatida, yoshlarimiz kamolotida namoyon bo'ladi.

Muxtasar aytganda, jamiyatni inson o'zgartiradi, ta'lim insonni o'zgartiradi. Ta'limning markazida esa doim o'qituvchi turadi. Demak, muallimlarning jamiyatdagi o'rnini, hurmatini joyiga qo'yish, farovon yashashi uchun imkoniyatlarni kengaytirish borasidagi ishlar xalqimizning azaliy orzusi – yangi O'zbekistonni, uchinchi Renessans poydevorini yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiev M., et al. Design of lessons on the subject «Pedagogical technology and pedagogical skills» (practical application of the national model of pedagogical technology) / Textbook. T.: "TAFAKKUR-BOSTONI", 2012. -196 p.

2. Yakimanskaya I.S. Personality-oriented education technology in modern schools. - Moscow, 2010. -- p. 98.

3. Amanov R.O., and others. Organization and management of problem-based learning technologies in training sessions, problem-based learning methods. Proceedings of the I scientific-practical conference of professors and young scientists on «Integration of science, education and industry in the sustainable development of the agricultural sector.» Tashkent, May 30-31, 2017.

4. Golish L.V. Modern educational technologies; content, design and implementation. Express Manual T.: TESIS, 2001. - 59 p.

5. Mavlyanov A., et al. «Guidelines and recommendations for teaching science.» Methodical recommendation. -T.: Science and technology. 2016, 84 p.



ELEKTRON TA'LIM VOSITALARI – O'QUVCHILARNING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

I. YU. ABDURAXMANOVA,

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi

p.f.b.f.d (Phd),

M. T. UMARALIYEVA,

Toshkent farmasevtika instituti akademik litseyi,

p.f.b.f.d (Phd)

Ushbu maqola elektron ta'lim vositalari, elektron ta'lim vositalarini o'qichilarning iqtidorni rivojlantirishdagi, ta'lim sifatini oshirishdagi, ta'lim jarayoni va ta'lim sifatini tizimli boshqarishdagi, ta'limni jahon ta'limiga integratsiyasini osonlashuvidagi o'rni haqida bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligidan kelib chiqib, elektron ta'lim vositalariga bo'lgan talabning yuqoriligiga asoslangan. Maqolada biologiya fanidan yaratiladigan elektron ta'lim vositalarga qo'yiladigan talablar va elektron ta'lim vositalarining ta'lim tizimidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar. *Elektron ta'lim vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar, kompyuter, kreativ, multimedia, interaktiv doska, elektron o'quv resurslari, elektron nashrlar, mustaqil ta'lim*

Эта статья посвящена роли электронных книг, электронных учебников в развитии образования, повышении качества образования, а также систематическому управлению учебным процессом и качеством образования, а также роли образования в содействии интеграции образование в мировое образование. Он основан на высоком спросе на электронные учебники из-за актуальности информационных технологий в процессе. В статье описаны требования к электронным учебникам по биологии.

Ключевые слова. *Электронные учебники, информационные и коммуникационные технологии, педагогические инновации, компьютер, Интернет, мультимедиа, интерактивные доски, ресурсы электронного обучения, электронные публикации.*

This article is devoted to the role of e-books, e-textbooks in the development of education, improving the quality of education, moreover systematic management of the educational process and the quality of education, about the role of education in facilitating the integration of education into world education. It is based on the high demand for electronic textbooks due to the relevance of information technology in the process. The article describes the requirements for e-textbooks in biology.

Key words. *Electronic textbooks, information and communication technologies, pedagogical innovations, computer, internet, multimedia, interactive whiteboards, e-learning resources, electronic publications.*



Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi ilg'or tajribalarini integratsiyalash, xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga joriy etish, o'quvchilarning tabiiy-ilmiiy savodxonligini tarkib toptirish zamirida iqtidorini aniqlash va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur zarurat iqtisodiy, fan-texnika, innovatsion texnologiyalar, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida uzluksiz ta'lim tizimini muayyan darajada modernizatsiyalashni talab etadi. Bu borada «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306 son Qarori [1] [1] va O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi tomonidan «O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi hujjatlarda alohida e'tibor berilmoqda [2].

Ayniqsa, «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori (PQ-4996-son, 17.02.2021-y.) ning qabul qilinishi, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligini anglatadi [3].

Ta'limda yangi o'qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi pedagogik innovatsiyalar, internet, multimedia, interaktiv doska, elektron o'quv resurslardan foydalanish va elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Bu borada elektron o'quv resurslar alohida o'rin egallaydi. Elektron o'quv resurs bu mavjud o'quv qo'llanma yoki darslikni undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'lib, o'zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi.

Elektron o'quv resurs – bu o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishida, ko'nikma va malakalar orttirishida qulay va qiziqarli bo'lgan bilimlar bayon etilgan o'quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi vosita. Unda o'quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o'ziga xosdir. Elektron o'quv resurslar qator afzalliklarga ega: foydalanishda oddiyligi va qulayligi; elektron resursdagi axborotlarning yangilab borish imkoniyatining mavjudligi; ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim xizmatlarini taqdim etish tezligi; axborotlarning to'liqligi; ma'lumotlarning o'zlashtirishning osonligi; mustaqil ta'lim olish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Elektron resurslar barcha o'quv va uslubiy qo'llanma kabi an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi va ta'lim berishning spetsifik qonuniyatlariga mos ravishda o'qitishning didaktik tamoyillariga bo'ysunishi



kerak. Quyida biologiya fanlari bo'yicha yaratiladigan elektron resurslarga qo'yiladigan talablar haqida to'xtalib o'tamiz.

Biologiyadan yaratilgan elektron resurslarda ilmiylik (biologiya sohasida fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari)ni hisobga olgan holda o'quv materiali mazmunining to'liqligi, ishonchligi ta'minlangan bo'lishi, o'quv materiali va o'quv materialini o'zlashtirish jarayoni jahon ta'limi talablariga mos kelishi kerak. Bunda o'quvchilarga nafaqat katta ma'lumotlar manbaiga, balki, laboratoriya ishlari va yozma topshiriqlarni ekranda bajarish imkoniga ham ega bo'lishlari kerak. Elektron resurs vositasida biologiyani o'qitishda o'quv materialining murakkablik darajasiga alohida e'tibor qaratish va material o'quvchilarning yoshiga va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Shundagina, o'quvchi o'z imkoniyatlari doirasida, turli xil tezlikda materialni o'zlashtirishiradi.

Biologiya fanidan yaratilgan elektron resurslar o'qitishning muammolilik tamoyiliga mos kelishi shart. Bunda o'quvchi muammoli vaziyatga duch kelsa, uni mustaqil yechishga harakat qiladi, uning ijodiy qobiliyati va fikrlash faolligi o'sadi. Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi an'anaviy o'quv qo'llanmalardan ko'ra, elektron resurs yordamida sezilarli darajada yuqori bo'ladi. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga va iqtidorli o'quvchilarning o'z ustiga ishlashiga imkoniyat yaratiladi.

Biologiya fanini o'qitishda ko'rgazmalilik tamoyili alohida o'rin egallaydi. Shu bois yaratilayotgan elektron resurslar o'rganilayotgan biologik obyektlar (virus, bakteriya, o'simlik, hayvonlar), ularning maketlari va modellari, biologik jarayonlarning ketma-ketligini kuzatish imkoniyatini yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, biologik obyektlarni 3D modellari o'quvchilarni biologik bilimlarini kengayishiga, iqtidorli o'quvchilarga kreativ fikrlashni o'rtishiga imkon beradi. O'qitishning onglik tamoyili o'quvchilarning mustaqilligi va faolligini ta'minlash, o'quv materiallarini o'rganish, topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo'lgan istaklarini elektron resurslar vositasida ta'minlashni nazarda tutadi. Shuning uchun elektron resurslar biologiyani o'zlashtirishda tizimli faoliyatga yondashuv asosida yaratilishi va o'quv faoliyatining aniq modeli bo'lishi kerak.

O'qitishning tizimligi va ketma-ketligi talablari biologiyadan yaratilgan elektron resurslarda ham o'z aksini topishi juda muhim hisoblanadi. Bunda bilim, ko'nikma va malaka ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: o'quv materialini tizimlashtirilgan va strukturallashtirilgan holda tavsiya qilish; o'quv materialining har bir bo'limida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarning rivojlanishini ham inobatga olish; o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash; o'quv materiali va ta'lim beruvchi ta'sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o'ylab ko'rish; bilim berish jarayonini o'qitish mantiqi bilan aniqlanadigan ketma-ketlikda qurish; elektron resursda tavsiya qilingan axborotni, o'qitishning mazmuni va uslubi o'quvchining shaxsiy qobiliyatiga bog'liq holda tanlanishi kerak.



Biologiyadan elektron resurs yaratish jarayonida yuqoridagi tamoyillarga amal qilinishi ta'lim jarayonida tabaqalashtirish, individuallashtirish va loyihalashtirish orqali ta'lim sifatini oshishiga, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish jarayonini va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini samarali olib borilishiga asos bo'ladi.

Biologiyadan yaratilgan elektron resurslar :

– ta'limda o'qituvchining roli pasayib, o'quvchining mustaqil fikrlashishining ortishiga;

– o'rganilayotgan bilimlarning tezligiga;

– o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi erkinligiga;

– iqtisodiy jihatdan samaradorligiga;

– o'quv jarayonida audio, video, animatsiya, grafikalar asosida ta'lim berish natijasida o'quv materiallari xotirada uzoq muddatga qolishiga;

– olingan bilimlarning holisona baholanishiga imkon beradi.

Elektron vositalarni qo'llash asnosida: ta'lim oluvchilarning axborotlarni qabul qilish va qo'llash malakalari; vizual ko'rinishdagi verbal nusxalarni loyihalash ko'nikmalari; amaliy faoliyatida axborotlarni o'ziga xos tushunish va qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4306 son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi hujjatlari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (PQ-4996-son, 17.02.2021-y).

4. Abdurahmonova I.Yu. The role of eletroni textbooks in teaching biology // Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00073.

5. Musaev. J. Innovatsion darsliklarning o'ziga xos jihatlari. 2019 y.

6. Inoyatova.M.E. Akbarov. B.A. Elektron darslikka qo'yiladigan talablar. 2019 y

7. Djuraev.R.X. Darslik – pedagogik jarayonning innovatsion modeli sifatida. 2019y.

8. Taylaqova. D. N. Elektron o'quv resurslarni shakllantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar. 2019 y.



INKLYUZIV TA'LIM SIYOSATI VA YANGICHA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI

M.UMARALIYEVA,

ЎзПФТИТИ «Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash»
bo'limi boshlig'i, p.f.b.f.d (PhD), v.b. dotsent

Maqolada mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimini yuksaltirish mexanizmlari va pedagoglarning ushbu sohada kasbiy kompetentligini puxta egallash muammolari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimida alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari xorijiy mamlakatlar misolida ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, nogironligi bo'lgan o'quvchilar; siyosat, Rossiya ta'lim tizimi, metodlar, tadqiqot, tashkilot.

В статье рассмотрены механизмы продвижения системы инклюзивного образования в нашей стране и проблемы овладения профессиональной компетентностью педагогов в данной области. Также освещены особенности работы с детьми с особыми потребностями в системе инклюзивного образования на примере зарубежных стран.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, учащиеся с ограниченными возможностями здоровья, политика, российская система образования, методы, исследования, организация.

The article discusses the mechanisms of promoting the system of inclusive education in our country and the problems of mastering the professional competence of teachers in this field. The features of working with children with special needs in the system of inclusive education on the example of foreign countries are also highlighted.

Key words. Inclusive education, students with disabilities, politics, the Russian education system, methods, research, organization.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi hamda ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, qonunning 9-moddasida esa «Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi» deb, ko'rsatib o'tilgan.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentyabr oyida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif: «Yoshlar huquqlari to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. «Yoshlar huquqlari bu eng avvalo birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashash hamda ta'lim olishga bo'lgan



huquqlari hisoblanadi. ...Unib-o‘‘sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo‘‘lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta‘‘lim olishini ta‘‘minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi».

Dunyo miqyosida alohida e‘‘tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko‘‘maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumiy o‘‘qitish tizimida inklyuziv ta‘‘limning pedagogik-psixologik jihatlari, nogironligi bo‘‘lgan bolalarning ta‘‘limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a‘‘zosi sifatidagi o‘‘rmini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta‘‘minlash hamda qo‘‘llab-quvvatlash o‘‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o‘‘rin egallamoqda.

Inklyuziv ta‘‘lim konsepsiyasi «inklyuziv jamiyat» g‘‘oyasiga asoslanadi, bu yerda hamma narsa boshqasini (boshqa irq, din, madaniyat, nogironligi bo‘‘lgan odamni) ijtimoiy hayotda faol va teng ishtirok etishga qo‘‘shishni afzal ko‘‘radi, har kimning manfaatlariga mos keladi, mustaqil yashash qobiliyatini oshiradi, ularning huquqlari tengligini ta‘‘minlaydi.

Manchester Universiteti professori Piter Mittler shunday deb yozadi: «inklyuziv ta‘‘lim – bu yakuniy maqsadga erishish yo‘‘lidagi qadamdir-jinsi, yoshi, etnik kelib chiqishi, qobiliyati, buzilishi bor yoki yo‘‘qligidan qat‘‘i nazar, barcha bolalar va kattalarga yoqadigan jamiyatni yaratish. jamiyatda ishtirok etish va unga hissa qo‘‘shish».

Inklyuziv ta‘‘limning xalqaro tajribasi allaqachon uzoq muddatli tarixga ega. So‘‘nggi yillarda chet ellik mualliflar tomonidan inklyuziv ta‘‘limdagi jarayonlar va uning ta‘‘sirini tahlil qilishga bag‘‘ishlangan ko‘‘plab kitoblar va ko‘‘plab tadqiqotlar nashr etildi.

Yevropa davlatlari inklyuziv ta‘‘limning ta‘‘rifi va tushunchasini shakllantirdilar, ommaviy maktabda sog‘‘lig‘‘i cheklangan bolalar uchun qulay va maxsus sharoitlar bilan ta‘‘minlangan ta‘‘lim uchun me‘‘yoriy-huquqiy bazani yaratdilar. Rossiyaning ta‘‘lim siyosati ta‘‘limdagi ijtimoiy munosabatlarni o‘‘zgartirish prinsipi sifatida inklyuziyaga qaratilgan. Bugungi kunda zamonaviy sharoitda maxsus ta‘‘lim modelini o‘‘zgartirish zarurati paydo bo‘‘lishi aniq. Ushbu yangi modelda yanada samarali tashkil etish uchun maxsus va umumiy ta‘‘lim muassasalarining o‘‘zaro ta‘‘siri dolzarb bo‘‘lib qolmoqda.

Inklyuziv jarayonni resurs bilan ta‘‘minlash umumiy ta‘‘limdagi tashkiliy va mazmunli o‘‘zgarishlarning muhim tizimli elementidir. Inklyuziv amaliyotning rus tajribasi ta‘‘lim muassasalarining eksperimental va dizayn rejimining uzoq bosqichi,



nogiron bolalarning ehtiyojlari uchun ta'lim sharoitlarini muallifning moslashuvi bilan bog'liq. Shu sababli, inklyuziya jarayonining sifati, bolalarning turli toifalariga nisbatan uning samaradorligini professional baholash masalasi dolzarbdir.

O'zgarishlarning yuqoridan pastga strategiyasi («yuqoridan qarorlar») sharoitida u yoki bu ta'lim muassasasining inklyuziv yondashuvni amalga oshirishga tayyorligini baholash, xatolarni tuzatish muhim ahamiyatga ega. Endi biz maktab ikkita asosiy bosqichdan o'tayotganini yaxshi tushunamiz – inklyuziv rivojlanish strategiyasiga tayyorgarlik bosqichi va o'quv jarayonini boshqarish, madaniyati va amaliyotidagi o'zgarishlarni amalga oshirish bosqichi.

Y. A. Gerasimkoning fikriga ko'ra, inklyuziv ta'lim – bu turli toifadagi bolalarning (alohida ta'lim ehtiyojlari, turli etnik guruhlar, ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligi), ularning xususiyatlari va o'rganish qobiliyatining qadrd-qimmatini tan olish.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning mintaqaviy modellari bir-biridan 5 ta asosiy omil bo'yicha farq qiladi:

- 1) ta'lim organlari va ilmiy hamjamiyatning pozitsiyasi
- 2) psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish;
- 3) jamoat tashkilotlari faoliyati;
- 4) tayyorlangan pedagog kadrlarning mavjudligi;
- 5) ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish imkoniyatlari.

Rossiya inklyuziv ta'lim tajribasi dizayn va eksperimental faoliyatning boy tarixiga ega. Ommaviy axborot vositalari faoliyati ta'siri ostida oddiy bolalarning ota-onalarining birgalikdagi ta'limga munosabati asta-sekin o'zgarib bormoqda. Ko'proq darajada, nogiron bolalarning ota-onalari ta'lim muassasasidan maxsus sharoitlar va individual qo'llab-quvvatlashni kutib, o'z farzandining moslashish qobiliyatini oshirishda inklyuziyaning asosiy natijasi va ta'sirini ko'rishga moyildirlar. Voyaga yetganlarning fuqarolik holati o'zgarimoqda va tobora ko'proq ota-onalar nogironligi bo'lgan odamlarni jamiyatga jalb qilish muammosining ijtimoiy ahamiyatini tushunishadi, ammo ba'zida umumiy ijobiy tendensiyalar bitta alohida holat bilan rad etiladi. Har qanday ijtimoiy o'zgarishlar uchun ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasi juda muhimdir.

Inklyuziv jarayonlarning rivojlanishi fonida ota-onalarning maktab bilan o'zaro munosabatlaridagi roli o'zgarib bormoqda. Umuman olganda, Rossiyaning inklyuziv ta'lim amaliyoti, mavjud mintaqaviy farqlarga qaramay, hozirgi vaqtda bir qator umumiy cheklolar va muammolarga ega. Nogiron bolalarning inklyuziv ta'limi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmaydi, bunday bolalar ommaviy maktabda o'qitish uchun maxsus ta'lim sharoitlarini moliyalashtirish va amalga oshirish mexanizmi mavjud emas. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning eng muhim vazifasi inklyuziv ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar va ta'lim amaliyotini amalga oshiradigan mutaxassislarni tayyorlashdir.



Xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bilan bog'liq barcha davlat islohotlari va o'qitishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar bilan bog'liq (o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari, talabalar soni, o'qitishda qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar bilan ishlaydigan o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari orqali). Bu ommaviy maktablarda ishlaydigan o'qituvchilarni tayyorlashning yangi prinsipi. U o'qituvchining fan bilimlari bilan bog'liq emas, u umumiy pedagogik Pro-konfessional kompetensiyalar va ko'nikmalarga tegishli. Rossiyada ushbu standart bo'yicha ishlaydigan universitetlarning o'quv-uslubiy birlashmasida «maxsus va inklyuziv ta'limning psixologiyasi va pedagogikasi» bo'limi ochildi, uning asosiy vazifasi asosiy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ko'rib chiqish, o'qituvchilar va inklyuziv ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklar yozishdir.

Umumta'lim maktablarda joriy etilgan inklyuziv ta'limning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qishi, teng huquq va imkoniyatlar tengligini berish, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish, o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik va korreksion sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Umumta'lim maktablarga oddiy bolalarning barchasi borsa, alohida e'tiborga muhtoj bolalar ham jalb etilishi kerak. Inklyuziv ta'limning oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning keyinchalik atrofdegilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Umumta'lim maktablarda inklyuziv ta'lim – alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar yoki boshqa sabablar tufayli tarbiyasi og'ir, yetim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashgan va barcha bolalarga teng huquq va imkoniyatlar tengligini beradigan ta'lim tizimidir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim – millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarda inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, shu sohada ishlaydigan mutasaddilar, o'qituvchilar zimmasiga jiddiy talablar qo'yiladi. Bunday ta'limda sinf rahbari, fan o'qituvchilari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari yordam ko'rsatish borasidagi xizmatlarni bajaradilar. Sog'lom bolalar bilan alohida e'tiborga muhtoj bolalar orasidagi tafovut o'zidagi jismoniy imkoniyatining cheklanganligi sababli o'z tengdoshlariga qo'shilmaslik,



tortinchoqlik, uyalgan yoki kamsitilgan ba'zilarining esa oilada haddan tashqari avaylanganliklari sababli qaysar, injiq bo'lib qolganliklari tufayli yuzaga keladi.

Har bir inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumta'lim maktablarda maxsus tayyorgarlikga ega (resurs) pedagog bo'ladi. Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan muassasalar nufuzining qanchalik muhimligi, mana shu maxsus tayyorgarlikga ega bo'lgan o'qituvchilarga bog'liqdir. Chunki, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko'maklashadi, maxsus o'qitish uskunalari, jihozlari bilan ta'minlaydi, ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o'tkazadi, dars jadvali, dasturga, kerak bo'lsa, o'zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi. Shuningdek, shu yo'nalishda ishlaydigan o'qituvchilarning malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi, sog'liqni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi. Bu ta'lim faoliyat dasturi birqancha maxsus, hududiy, bosqichli omillarga bog'liq bo'ladi. Ular jamiyat istiqbolini, ehtiyojini, resurs talablarini, mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
2. Инклюзивное образование в России и за рубежом: Материалы Международной научно-практической конференции «Инклюзивное образование: методология, практика, технология». - М., 2011.
3. Грозная Н. С. Инклюзивное образование за рубежом. От мечты к реальности // Синдром Дауна XXI век.- 2011. № 1.- С. 34?41.



UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARI UCHUN MULTIMEDIYALI ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH ZARURIYATI

J.D.PULATOV,

Namangan davlat universiteti,

M.L.BOLTAYEVA,

Namangan davlat universiteti

Maqolada umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish metodlari, yangi turdagi elektron darslik yaratish bo'yicha tavsiyalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: elektron darslik, multimedia, informatika, dastur.

В статье представлены методы использования электронных учебников в обучении информатике в общеобразовательных школах, рекомендации и предложения по созданию электронного учебника нового типа.

Ключевые слова: электронный учебник, мультимедиа, информатика, программа.

The article presents methods of using electronic textbooks in teaching computer science in general education schools, recommendations and suggestions for creating a new type of electronic textbook.

Key words: electronic textbook, multimedia, informatics, program.

Fan texnikaning rivojlanishi, taraqqiyotning yuqori natijalarga erishishga hamda davlatning qudratini namoyish etishni ko'rsatmoqda. Texnika texnologiyalarning rivojlanishi bevosita ta'lim jarayoniga zamonaviy eng so'ngi rumumdagi kompyuter texnologiyalarini joriy etishni talab etmoqda. Bugungi kunning dolzabr muammolaridan biri jahon standartlariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini umumta'lim maktablarda o'qitishning eng zamonaviy usullari, metodikasi, ta'lim texnologiyalarni qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarda o'qitiladigan informatika fanini o'qitish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biroq elektron darslardan foydalanib, darslarni tashkil etish va elektron darsliklarga qo'yilgan didaktik talablar yetarlicha tadqiq etilmagan.

Informatika fanini o'qitishda elektron darslikdan foydalanish bilan bir qatorda turli xildagi dasturiy maxsulotlardan foydalanish mumkin. Misol uchun namoyish etish uchun PowerPoint, Apple Keynote, Libre Office Impress, Google Slides,



Prezi va boshqalardan foydalanish mumkin(1-rasm). 1-rasmda keltirilgan elektron darslik strukturasi bo'yicha informatika fani bo'yicha yaratish lozim.

Elektron darslik – bu o'rganuvchi dasturiy sistema kompleksi, barcha o'quv jarayonini didaktik sikli: nazariy ma'lumotlar, o'quv faoliyatida shug'ullanish va bilim darajasini nazorat qilish hamda axborotli qidirish tizimini mavjudligi bilan boshqa darsliklardan ajralib turadi. Elektron darslikning bosma darslikdan eng asosiy farqi shundaki, unda matnli, nutqli, gipertekstli, ovoz, videoli, o'yinli, testli, mashq qiluvchi(trenajyor), 2D va 3D grafikli, rangli tasvirlar va xokazo imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Elektron darslikni yangilash va to'ldirish ishlarini bajarishda hech qanday mablag' talab etmaydi.

Elektron nashr bo'limlarining strukturasi:

– bir tomli elektron nashr-elektron nashr, bir kompyuter o'qiydigan vosita sifatida ishlab chiqilgan;

– ko'p tomli elektron nashr-elektron nashr, ikki qismdan iborat yoki undan ko'p qismli, xar qaysi mustaqil kompyuter o'qiydigan tashuvchilar, o'zi bilan bir butun mazmun va rasmiylashtirish bo'yicha ifoda qiluvchi;

– elektron seriya-seriyali elektron nashr, barcha tomlarni qamrab olgan, umumiy rejalarini birlashtirgan, mavzuli, tanlangan maqsadli, bir tipni rasmiylashtirilgan holda chiqarish[2,5].

– Umumta'lim maktablarida informatika fanidan multimedilai elektron darslik yaratishda 1-rasmda ko'rsatilgan struktura bo'yicha yaratish orqali ta'lim jarayonida o'qituvchiga hamda o'quvchi birdek yordamchi vosita sifatida qo'l keladi.

Elektron darslik – ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lib, ta'lim oluvchi-darslik-pedagog tartibotidagi, aloqani amalga oshirishadi. Maxsus fanlardan elektron darsliklarni faolroq joriy qilinishi tajriba va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish doirasida ko'zga tashlanadi. Bu quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin:

– individual tajriba va amaliy mashg'ulotlarni shakllantirish va tekshirish bo'yicha o'qituvchilar qo'l mehnati hajmini yengillashtiradi;

– jamoaviy foydalanish markazlarining uzoqlashtirilgan eksperimental stendlarga yaqinlashuvi orqali amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish imkoniyati sezilarli ravishda kengayadi;

– kasb hunar kollejarining oliy ta'lim muassalari va yetakchi ishlab chiqarish korxonalari bilan yaqinlashishiga imkoniyat yaratiladi[9].

Kompyuter o'qituvchini chigallik va bir xillikdan ozod etishi lozim, kompyuter texnologiyalari esa birinchi navbatda o'quvchilarning ijodiy yondashuvini



ta'minlashi, ta'lim jarayoning maxsuldorligini oshiruvchi pillapoya bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu pozitsiya to'g'riligini quyidagi dalillar isbotlaydi:

– kompyuterni o'quv va mustaqil faoliyat vositasi sifatida qo'llashning barcha usullarini o'zlashtirish;

– kompyuterni o'rganish obyekti sifatida qo'llash.

– hozirgi kunda minglab o'qitish jarayoni uchun mo'ljallangan

– tizimlar yaratilgan bo'lib, ularning umumiy klassifikatsiyasi mavjud emas.

Ushbu tizimlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

– mashq qildiruvchi (trenajer);

– bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi;

– kognitiv o'qitishni dasturlashga yaqin bo'lgan rejimda ishlovchi tushunchalarni o'zlashtirishga mo'ljallangan;

– imitatsion va modellashiruvchi;

– o'yinli;

– egallangan bilim nazoratini amalga oshiruvchi;

– ma'lumot va axborot bilan ta'minlovchi [3].

Maqsadli elektron vositalar o'quv maqsadlariga qarab keyingi guruhlariga bo'linadi:

– maktablar uchun;

– bakalavrlar uchun;

– magistralar uchun;

– Katta yoshlilar uchun[2].

Elektron darsliklar bilim oluvchi uchun asosiy u hohlagan tezlik va ketma-ketlik bo'yicha darslarini tashkil etishi mumkin. Bundan shuni aniqlash mumkinki, ta'lim oluvchi hohlagan vaqtda dars turini o'zgartirish mumkin nazariy ma'lumotlar, o'yinli texnologiya, bilimlarni tekshirish va boshqalarni boshqarishi mumkin.

1. Elektron darslik o'qitishning ilmiylik talablari birinchi navbatda yetarli chuqur o'quv materiallarni oxirgi erishilgan ilmiy yangiliklarga ega bo'lishi lozim. O'qitishning ilmiylik prinsiplari realizatsiyasi:

– rahbar o'quv predmeti mantiqiyli munosib o'rganilayotgan fan mazmuni saralash prinsipini topishi;

– xar bir yangi o'rganilayotgan predmet va hodisa asosiga dialektik yondashuv, boshqa predmet va hodisalarga ta'siri borligini ko'rib chiqishni ta'minlash lozim.

– shu fandagi ilmiy termin, tushunchalarni aniqligini ifoda etish talablarini ta'minlash;



– bayon etilayotgan ilmiy tushuncha kontekstga mos kelishi, ilmiy teoriya yoki faraz va o‘rganilayotgan tushunchani qarama-qarshi tushunchaga solishtirish;

– o‘rganilayotgan hodisa tarixini ochish;

– ochiq o‘rganilayotgan hodisani qidiruv ilmiy metodi yordamida tasavvurni berish.

2. Multimediali elektron darslik vositasida amalga oshiriladigan o‘qitishning qulay imkoniyatlari, talabaning yoshi va individual xususiyatlari bilan bir qatorda o‘quv materialini nazariy murakkablik darajasi va chuqur o‘zlashtirish talabalarini aniqlab olishni anglatadi. Talabalarda egallanayotgan o‘quv materialli haddan tashqari murakkab va og‘ir bo‘lishi, bilimni yaxshi shakllanmasligiga olib keladi. Uning ilmiy prinsipini kerakli o‘zaro bog‘liqlikligini kirish mumkinligini ko‘rib chiqish lozim. O‘qish hech qachon haddan tashqari oson, haddan tashqari qiyin bo‘lmasligi kerak[2].

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan ta‘lim jarayonida foydalanish o‘qituvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Ta‘lim sifatini oshirish va uni jadallashtirishda muhim omil bo‘ladi. Yangi texnologiyalar asosida o‘qitish natijasida tayyorlanayotgan kadrlar sifati yaxshilanib, taraqqiyotga o‘zining xissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.- Т.: Ўзбекистон, 2017.- 486 б.

2. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс... кан. пед. наук. М., 2003. - 238 с

3. В. П. Довгун, В. Е. Авраменко. Электронные учебно-методические комплексы по общепрофессиональным дисциплинам. <http://ou.tsu.ru/seminars/eois2003/tezis/section3.htm>

4. Бадалходжаев Т.И. Электрон дарслик яратиш ҳаражатларини аниқлаш технологиялари. <http://tolkinjon.narod.ru/statya2.htm>

5. Kahharov A. A., qizi Rahimova G. E. Intensive Methods of Developing Students' Graphic Competencies in the Training of Competitive Personnel // European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). - 2021. - T. 7. - C. 38-44.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLASHTIRILGAN MUSTAQIL TA'LIM

M.E.MAMARAJABOV,
DTPU p.f.d., dos.

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda raqamlashtirilgan mustaqil ta'lim, mustaqil ta'limni amalga oshirishga qaratilgan talablar, mustaqil ta'limda talabalarning imkoniyatlari, mustaqil ta'lim maqsadlari va baholash tizimi haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan

Kalit so'zlar: raqamlashtirilgan mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim tizimida talabalarning imkoniyatlari, mustaqil ta'limning maqsadlari mustaqil ta'limni baholash darajalari

В статье рассматриваются о цифровом самостоятельном образовании в развитии профессиональной подготовки будущих педагогов, требования к реализации самостоятельного образования, возможности обучающихся в самостоятельном образовании, цели независимого образования и система оценивания.

Ключевые слова: цифровое самостоятельного обучение, возможности для студентов в системе самостоятельного образования, уровни самостоятельного оценки обучения, цели самостоятельного образования

The article deals with digital independent education in the development of professional training of future teachers, the requirements for the implementation of independent education, the possibilities of students in independent education, the goals of independent education and the assessment system.

Key words: digital independent learning, opportunities for students in the system of independent education, levels of self-assessment of learning, goals of independent education

Talabalarining mustaqil ta'limi jihatlarini tanqidiy fikrlash, ijodiy, mustaqil, sodiq, va olijanob xarakterga ega, birgalikda ishlash va global xilma-xillikka ega ko'rinishida baholash mumkin.

Kredit-modul tizimiga moslashtirilgan yangi o'quv dasturlari, sillabuslar va fan dasturlarining mavjudligi mamlakatimizdagi OTM larning ta'lim tizimiga muvofiq, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni yanada faollashtirish, rag'batlantirish va boshqalar kabi turli dasturlar orqali erishiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim olamida ekotizimlar, o'qituvchilar, pedagogika, o'quv dasturi va baholash tizimlaridan boshlab hal qilinishi kerak bo'lgan quyidagi muammolar guruhi mavjud:

Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustaqil oshirishga qaratilgan talablar:

– ta'lim shakllariga moslashish;



- talabalarga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- raqamli texnologiyadan foydalangan holda o‘rganish;
- yondashuv: o‘yin, mazmunli, motivatsion va kontekstga asoslangan ta‘lim;
- talabaning qobiliyat darajasiga qarab o‘qitish.
- raqamli kontentlarga asoslangan o‘quv dasturi;
- akademik faoliyatni raqamlashtirish;
- o‘quv dasturlari va mustaqil ta‘lim integratsiyasini ta‘minlash;
- raqamli sharoitga moslashuvchan rivojlanish;
- raqamli kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturi;
- mustaqil va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e‘tibor qaratish;
- o‘quv dasturlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni oshirish

Mustaqil ta‘lim tizimi – bu davrda o‘qitish va o‘qish jarayoni yuzma-yuz amalga oshirilishi shart emas, balki masofaviy ta‘lim va mustaqil ta‘lim orqali ham amalga oshirilishi mumkin [2].

Mustaqil ta‘lim o‘z-o‘zidan ta‘lim olish degani emas, balki talabalarning o‘qituvchiga qaram bo‘lmasligi uchun ularning xohish va raqamli ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv jarayonidir. Mustaqil ta‘lim – bu shaxsning o‘quv jarayoni uchun mas‘ul bo‘lish qobiliyatidir. Mustaqil ta‘limni muammoni xal qilish uchun kasbiy kompetensiyani o‘zlashtirish motivi bilan boshqariladigan va ega bo‘lgan bilim yoki malakalar bilan qurilgan faol ta‘lim faoliyati sifatida shakllantiradi. Mustaqil ta‘lim – bu o‘quv faoliyatini amalga oshirish va rejalashtirishda talabalarga ko‘proq erkinlik, mas‘uliyat va vakolatlarni ta‘minlaydigan ta‘lim usuli.

Mustaqil o‘rganish qobiliyati – o‘z oldiga maqsad qo‘yish va qiyin muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati. Talabalarning ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish uchun, eng muhimi, talabalarning o‘quv jarayonidan zavqlanishidir. Mustaqil ta‘lim bilan talabalar samarali ta‘lim usullarini aniqlashi, o‘quv topshiriqlarini yaxshi bajara olishi va o‘quv faoliyatini mustaqil bajara olishiga o‘rganadilar.

Mustaqil ta‘lim tizimi talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- samarali ta‘lim maqsadlarini aniqlash;
- O‘quv jarayonini rejalashtirish;
- Tegishli o‘quv resurslaridan foydalanish;
- Akademik qarorlar qabul qilish;
- O‘quv maqsadlariga erishish uchun tanlangan faoliyatni amalga oshirish.

Mustaqil ta‘limni baholash tizimi. Baholash faoliyatining birinchi bosqichi baholash maqsadini aniqlashdan iborat. Ta‘limni baholashning maqsadi – maqsadlar, materiallar, ommaviy axborot vositalari, o‘quv resurslari va ta‘limni baholash tizimi bo‘yicha ta‘lim tizimining samaradorligini aniqlashdir. Mustaqil ta‘lim natijalarini baholash talabalar tomonidan o‘quv maqsadlari va erishilgan o‘quv natijalarini taqqoslash orqali amalga oshirilishi mumkin. Baholash orqali



talabalar o'rganish muvaffaqiyatiga qanchalik erishilganligini bilib olishlari mumkin.

O'quv maqsadlari va ta'lim natijalarini baholash talabalarning o'zlari tomonidan belgilanishi mumkin, shunda ular o'zlarining o'quv faoliyatini to'liq nazorat qiladilar. An'anaviy formal ta'lim tizimida o'qitish holatida har bir topshiriq bo'limining yakuniy o'quv maqsadlari o'qituvchi tomonidan belgilanishi mumkin, ammo oraliq maqsadlar talabalarning o'zlari tomonidan belgilanadi.

Mustaqil ta'limning bu maqsadlari ular foydalaniladigan ta'lim resurslari, o'rganish joyi, o'qish vaqti, o'rganish tempi va ritmi, qanday o'rganish va ta'lim natijalarini baholashda ko'rinadi.

Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligi takomillashtirishda mustaqil ta'limni o'tkazishda turli xil jarayonlar quyida keltirilgan:

Maqsadlarni belgilash. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlari xamda boshqalar uchun muhim bo'lgan muhim maqsad uchun o'rganishni tanlashlari yoki tanlashda ishtirok etishlari kerak.

Rejalar tuzish. Bo'lajak o'qituvchilar maqsadlari(mustaqil ta'lim natijalari)ga erishish uchun qadamlarini belgilaydilar. Rejalashtirish oldinga qarash va muvaffaqiyatga qanday erishishni hal qilishni anglatadi. Rejalar talabalar tomonidan muammoni hal qilishni, muammoni aniqlashni yoki loyiha yaratishni xohlashlariga qarab qaror qiladi.

Rejaga rioya qilish va taraqqiyotingizni o'lchash. Talabalar nafaqat o'z maqsadlaridan xabardor, balki ular qanday akademik ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerakligi va ushbu o'quv jarayonida ega bo'lgan ko'nikmalarni ham bilishlari kerak. Jarayonga qo'shimcha ravishda, ular o'zlarining rejalari qanchalik yaxshi ishlayotganini ham baholashlari kerak.

Natijani ko'rish. Talabalar o'qituvchilarning o'quv yutuqlari darajasini baholashlari uchun talaba yoki o'quvchilar portfeli, jumllarini, taqdimotlarini va chiqishlarini baholash uchun baholash standartlari va baholash ko'rsatmalaridan foydalangan holda haqiqiy, mustaqil topshiriqlar bo'yicha malakasini namoyish etadilar [3].

Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida mustaqil ta'lim konsepsiyasiga moslashgan holda, talabalardan quyidagilarni kutiladi:

O'qituvchi va o'zi o'rtasidagi munosabatlar hali ham mavjudligini, lekin munosabatlar o'quv materiallari yoki o'quv vositalari orqali ifodalanishini anglash.

O'z-o'zini o'rganish tushunchasini bilish. Qachon yordam so'rashni va qachon yordamga muhtojligini bilish. Talabalar kimdan va qarda yordam olishi mumkinligini bilib oling. Mustaqil o'qish orqali erishish mumkin bo'lgan ba'zi imtiyozlar quyidagilardir: ichki tashabbus yoki rag'batlantirishni kuchaytirish, o'rganishning bu usuli talabalarni har doim o'quv jarayoni uchun o'zlaridan tashabbus yoki rag'batlantirishga majbur qiladi.



Maqsadlarni qo‘ya olish, o‘rganishning bunday usuli talabalarni doimo o‘z maqsadlariga ega bo‘lishiga olib keladi va mustaqil talabalarning maqsadlari yanada kengroq bo‘ladi.

O‘quv resurslarini faol va ijodiy izlayotgan talabalar bosma, elektron yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyat yoki atrofda o‘quv resurslarini topish va ulardan foydalanishda faol va ijodiydir. O‘zining kimligini bilish, onglilik va o‘z-o‘zini bilish o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasiga qaerda ta‘sir ko‘rsatishi, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati, iste‘dodi, fan va bilimga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lib, eng samarali faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rganish jarayoni[3].

Mustaqil ta‘lim talabalarning bilim olish ongliligiga ko‘proq e‘tibor qaratadigan yoki bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlariga o‘rganishni ko‘proq nazorat qilishni ta‘minlaydigan o‘quv faoliyati shakli sifatida qarab chiqidi.

Bundan tashqari, mustaqil ta‘limni shaxsning o‘z tashabbusi bilan boshlangan bilim, tajriba, yutuq va rivojlanishning ortishi sifatida ham talqin qilish mumkin, buni talabalar o‘z ta‘limini rejalashtirish va uni o‘zlari bajarishni o‘rganish, ta‘lim ehtiyojlarini anglash, ta‘lim maqsadlari, o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish va ta‘lim natijalarini baholash jarayonlarida o‘rganish mumkin [4].

Biz mustaqil ta‘limni baholashni darajalari sifatida passiv, reaktiv, faol, interfaol darajalarni belgilab olindi

Passiv daraja. Bo‘lajak o‘qituvchi mustaqil ta‘limning ahamiyatini tushunmaydi. O‘z-o‘zini bilish qobiliyati bor, u yangi bilim olishni xohlaydi, lekin uni olish usullari talabada ifodalanmaydi. Talaba fan bo‘yicha asosiy bilimlarni takrorlaydi. Mustaqil topshiriqlarni bajarishda ilmiy-uslubiy adabiyotlardan, axborot manbalaridan foydalanmaydi yoki kamdan-kam foydalanadi. Talaba mustaqil ta‘lim maqsadlarini shakllantirish va belgilash, metodlarni rejalashtirish va mustaqil ta‘limni tashkil etishda qiynaladi. U asosiy bilimlarni muhokama qilishda faol emas.

Reaktiv daraja. Talaba mustaqil ta‘lim jarayonida o‘qituvchidan qo‘shimcha maslahat so‘ramaydi va boshqa sinfdoshlari bilan muloqotda qatnashmaydi. Talaba mustaqil ta‘limni bajarish jarayonida o‘z imkoniyatlarini obyektiv baholashni bilmaydi, erishilgan natijani ortiqcha yoki kam baholaydi. O‘z-o‘zini tartibga solish shakllanmaydi: u mustaqil o‘qish jarayonida qiyinchiliklarni engish uchun ixtiyoriy harakatlar qilmaydi.

Faol daraja. Talaba mustaqil ta‘lim olishning muhimligini o‘qituvchi talabi sifatida tushunadi. Talaba o‘z-o‘zini bilish qobiliyatiga ega, yangi bilim olishni xohlaydi; uni o‘zlashtirish yo‘llari fanning ayrim mavzulariga tanlab namoyon bo‘ladi. Talaba fan bo‘yicha asosiy bilimlarga ega. Yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qisman tadqiqotchi mustaqil o‘rganishni ta‘kidlash mumkin. Talaba mustaqil topshiriqlarni bajarish uchun ilmiy-metodik adabiyotlardan, axborot manbalaridan doimiy foydalanish faolligi oshadi. Talaba mustaqil ta‘lim maqsadlarini yetarlicha



tushunib boshlaydi. Talaba mustaqil ta'limni bajarish jarayonida o'z imkoniyatlarini baholashda ba'zi xatolarga yo'l qo'yadi. U olingan natijani ortiqcha yoki kam baholay oladi. O'z-o'zini tartibga solish qisman shakllanadi: talaba o'zi uchun qiziqarli bo'lgan mustaqil ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni engish uchun ixtiyoriy harakat qilishi mumkin.

Interfaol daraja. Talaba o'z kasbiy rivojlanishini o'z-o'zini boshqarish usuli sifatida mustaqil ta'lim muhimligini tushunadi. U o'zini o'zi bilish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat barqaror ravishda namoyon bo'ladi va ta'lim natijalariga erishishga qaratilgan. Talaba fanning asosiy bilimlaridan ongli ravishda foydalanadi; yangi bilim olishni xohlaydi, uni egallash usullarini biladi. U mustaqil topshiriqlarni bajarish uchun doimiy ravishda ilmiy va uslubiy adabiyotlardan, turli axborot manbalaridan foydalanadi. Mustaqil ta'lim maqsadlari amalga oshiriladi va aniq shakllantiriladi. Talaba mustaqil ta'lim usullarini maqsadli ravishda rejalashtiradi, shu jumladan, qo'yilgan maqsadlarga erishishga ta'sir qiluvchi real harakatlar, shu jumladan ijodiy. Mustaqil tadqiqot rejasini amalga oshirish yuqori sifatli natijaga olib keladi. Mustaqil ta'lim natijasining yangiligi bor. U asosiy va olingan bilimlarni muhokama qilishda tashabbus ko'rsatadi, yangi o'rganilayotgan mazmuni tanqidiy tahlil qila oladi. Talaba mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan doimiy aloqada bo'ladi va boshqa sinfdoshlari bilan faol muloqot qiladi. Talaba mustaqil ta'lim jarayonida o'z imkoniyatlarini xolisona baholay oladi va natijani tahlil qiladi. O'z-o'zini tartibga solish shakllanadi: mustaqil ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni engish uchun ixtiyoriy harakatlar mavjud.

Kasbiy tayyorgarlikning umumiy tizimida mustaqil ta'limning ahamiyatini anglash, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj va ularni egallash usullari, axborot manbalari bilan ishlash va muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish, maqsad qo'yish, rejalashtirish, mustaqil ta'limni tashkil etish va tartibga solish va natijalarni o'z-o'zini baholash shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.: Фан, 2005. - 206 б.
2. Муслимов Н.А., Қўйсинов О.А. Меҳнат таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш. (Методик қўлланма). Т.: ТДПУ, 2006. 52 б.
3. Мамаражабов М.Э. Рақамлаштирилган таълим шароитида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик тайёргарлигини такомиллаштириш. Пед.фан.доктори дисс. -Т.: 2023. - Б.308.
4. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л. «Цифровое образование» как системообразующая категория: подходы к определению // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. 2018. №3. С. 25-36.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY TA'LIM: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

N.D. QUDRIDINOVA,

BQ Bojxona instituti «O'zbek va
xorijiy tillar» kafedrası katta o'qituvchisi

Maqola bugungi zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora rivojlanib borayotgan shakli sanalgan masofaviy ta'limga bag'ishlangan. Maqolada masofaviy ta'lim asosida o'qitish ta'lim oluvchining mustaqil bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, unda o'qituvchining o'rni ko'rib chiqilgan. Ushbu bilim olish tizimining ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, masofaviy ta'limning ijobiy va salbiy tomonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shaxsiy kompyuter, internet.

Статья посвящена дистанционному обучению, которая является наиболее важной и развивающейся формой современного образования. В статье рассматривается самостоятельное получение знаний и приобретение навыков студентом путем дистанционного обучения, роль преподавателя в этом процессе. Показаны положительные и отрицательные стороны этой системы образования.

Ключевые слова: дистанционное образование, положительные и отрицательные стороны дистанционного обучения, информационно-коммуникационные технологии, персональный компьютер, интернет.

The article is devoted to distance learning, which is the most important and developing form of modern education. The article discusses the self-learning and the acquisition of skills by a student through distance learning, the role of a teacher in this process. The positive and negative aspects of this education system are shown.

Key words: distance education, positive and negative aspects of distance learning, information and communication technologies, personal computer, Internet.

Bugungi kunda o'quvchilar va talabalar xoh uyda bo'lsin, xoh ishda kompyuterdan foydalangan holda o'qish imkoniyatiga ega va bu onlayn ta'lim deb ataladi. Kompyuterdan foydalanib ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim deb ataladi. To'laqonli ta'lim olish yoki yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun endi maktabga yoki universitetga borish yoxud kurslarga qatnashish shart emas. Masofaviy/onlayn ta'lim va offlayn ta'lim o'rtasida tanlov qilish mumkin. Offlayn ta'limga o'rganib, ko'nikib qolingan bo'lsa, onlayn ta'lim zamonaviy va qulaydir. Hozirgi vaqtda masofaviy ta'lim o'zining muhimligi va dolzarbligini isbotladi.

O'qituvchi kasbiy motivatsiyasining asosi o'qitayotgan faniga qiziqish va puxta bilimga ega shaxs sifatida ta'lim muassasasining ta'lim jarayoniga o'z hissasini qo'shish bo'lib, bunda kompyuter savodxonligi katta ahamiyat kasb etadi.



O'qituvchi muntazam ravishda ta'limning yangi metodlari va vositalarini o'zlashtirishga intilishi kerak, ular orasida elektron ta'lim vositalari asosiy o'rinni egallaydi. Chunki talabalarining bugungi avlodi raqamli jamiyatda o'sib ulg'aygan va shakllangan. Bu avlod talabarlari uchun shaxsiy kompyuterlar, Internetdan ma'lumotlar qidirish va olish kundalik hayotining haqiqatidir. O'qituvchi o'tilayotgan mavzularga doir ma'lumotlarni yetkaza olishi, o'quvchi va talabalar esa ularni idrok etishi hamda o'zlashtirib olishi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etish zamonaviy hayot tarzi taqozosidir.

Ta'limda axborot texnologiyalaridan faol foydalanish masofaviy ta'limning o'rini belgilab berdi. Masofaviy ta'lim – bu o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, talabalarining hududiy tarqoqligi sharoitida zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda uzoqdan turib amalga oshiriladigan o'qitish, o'rgatish usuli.

Masofaviy o'qitishning har qanday tizimi – bu barcha masofaviy ta'lim tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish uchun, kopincha kunduzgi, sirtqi va kechki dasturlar bilan birgalikda foydalaniladigan tizimli axborot majmuasidir.

Masofaviy ta'lim olishni tashkil etish orqali ta'lim oluvchilarning ta'lim olish huquqi ta'minlanadi.

Masofaviy ta'lim o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. [O'R Q-637-son Ta'lim to'g'risidagi qonuni. – 2020.]

Bugungi kunda masofaviy ta'limning takomillashgan shakli onlayn ta'limdir. Onlayn ta'limda o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, talaba asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'zaro aloqada bo'ladi, kompyuter va Internetdan intensiv foydalaniladi.

Masofaviy ta'lim sifatini ta'minlash uchun, ham ta'lim muassasalari, ham o'qituvchilar, ham o'quvchi va talabalar hamda aloqa kanallari birdek tayyor bo'lishlari lozim.

2019-2020-yillardagi pandemiyadan oldin zamonaviy maktabning vazifalaridan biri o'quv jarayonini tashkil etish turlari va shakllarining xilma-xilligini oshirish edi. Biroq, COVID-19 pandemiyasi paytida barcha maktablarning birdaniga onlayn formatda o'qitishga majbur bo'lgani ma'lum qiyinchiliklarga olib keldi. Ko'pgina o'qituvchilar va o'quvchilar hamda talabalar masofaviy ta'limda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishdi. Har bir o'qituvchi eng qulay va tushunarli hamda qayta aloqaga chiqish mumkin bo'lgan ta'lim usulini tanladi. Afsuski, bunda juda katta og'irlik tushganligi sababli texnik muammolar paydo bo'ldi. Bu muammolarning hammasi o'qituvchilarga ham, ma'lum darajada o'quvchilarga ham



qiyinchiliklar tug'dirdi. Qisqa vaqt ichida o'qituvchilar darslarni to'g'ri va qiziqarli tashkil etish maqsadida kurslarga borib, ko'plab ma'lumotlarni o'rganishdi. Chunki ular mashg'ulotning ushbu shaklini amaliyotsiz boshladilar, darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p vaqt sarflanar edi. Shuningdek, ota-onalar ham farzandlari bilan birga masofaviy ta'limga tayyor emas edilar, ular o'qituvchilar bilan birgalikda ushbu texnologiyalarning barchasini o'zlashtirishga harakat qilishdi. Vaqt o'tishi bilan vaziyat yaxshilandi va mashg'ulotning ushbu shakli ko'pchilikka ma'qul bo'la boshladi. Bunda «online-maktab» loyihasi doirasida tashkil etilgan masofaviy televizion videodarslarning ham o'zmi katta.

Onlayn-ta'lim sohasida birinchilardan bo'lgan oliy ta'lim muassasi Massachusetts texnologiya institutidir. MIT OpenCourseWare institutning barcha kurslari uchun mutlaqo bepul o'quv materiallarini, jumladan, rejalar, ma'ruza matnlari, uy vazifalari, testlar, shuningdek, ma'ruzalarning video yozuvlarini taklif etadi (<https://ocw.mit.edu/index.htm>).

Onlayn ta'limning ko'plab afzallik tomonlari borligi ko'pchilikka ayon. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tmoqchiman:

1. Ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.
2. Ta'lim istalgan vaqtda amalga oshiriladi. Ma'lumki, onlayn ta'lim moslashuvchanlik bilan farq qiladi. Masalan, belgilangan vaqtda auditoriyada bo'lish shart emasligi hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini har qanday qulay vaqtda bajarib, onlayn yuborish mumkinligidir.
3. Ma'lum sabablarga ko'ra qoldirilgan darsni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'ilmaydi.
4. O'qish, o'rganish uchun har qanday joyning (uy, dala hovli) mos kelishi. Geografik cheklolarning yo'qligi. Qayerda bo'lishdan qat'i nazar yangi bilimlarga ega bo'lish imkoniyati. Asosiysi, yaxshi internet.

«Onlayn ta'limning yaxshi tomoni shundaki, u haqiqatan ham geografik chegaralardan o'tib ketishi mumkin», – degan edi UMASS Onlayn bosh direktori Don Kilbern.

5. Darslarni tushuntirishning qator samarali va zamonaviy usullarining mavjudligi. Masalan, turli xil audio/videolar, podkastlar, PDF fayllar va hokazolar.

6. Barcha o'quv materiallari elektron formatda bo'lishi qog'ozsiz o'quv muhitini yaratadi. Bu esa sarf-xarajatlarni yanada kamaytiradi va atrof-muhit uchun ham foydalidir.

7. O'qitish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy texnik infratuzilmaning tejalishi. Moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi.

8. Axborot almashish uchun keng muloqot imkoniyatlari. Onlayn ta'limning barcha ishtirokchilari doimiy ravishda chat va messenjerlarda bir-birlari bilan muloqot



qiladilar. Natijada, o'qishni tugatgandan keyin ham muloqot davom etadigan professional jamoa shakllanadi. Bularning barchasi doimiy ravishda tajriba, holatlar, yangiliklar, optimallashtirish usullari va boshqalar bilan bo'lishish imkonini beradi.

9. Ishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyati. Ta'limning bunday shakli mehnat faoliyatini uzluksiz amalga oshirish, talaba tomonidan olingan materialni darhol amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

10. Talabalardan ko'proq mustaqil o'rganishni talab qiladi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiadi. Sifatli tanlangan material qulay muhitda o'rganiladi. Inson materialni o'zi qidib topib, o'rgansa, uni yaxshiroq o'zlashtiradi.

11. Bilim olish jarayonini yanada ijodiy va individual qiladi, o'quvchi hamda talabanning o'zini namoyon qilishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

12. Guruh ta'siri yoki o'quvchi va talabanning boshqa fanlarni o'zlashtirish bilan bog'liq psixologik ta'sirlar bo'lmaydi.

Biroq, har qanday hodisa kabi, masofaviy ta'limning ham kamchiliklari bor.

– O'qituvchi va o'quvchi, talaba o'rtasida bevosita yuzma-yuz muloqotning yo'qligi. Masalan, muammoli o'qitish jarayonini tashkil etishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Buning oldini olish uchun videokonferensiyalar o'tkazish mumkin. Ammo bu bilan muammoni to'la hal etib bo'lmaydi. Ushbu muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallari (turli darajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar va h.k.) ishlab chiqish lozim bo'ladi.

– Uzoq vaqt ekran oldida diqqatni jamlay olmaslik. Dars mobaynida o'quvchi va talabalarining ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa saytlarga chalg'ib ketishlari ehtimoli katta. Shu boisdan o'qituvchilar darslarni aniq, qiziqarli hamda interaktiv usullarda tashkil qilib, o'rganuvchilar diqqatini qarata olishlari kerak.

– Shaxsiy kompyuter va Internet aloqa sifati. Axborot manbalaridan doimiy foydalanish zarurati yangi texnik jihozlarni talab etadi, ammo hozirda o'qishni istagan har bir kishida ham shaxsiy kompyuter hamda sifati yaxshi Internet aloqasi mavjud emas.

– Ta'lim ko'p sonli «jonli» mashqlarni talab qiladigan mutaxassisliklar (hamshiralik ishi, pardoqlash va ta'mirlash ishlari) uchun qo'llab bo'lmaydi.

– Ta'lim sifatini nazorat qilish an'anaviy va masofaviy ta'lim o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, an'anaviy ta'limda bilimlarni tekshirish test, mustaqil va nazorat ishlarini o'z ichiga oladi, bunda o'quvchi yoki talaba ma'lumotnomalardan foydalanmaydi. Masofaviy ta'limda ham bilimlarni



tekshirish yuqorida aytib o‘tilganlarni o‘z ichiga oladi, biroq o‘z-o‘zini nazorat qilish sharoitida olingan natijalarning noxolisligi namoyon bo‘ladi (o‘quvchi yoxud talaba ishni mustaqil bajarmasligi yoki ma‘lumotnomalardan foydalangan holda bajarishi mumkin).

Masofaviy o‘qitishning moslashuvchanlik (materialni taqdim etish suratini, ketma-ketligini va nazoratni mustaqil ravishda boshqarish) kabi ijobiy tomoni haqida gapirganda, uning bilim olishning sekinlashishi, noto‘g‘ri o‘zlashtirilgan materialni tez to‘g‘rilash imkoniyatining yo‘qligi, talabalar tomonidan bajarilgan ishni to‘liq nazorat qila olmaslik kabi salbiy tomonlarga ega ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. Masofaviy ta‘limning tashkilotchilari o‘quv materialining shakli va mazmunini tanlashda, uning o‘zlashtirilishini nazorat qilishda ta‘limning ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarga ega ekanligini inobatga olishi va kerak bo‘lganda xatolarni tuzatishi lozim. Ushbu tizimning psixologik afzalligi va kamchiliklaridan o‘z o‘rnida foydalanishda ahamiyat berish va uni samarali tomonga boshqarish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘R Q-637-son Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni. - 2020.
2. Carver D.L., Kosloski M.F. Analysis of student perceptions of the psychosocial learning environment in online and face-to-face career and technical education courses // Quarterly Review of Distance Education. 2015. Vol. 16 (4). P. 7-22.
3. Шестопалов Е.В., Суворова Е.В. Преимущества и недостатки дистанционного обучения // Современные проблемы науки и образования. - 2020. - № 6.
4. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboyeva F.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. - T., 2002.



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

А.Х.МАХМУДОВ,

Д.П.Н., заведующий отделом
«Точные науки и цифровые технологии»
УзНИИПН им. Кары Ниязий

В статье раскрываются факторы, порождающие цифровую трансформацию образовательного процесса, дидактические принципы цифрового образования и особенности цифрового поколения. Рассмотрены дидактические особенности цифровых технологий.

Ключевые слова. Цифровая трансформация образования, цифровое образование, цифровые технологии, дидактические принципы, цифровое поколение.

Мақолада таълим жараёнинг трансформациясига сабаб бўлувчи омиллар, дидактик тамойиллар ва рақамли авлоднинг ўзига хос жиҳатлари очиб берилган. Рақамли технологияларнинг дидактик жиҳатлари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар:Талимнинг рақамли трансформацияси, рақамли таълим, рақамли технология, дидактик тамойиллар, рақамли авлод.

Факторами, порождающими цифровой трансформации образовательного процесса выступают три составляющих цифрового общества: цифровое поколение; новые цифровые технологии, формирующие цифровую среду и развивающиеся в ней; цифровая экономика и порождаемые ею новые требования к кадрам.

Особенности цифрового поколения. Организуя учебно-воспитательный процесс необходимо учитывать особенности цифрового поколения («поколение Z», «дети процессора», «дети-планшетники», «дети-чипы»). В школьном образовании эти особенности заметно отражаются в восприятии информации, внимания, мышления, мотивации, поведенческих паттернов, образа жизни, мировоззрения и т.д. Они определяют психолого-педагогическую специфику целеполагания, принципов, подходов к формированию содержания, форм и методов цифровой дидактики[2]. При этом важно понимать не только негативные стороны влияния цифровых технологий на процессы развития, социализации и воспитания «цифровых детей»(дошкольное и школьное образование), но и превосходящие характеристики цифрового поколения(высшая школа), чтобы опираться на них в образовательном процессе. С одной стороны, для представителей цифрового поколения характерны:



– в плане когнитивного развития, рассеянность внимания, неспособность читать и понимать большие по объёму тексты, ограниченность лексики, смешение реального и виртуального пространств, слабо развитое творческое воображение(школа);

– в плане эмоционально-волевого развития – упрощённая картина реальности, восприятие реальной жизни как «слишком скучной» и «слишком медленной», нетерпеливость и потребность в немедленном вознаграждении, неспособность к систематическому упорному труду(бакалавр-магистратура);

– в плане социального развития – индивидуализм, уверенность в своей неповторимости и уникальности, сниженная потребность в живом общении, неготовность к кооперации, сосредоточенность на своём внутреннем мире(докторантура).

Первопричиной возникновения обозначенных проблем, по-видимому является феномен «цифровой беспризорности», т.е. передача родителями ребёнка, с первых лет его жизни цифровым гаджетам, что создаёт иллюзию постоянной занятости и удовлетворённости ребёнка(дошкольное и школьное образование). В то же время для всех без исключения представителей цифрового поколения скачкообразно повышается значимость сетевой социализации как фактора становления личностной идентичности[3].

Возникающие в связи с этим образовательные проблемы связаны, прежде всего, с необходимостью коррекции негативных особенностей представителей цифрового поколения. Эти особенности представляют собой не столько дефициты личностных качеств, сколько «пробелы в социальных компетенциях», восполняемые путём целенаправленной педагогической деятельности.

Цифровые («умные», «SMART») технологии составляют ядро современного этапа технологического развития и сохраняют доминирующую роль в обозримой перспективе. В настоящее время активно происходит процесс цифровизации – глубокой конвергенции цифровых технологий с материальными и социально-гуманитарными технологиями и практиками, в том числе образовательными[4].

Многие цифровые технологии обладают дидактическими свойствами, среди которых:

- свобода поиска информации в глобальной информационной сети;
- наличие неограниченных возможностей для персональной настройки на потребности и особенности каждого обучающегося, включая выбор способа подачи материала, уровня сложности, темпа работы, количества



закрепляющих повторений, характера учебной помощи, партнёров, игрового антуража и т.д.;

– интерактивность – способность обеспечивать многосубъектность в процессе учебной коммуникации и учебного взаимодействия;

– мультимедийность (полиmodalность) – способность комплексно задействовать различные каналы восприятия (слуховой, зрительный, двигательный) в учебном процессе;

– гипертекстовость – свобода перемещения по тексту, сжатое изложение информации, модульность текста и необязательность его сплошного чтения, справочный характер информации, свертывание-развертывание информации, использование перекрестных ссылок и т.д.;

К числу образовательно значимых цифровых технологий могут быть отнесены: телекоммуникационные технологии, в том числе обеспечивающие конвергенцию сетей связи и создание сетей нового поколения; технологии обработки больших объёмов данных (Big Data); искусственный интеллект; технологии распределённого реестра (в т.ч. блокчейн); технологии электронной идентификации и аутентификации; интернет вещей; а также виртуальная и дополненная реальность, технология цифрового двойника и другие[5].

Цифровая экономика выступает для профессионального образования и обучения основным источником образовательного целеполагания. Цифровизация экономической сферы заметно изменяет образовательный заказ, смещая фокус на необходимость формирования комплекса новых цифровых компетенций, независимо от получаемой профессии или специальности. Анализ перспективных рынков труда показывает, что владение цифровыми производственными технологиями потребуется от выпускников самых различных направлений профессионального образования, в том числе от тех, которые прежде были связаны с процессом цифровизации только на уровне общепользовательских компьютерных навыков.

Цифровизация (автоматизация) рутинных операций приводит к снижению востребованности трудовых функций, связанных с простыми механическими действиями и к повышению интеллектуального и творческого компонента во всех сферах профессиональной деятельности, который не может быть заменён машинным. Востребованными становятся компетенции, обеспечивающие постановку задач для машин и различных цифровых устройств, экспертный анализ на основе критического мышления, сложную коммуникацию (договора, продажи и т.п.). В целом, существует тенденция: чем больше использует та или иная компания цифровые технологии, тем больше требований предъявляет она к профессиональному уровню работников.



Наиболее глубокие изменения, вызванные развитием цифровой экономики, связаны с изменением жизненного уклада. Внедрение цифровых технологий ведет к появлению новых возможностей – интегрировать (в различных сочетаниях) труд, образование, хобби и отдых. Сам образ жизни всё более становится «проектным», ориентированным на последовательную реализацию относительно автономных комплексных (социально-производственно-личностно-развивающих) задач.

Быстрая смена технологий и постоянная необходимость переучиваться уже вызвала взрывной рост востребованности коротких профессиональных программ, ориентированных на быстрое и максимально эффективное формирование ограниченного набора строго определённых навыков. При этом задачи формирования более широких компетенций, обеспечивающих трудовую эффективность человека в долгосрочном масштабе, подчас теряются из внимания. Всё это – серьёзный «цифровой вызов» к системе непрерывного образования и обучения.

Использованная литература:

1. Шумская, О. А. Цифровая трансформация в образовании: вызовы современного общества / О. А. Шумская, И. Г. Придворева, Е. Г. Татарникова. // Молодой ученый. - 2021. - № 7 (349). - С. 76-77. - URL: <https://moluch.ru/archive/349/78631/>

2. Маниковская М. А. Цифровизация образования: вызовы традиционным нормам и принципам морали // Власть и управление на Востоке России. 2019. № 2 (87). С. 100-106. DOI 10.22394/1818-4049-2019-87-2-100-106_

3. <https://iite.unesco.org/ru/publications/>

4. Махмудов А.Х., Анарбаева Ф. У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. - 2021. - С. 476.

5. А. Х. Махмудов, З .Б. Абдурахмонов Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference3. С. 97-99. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-zamonaviy-ramli-tehnologiyalaridan-foydalanishning-yutu-lari-va-muammolari>.



ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ

Р.М.МЕДЕТОВА,

д.п.н., и.о.профессора ТГПУ

В данной статье сделан акцент на совершенствования процесса формирования и развития толерантности у обучающихся.

Ключевые слова: обучающийся, педагог, совершенствование, толерантность, образование, непрерывность, последовательность.

Ushbu maqolada talabalar orasida bag'rikenglikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: talaba, o'qituvchi, takomillashtirish, bag'rikenglik, ta'lim, uzluksizlik, izchillik.

This article focuses on improving the process of formation and development of tolerance among students.

Key words: student, teacher, improvement, tolerance, education, continuity, consistency.

Многополярный мир сегодня требует от нас более глобального подхода к решению многих проблем, имеющих место в подготовке педагогических кадров. Создание в современных условиях мирового многополярного единого образовательного пространства, в первую очередь, связано с социально-экономическим развитием государств, в том числе и развитием сектора образования. В Уставе ООН говорится о «решимости народов избавить будущие поколения от бедствий войны, утвердить веру в основные права человека, в достоинство и ценность человеческой личности; созданию условий для соблюдения справедливости и уважения к обязательствам международного права, содействию условий жизни при большей свободе, проявлению терпимости, объединению сил для поддержания международного мира и безопасности». Обозначенная глобальная задача в международном документе способствует объединению преподавателей для решения многих проблем, имеющих в образовании. Педагогические идеи в своём развитии опираются на педагогическое наследие прошлых лет, современные педагогические исследования, обогащающие педагогические теории новыми идеями, передовой педагогический опыт, что позволяет выдвигать новые концепции и теории, выявлять определённые закономерности.

Современная педагогика характеризуется наличием ряда основных парадигм: парадигма знаний, поведенческая парадигма, технократическая парадиг-



ма, прагматическая парадигма, гуманистическая парадигма, теологическая парадигма (развитие нравственных основ и религиозных чувств личности).

Нынешнее общество и перспективы его развития требуют создания новой системы образования, помогающей сформировать у студентов и магистрантов способности к проективной детерминации (определение перспективы объекта, исходя из данных о его представлении, комплектации, параметрами и составляющими, присущими той или иной категории или образцу) будущего и ответственности за него, веру в свои профессиональные способности и в себя.

Модель взаимодействия внутри образовательной системы между педагогами, философия образования (какое место занимает человек в современном мире), теория практики включает менеджмент образования, социальное проектирование, приоритетные направления развития педагогической науки, разработка для всех возрастных групп этапов формирования личности, конкретно-педагогических и общественных целей, технологий и концепций обучения и воспитания; научный анализ и оценка состояния практики, точное прогнозирование педагогических и социально-экономических аспектов образования; поиск средств и путей индивидуализации и дифференциации учебной деятельности на основе единства развития, обучения и воспитания; выявление перспектив личности в учебно-воспитательном процессе (содержание, цели, методы, организационные формы и средства, виды деятельности); развитие методов и методологии педагогических исследований; педагогические аспекты гуманистической системы образования; поиск наиболее эффективных путей развития духовной культуры, гражданского становления личности; развитие концепции национального образования в качестве института развития национальной культуры, национального самосознания, совершенствования межнациональных отношений; изучение эффективных способов оптимизации и активизации педагогического процесса; создание условий для повышения эффективного самовоспитания и самообразования; изучение психолого-педагогических проблем студенческой молодёжи; анализ, обобщение и распространение передового педагогического опыта, инновационных процессов. Значит, миссия преподавателя заключается в важной роли личностного фактора, человеческой составляющей процесса подготовки таких востребованных для обучения и воспитания педагогических кадров, которые в условиях глобализации будут основаны на новом типе социальных отношений, включающем готовность к многостороннему сотрудничеству на основе принципов толерантности.

Основная задача при подготовке педагогических кадров должна быть ори-



ентирована на то, какое поколение придёт на смену нынешнему поколению. События, произошедшие в последние десятилетия, позволили нам сделать вывод о том, что мы должны изменить образ мышления и жизни, характер отношения между преподавателями. Исходя из этого, путь, избранный Узбекистаном, означает, что наша страна способна интегрировать в мировое педагогическое сообщество и это определило стратегическую цель образования: формирование личности, умеющей активно действовать в современных условиях.

Назовём некоторые приоритетные направления в подготовке педагогических кадров в условиях разнонаправленности обучения и воспитания: формирование коммуникативной компетентности у студенческой молодёжи – как важной педагогической задачи, которая приобрела теоретическое и практическое значение в локальном и глобальном масштабе; развитие межнациональных отношений, последовательное изучение национальных традиций, обычаев и обрядов, что обеспечит синтез культур, поскольку общая мировая цивилизация складывается из культурных традиций разных народов; развитие толерантности у учащейся молодёжи в различных её аспектах – межличностном, социальном, этическом, этническом и т.д.; взаимодействие современной педагогической науки и этнопедагогике благоприятствует взаимному развитию, так как основная ее задача заключается в познании закономерностей такого сложного социального явления, как воспитание, его сущности и структуры, различных компонентов, связей и отношений; многогранные знания и умения, мудрость народа закладывают в сознание студентов и магистрантов уважительное отношение друг к другу, к каждой личности, так как включают в себя гуманистические нравственно-ценностные идеи, способствующие формированию важных человеческих качеств личности; интенсивная разработка и внедрение новых усовершенствованных технологий обучения, в том числе и цифровых; информатизация образования, соответствующая перспективным требованиям, ориентированным на приоритет личности студента и магистранта; расширение создания совместной учебной и методической литературы; трансформация образования, основным показателем которой является позитивное поведение студентов и магистрантов, направленное на личность другого, на выстраивание доброжелательных отношений друг с другом; решение ряда конкретных задач: воспитания у студентов и магистрантов чувства миролюбия, принятия и понимания других личностей, умения позитивно с ними взаимодействовать; проявления уважения к культурным традициям; конструктивному общению с людьми независимо от их мировоззрения; осуждение терроризма и экстремизма; поощрять обладание студентами и магистрантами чёткой гражданской позиции, что поможет молодым людям найти своё место в социуме, обеспечить прогресс общества. Ведь только



целостное восприятие современных реалий, развитие чувство сопричастности к судьбам страны и мира, раздвигает рамки познания студенческой молодёжью современных проблем, ускоряет процесс социализации; любая социальная проблема может быть решена только под воздействием реальной заинтересованности педагогов в воспитании личности и ее социализации в условиях многополярного мира, а именно – глобализации профессиональной деятельности, создания новых видов социализации, национальной и этнической дивергенции (определение того, насколько расходитя входящее и исходящее из окрестности данной точки поля), точнее, насколько расходятся входящий и исходящий потоки), экологической дисбалансированности. Отсюда – прямая задача профессорско-преподавательского состава вузов, как общественного института, где закладываются нравственные нормы, духовная культура – развивать у студентов чувство ответственности, сопричастности к судьбам своего и других народов, поддерживать студентов и магистрантов на всех этапах их взросления и введения их в глобальное образовательное пространство; стремлении достичь взаимного понимания и согласования мотивов, установок, ориентаций, используя гуманитарные возможности: диалог, разъяснение, сотрудничество. Это приведёт к изменениям от проективно-конструктивного отношения к внешней среде к такому отношению, когда каждый примет другого таким, каков он есть. Ведущим, системообразующим качеством такой личности должно стать его культурологическое мировоззрение, включающее знания о собственной культуре и о многообразии культур, знание языков и умение их применять на практике, готовность к сотрудничеству.

Таким образом, в условиях глобализации происходит постепенный переход к новому типу социальных отношений, поскольку рост неопределённости в обществе и в мире изменил жизненную ситуацию личности и нужно уметь находить решения, принимать их, нести ответственность за свой выбор в диалоге с другими личностями.

Литература:

1. Декларация ООН о воспитании народов в духе мира: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/life_in_peace.shtml
2. Выступление Президента Республики Узбекистан на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций 19 сентября 2017 года // Народное слово. - Ташкент, 2017. - 20 сентября. - С. 1-2.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года.



O'TMISH ALLOMALARI MEROSI VOSITASIDA O'QUVCHI-YOSHLARDA «OMMAVIY MADANIYAT»GA QARSHI IMMUNITETNI UZLUKSIZ SHAKLLANTIRISH

X.M. TOJIBOYEVA,

O'zPFITI direktor o'rinbosari,
pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Ushbu maqolada o'tmish allomalari merosi vositasida o'quvchi-yoshlarda «ommaaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni uzluksiz shakllantirish haqida fikr yuritilgan bo'lib, ajdodlarimizning farzand kamol topishi, bilim egallashi, yuksak ma'naviyatli bo'lishiga erishish haqida bildirgan qimmatli qarashlari va fikrlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: madaniy immunitet, o'quvchi-yoshlar, ommaaviy madaniyat, manipulyatsiya, mexanizm, qadriyatlar, milliy madaniyat, allomalar merosi, salbiy illatlar, yoshlar xatti-harakati, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya.

В данной статье размышляется о непрерывном формировании иммунитета против «массовой культуры» у школьников через наследие прошлых ученых, анализируются ценные взгляды и мнения, высказанные нашими предками о развитии детей, овладении знаниями, достижении высокой духовности.

Ключевые слова: культурный иммунитет, студенческая молодежь, массовая культура, манипулирование, механизм, ценности, национальная культура, интеллектуальное наследие, негативные пороки, поведение молодежи, нравственные ценности, нравственное воспитание.

This article reflects on the continuous formation of immunity against «mass culture» in students through the legacy of past scholars, and analyzes the valuable views and opinions expressed by our ancestors about the development of children, acquiring knowledge, and achieving high spirituality.

Key words: cultural immunity, students-youth, mass culture, manipulation, mechanism, values, national culture, intellectual heritage, negative vices, youth behavior, moral values, moral education.

«Ommaaviy madaniyat» o'zining mohiyatiga ko'ra, milliy madaniyatlar taraqqiyotiga ziyon etkazib, madaniy rang-baranglikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Uning asl maqsadi milliy madaniyatga putur etkazib, xalqning milliy o'zligini unutishiga ko'maklashishdan iborat. «Ommaaviy madaniyat», birinchi navbatda, jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlarni axloqsizlikka undashga xizmat qiladi.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy madaniyati va diniy qadriyatlari o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra uzoq asrlar davomida shakllangan qimmatli qadriyatlar majmui hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ushbu qadriyatlar jamiyat



a'zolari orasida hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro do'stlik, tolerantlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy madaniyatni o'zlashtirmagan yoshlar ruhiyatiga turli yot kuchlarning safsatabozlikdan iborat g'oyalari tez singadi. Ajdodlarimiz asrlar davomida o'zbek xalqi milliy madaniyatida ibo-hayo, sharm-andisha, o'zaro hamjihatlik, birdamlik kabi axloqiy fazilatlar ustuvor bo'lishiga erishganlar.

«Ommaviy madaniyat» ta'sirida yoshlar orasida keng tarqalayotgan salbiy illatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Axloqiy hayosizlik – jamoat joylari, xiyobonlar, maktab, kollej va liseylar hududida o'pishish.

2. Inson hirsini uyg'otadigan shahvoniy film va suratlar tomosha qilish.

3. Ijtimoiy saytlarda zo'ravonlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar va kompyuter o'yinlariga odatlanib qolish.

4. Yoshlarda xudbinlik kayfiyatining rivojlanishi.

5. Manfaatparastlik, o'z manfaati yo'lida hech kim bilan hisoblashmaslik, hattoki, ota-onalarining fikrlari bilan ham kelishmaslik kayfiyatining shakllanishi.

6. O'z nafsi yo'lida hech narsadan qaytmaslik.

7. Hayosizlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, shahvatparastlikka mukkasidan ketish kabilar.

Ko'rinish turibdiki, «ommaviy madaniyat» o'smir yoshdagi o'quvchilarning madaniy ongi to'g'ri shakllanishiga salbiy tasir ko'rsatib, ularni xudbin, manfaatparast bo'lib shakllanishlariga asos bo'ladi. Ularning shiori «Biz erkinmiz, o'z bilganimizcha yashaymiz, bu bizning hayotimiz», «Biz mustaqilmiz, ko'nglimiz tusagan ishini qilamiz, hattoki ota-onamiz ham biz uchun qaror qabul qila olmaydi» kabildan iborat. «Ommaviy madaniyat» o'smir yoshdagi o'quvchilarni diniy e'tiqod, milliy qadriyatlar va madaniy dunyoqarashdan chalg'itadi. Natijada ularda jamiyat hayoti uchun mas'ullik hissi shakllanmay qoladi. Ular farzandlik burchlarini unutib, ota-onalariga begona bo'lib qoladilar. «Ommaviy madaniyat», ayniqsa, o'smirlik davrida inson hayotini buzib yuborish omiliga aylanmoqda.

Bilish nazariyasida aqliy va hissiy-intuitiv bilishni birlashtirgan, tasavvufda hushyorlik (sahv)maslagini tanlab, behud – devonalikni inkor etgan. U insonni kichik olam deb, uning kamoloti cheksiz ekanini ta'kidlagan. Najmiddin Kubro ta'limoti[2]ni har tomonlama tahlil qilish va uning O'rta Osiyo ma'naviy pedagogik fikr taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatish uchun ilgari surgan g'oyalarni bugungi davr nuqtai nazaridan yondashgan holda o'rganib, turli tadbirlar yordamida o'quvchi-yoshlar ongiga etkazish lozim. Chunki Najmiddin Kubro qarashlarini o'rganish va bilish o'quvchi-yoshlarning milliy o'zliklarini anglashlari uchun katta ahamiyatga ega.

U o'zining axloqiy qarashlarini «Favoiy al-jamol va favotih al-jalol» («Jamol



xushbo'yliklari va jalolning kashfi»), «Al-usul al-ashara» («O'nta usul»), «Fi odobus solikin» («Soliqlar odobida») nomli kitoblari bayon qilgan bo'lib, pedagoglar ushbu asarlar bilan yaqindan tanishishlari lozim [3].

Najmiddin Kubro o'z asarlarida tafakkurga asoslangan aqliy bilimni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlagan. Najmiddin Kubro inson ruhiy kechinmalari, nozik holatlarini puxta bilgan. Shu asosda «latoif» («nozik ta'blilik») nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko'ra, inson ruhi ko'zga ko'rinmas latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg'u, ruh va jism orasidagi holat. Uni ilg'ab olish mushkul. Ammo inson hayoti va kundalik faoliyatida ushbu qarashlarning ahamiyati muhim.

Najmiddin Kubro irfoniy hikmat va insoniy poklik, ilohiy ma'rifat g'oyalari butun Sharqqa tarqatgan mutafakkir sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, uning qarashlari bugungi kunda o'smirlarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni shakllantirishda ham alohida ahamiyatga ega.

O'z g'oyalari bilan barkamol shaxs tarbiyasi borasida alohida o'rin egallagan mutafakkirlardan biri Xusayn Voiz Koshifiydir [4]. Xusayn Voiz Koshifiy «Axloqi muhsiniy», «Axloqi Karim», «Suxayliy», «Javohirnoma», «Risola dar ilmi e'dod» («Sonlar haqida risola»), «Ravzat ush shuhado» («Shahidlik bog'i»), «Oynai Iskandariy», «Tafsiri Husayniy», «Risolati Hotamiy yoki Kitobi Hotamnoma» («Hotamtoy haqida risola»), «Sahifai shoda», «Badoe al-afkor fi sannoe al ash'or» kabi asarlarida axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini yoritgan. Uning ta'kidlashicha, odob qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni hurmat qila bilishdir. Koshifiy tarbiyada ota-onalar va pedagoglarning tarbiya sohasidagi vazifalarini belgilab bergan. O'smir yoshidagi o'quvchilarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni shakllantirishda Koshifiyning qarashlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

«Odob, bu – qalbini yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalarni obro'sini tushurmaslikdir».

«Yolg'onchilik seni jarlikka etaklaydi, rostgo'ylik esa baxtsizlikdan saqlaydi», – deydi Koshifiy. U ijobiy fazilatlarini maqtab, insonlarga zarur deb hisoblaydi. Inson yolg'onchilik, xasislik, adolatsizlik, vijdonsizlik kabi xislatlardan holi bo'lishi kerak, deb nasihat qiladi Koshifiy. «Insonning axloqsizligi uning o'zigagina emas, balki o'zgalarga ham salbiy ta'sir qiladi»; «Odob – oltindan qimmat»; «Vijdoni, nomusi, diyonati bo'lmagan kishi dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir», – deydi Koshifiy.

Koshifiy yoshlarda sofdillik, rostgo'ylik, saxiylik, vijdonlilik, irodalilik, qat'iyatlilik kabi fazilatlarini shakllantirish zarur, deb hisoblaydi. U xasis, tamagir,



ochko'z, dilozor, pastkash, tuhmatchi, sotqin, yolg'onchi, laqma kishilarni axloqsiz kishilar sirasiga kiritadi.

Voiz Koshifiy o'z qarashlarida inson ma'naviyatining bir qator masalalariga e'tibor qaratgan. U, birinchi navbatda, insonda oliyjanoblik xususiyati bo'lishi zarurligi haqida to'xtalgan. Oq ko'ngillilik, bag'rikenglikni ham odob me'yori, deb hisoblaydi. «Sofdillik, sabrlik, rostgo'ylik, saxiylik, mehnatsevarlik insonning barkamolligi va o'zini anglashidan dalolat beradi. Sofdillik, rostgo'ylik va muruvvatlilik bexatarlik va ishonch garovidir» – deb uqtiradi Koshifiy. Bu fikri bilan u yoshlarni qora ko'ngil, yolg'onchi, tamagir, pastkash, nokas, gap tashuvchi, laqma bo'lmaslikka, mard olijanob, saxiy bo'lishga chaqiradi. Bundan tashqari, Voiz Koshifiy, ayniqsa, insondagi rostgo'ylik va mehnatsevarlik xislatlariga keng to'xtaladi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, insoniylikni belgilaydigan eng asosiy jihatlardan biri – bu rostgo'ylikdir. Koshifiyning axloqning bu tomoniga alohida diqqat qilganligining sababi shundaki, u yashagan davrda yolg'onchilik, bir-birini aldash, ota bolaga, aka ukaga qarshi kurash olib borish kabi salbiy jihatlarni keng o'rin egallagan edi. Koshifiy halqqa baxtsizlik va davlatga zarar keltiruvchi yolg'onchi, ishyoqmas, xasis, sotqin kishilarni etti guruhga ajratadi.

«Ommaviy madaniyat» bizga chetdan kirib kelayotgan, o'zbekona qadriyatlarimizga mutlaqo' yot ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga hodisadir. U ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yordamida dunyo mamlakatlarining barchasiga «zamonaviy madaniyat» sifatida kirib bordi. Shuningdek, u o'tgan asrning o'rtalarida ommaviy muloqot va axborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi va barcha ijtimoiy guruhlar uchun etarli bo'lishi natijasida shakllangan hamda mohiyatan barcha yoshdagi aholi uchun tushunarli bo'lgan madaniyat namunalari, qadriyatlaridir.

Foydalanilgan manbalar:

1. Djurayev R.X. va b. O'quvchi-yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari // Monografiya. - T.: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2017 yil, 164 bet.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. - 376 b.
3. Hasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T.: O'qituvchi. 1993. - 238 b.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. -T.: Xalq merosi, 1994. - 112 b.



AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA TALABALARNING MADANIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

D.M.BEGMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
p.f.b.f.d (PhD), dotsent

Ushbu maqolada auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning madaniy immunitetini rivojlantirish yo'llari, strategiyalari bayon qilingan. Shuningdek, talaba-yoshlarni madaniy hodisalarni tahlil qilib, ijobiy va salbiy jihatlarni farqlash, ularga o'z munosabatlarini bildirish, ijobiy jihatlarni o'zlarining ijtimoiy tajribalariga singdirish kabi harakat usullarini amalga oshirishlari ta'kidlangan.

Tayanch so'zlar: auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, talaba-yoshlar, madaniy immunitet, pedagogik strategiyalar, madaniy yondashuvlar, mafkuraviy kurashlar, milliy madaniyat, ijtimoiy madaniy ko'nikmalar, madaniy qadriyatlar, ijobiy-madaniy dunyoqarash.

В данной статье описаны способы и стратегии развития культурного иммунитета учащихся на аудиторных и внеаудиторных занятиях. Также подчеркивается, что студенты и молодежь должны анализировать культурные события, различать положительные и отрицательные аспекты, выражать свое отношение к ним и включать положительные аспекты в свой социальный опыт.

Ключевые слова: классная и классная деятельность, учащаяся молодежь, культурный иммунитет, педагогические стратегии, культурологические подходы, идеологическая борьба, национальная культура, социальные и культурные навыки, культурные ценности, позитивное культурное мировоззрение.

This article describes ways and strategies to develop students' cultural immunity in classroom and non-auditory classes. Also, it is emphasized that students and young people should analyze cultural events, differentiate between positive and negative aspects, express their attitudes to them, and incorporate positive aspects into their social experiences.

Key words: classroom and classroom activities, student-youth, cultural immunity, pedagogical strategies, cultural approaches, ideological struggles, national culture, social and cultural skills, cultural values, positive cultural outlook.

Talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish, ularda mustaqil tafakkur yuritish malakalarini rivojlantirish orqali o'z shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan loqaydlik, beparvolikni yo'qotishdan iborat. Mazkur natijaga erishish esa o'z navbatida talabalarda madaniy dunyoqarash, umummadaniy qiyofa,



ma'naviy-mafkuraviy bilimdonlik va yaxlitlikda madaniy immunitetni rivojlantirish va mazkur maqsad bilan bog'liqlikda quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:

– talabalarda milliy va umumbashariy (ma'naviy) qadriyatlarini o'zlashtirishga nisbatan barqaror e'tiqod hamda qarashlar tizimini rivojlantirish [1];

– ularda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini aniq baholay olish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish malakalarini hosil qilish;

– o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat ijtimoiy mo'ljali bilan uyg'unlashtira olishlariga erishish;

– voqea-hodisalarni ekspertizadan o'tkazish salohiyati hamda voqelikka daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish;

– talabalarda ziyolilik sifatlarini tarkib toptirish.

Talabalarining madaniy immunitetini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vaziyatlar professor-o'qituvchilar tomonidan tanlanadi va loyihalashtiriladi. Ayniqsa, madaniy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiladigan auditoriya va auditoriyadan tashqari pedagogik vaziyatlar talabalarining madaniy dunyoqarashini rivojlantirishni nazarda tutgan holda tashkil etiladi.

Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning talabalarda madaniy boyliklarni egallash motivasiyasini hosil qilishiga alohida e'tibor qaratdik. Pedagogik vaziyatlarda talabalarining madaniy hayot tarzi o'z ifodasini topishi kerak. Bu jarayonda talabalar madaniy boyliklarni o'zlashtirish asosida o'z dunyoqarashlarini boyitishlari va atrofdegilar bilan madaniy muloqot o'rnatish stereotiplarini o'zlashtirishlari nazarda tutiladi. Mazkur jarayonning loyihalashtirilishi, tashkil etilishi va boshqarilishiga alohida e'tibor qaratilishi ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradi.

Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarining madaniy immunitetini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vaziyatlarda muayyan strategiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Talabalarining madaniy immunitetini rivojlantirish maqsadida hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash strategiyasidan foydalanish qo'l keladi. Mazkur strategiyalar yordamida birinchi navbatda talabalarining madaniy hodisalarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun birinchi navbatda talaba-yoshlarda mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim. Ular madaniy hodisalarni tahlil qilib, ijobiy va salbiy jihatlarni farqlash, ularga o'z munosabatlarini bildirish, ijobiy jihatlarni o'zlarining ijtimoiy tajribalariga singdirish kabi harakat usullarini amalga oshiradilar.

Talaba-yoshlar o'zlari mohiyatini anglab etmagan madaniy hodisalarni o'qituvchilari, ota-onalari, tengdoshlari bilan birgalikda har tomonlama tahlil qilishlari lozim. Tanlangan strategiyalar talabalarda madaniy bilimlarni o'zlashtirish,



xalqimizning ko'p asrlik tarixiy-madaniy tajribasini o'rganish va tahlil qilish mayllarini hosil qilishiga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Buning uchun auditoriya va auditoriyadan tashqari pedagogik tadbirlar jarayonida talabalarga madaniyatga oid bilimlar taqdim etiladi va xalqning tarixiy madaniy tajribasi bilan ularni yaqindan tanishtirish harakatlari amalga oshiriladi. Buning uchun, ular auditoriyadan tashqari jarayonlarda ham ko'plab ma'lumotlarni to'plashga harakat qiladilar, turli ilmiy, ilmiy-ommabop, tarixiy manbalar hamda internet materiallarini o'rganishga kirishadilar.

Bunday manbalar talabalar ongiga xalqning madaniy tajribasini singdirishga xizmat qilib, ularning madaniyatga oid bilimlarini tizimli o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va zamonamiz qahramonlarining madaniy ibrati talabalarda sog'lom, milliy va umuminsoniy xarakterdagi madaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv talabalarining madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirishlari, chuqur tahlil qila olishlari va milliy mentalitetimizga xos bo'lgan madaniy qarashlarni saralagan holda o'z tajribalariga singdirishlarini ta'minlaydi. Ular o'zlari o'zlashtirgan madaniy bilimlar va qadriyatlarining mazmun mohiyatini anglay boshlaydilar.

X.M.Tojiboevaning fikricha, ijobiy-madaniy dunyoqarash talabalarda milliy madaniyatga xos bo'lgan stereotiplarni o'zlashtirishga nisbatan ichki motiva-siyaning hosil bo'lishini ta'minlaydi. Natijada talaba-yoshlarda madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish, ular ustida fikrlashga qaratilgan ichki intilishni hosil qiladi[5; 39-b.]. Shuningdek, ular o'zlashtirgan madaniy qadriyatlarning ijtimoiy tajribaga aylanishini ta'minlaydi. Natijada talabalarining xatti-harakatlari ongli, qadriyatli xarakter kasb etadi. Ular jamiyatdagi axloq me'yorlariga amal qilish ko'nikmasini egallaydilar. Bu esa talabalarda quyidagi ijtimoiy madaniy ko'nikmalarning vujudga kelishiga asos bo'ladi:

– milliy madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga nisbatan motivasiyani hosil qilish;

– talabalarda ijtimoiy madaniy faollik va madaniy voqelikka nisbatan tahliliy munosabat tajribasini shakllantirish;

– talabalarni milliy madaniyatga xos bo'lgan bilimlarni egallash va hayotiy vaziyatlarda ularga amal qilish ko'nikmasini shakllantirish kabilar.

Mazkur bosqichda talabalar oldiga tarixiy-madaniy bilimlarni o'zlashtirishga xizmat qiladigan aniq vazifalar qo'yilishi kerak. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar madaniy hodisalar orasidagi aloqadorlikni anglab etishga muvaffaq bo'ladilar. Madaniy hodisalarni bilish va ularning mohiyatini tushunish talabalarga madaniyatlarining ikki yoqlama xarakteri haqida aniq tasavvur hosil qilishiga asos bo'ladi.



Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda talabalarga mustaqil o‘qib o‘rganish uchun mavzular taqdim etiladi. Natijada talaba-yoshlar xalqimiz madaniyatiga oid aniq ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. Ularda quyidagi madaniy faoliyat ko‘nikmalari shakllandi:

1. Madaniyatga oid bilimlarni tarixiy ma‘lumotlar yordamida o‘zlashtirish va tahlil qilish.
2. Madaniyatga oid bilimlarni mustaqil o‘qib o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish.
3. Madaniyatga oid bilimlar, madaniy hodisalar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni muntazam o‘rganishga oid ichki motivasiyaga ega bo‘lish.
4. Talaba-yoshlarda genderga xos bo‘lgan ijtimoiy rollar va madaniy sifatlarni tarkib toptirish.

Xulosa qilib aytganda, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda talabalarni madaniy faoliyat ko‘nikmalari bilan qurollantirish natijasida ularda madaniy hodisalarni aniqlash, ularning mazmun mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan izlanishlarni amalga oshirishga oid faoliyat ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Utanov O‘.Q. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalar ma‘naviyatini rivojlantirish: Falsafa doktori ... diss. - T., 2018. - 151 b.
2. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. - T.: 1993. - 364 b.
3. Safarova R.G. va b. O‘quvchi-yoshlarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari // Monografiya. - T.: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2018-yil, 192 bet.
4. Xodjeyev B.X. Umumta‘lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizasiyalashgan didaktik ta‘minot vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori. ... diss. - T., 2016. - 314 b.
5. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari // Monografiya. - Toshkent: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2021. - 208 bet.



TALABA-YOSHLAR MADANIYAT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA VATANPARVARLIK G'ÓYALARINING NAZARIY AHAMIYATI

F.S.USMANOVA,

Samarqand davlat universiteti doktoranti

Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy tuyg'usini rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyalarini targ'ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo'ladigan vatanparvarlik g'oyalarining nazariy ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, ajdodlar o'giti, madaniyat kompetentligi.

В данной статье размышляется о теоретическом значении патриотических идей, которые также проявляются в борьбе за развитие национального чувства узбекского народа, пропаганду идей национального подъема, укрепление дружбы, мира и согласия между различными национальностями и сословиями, проживающими в нашей стране.

Ключевые слова: патриотизм, духовность, воспитание молодежи, agumatsiya za predkov, культурная компетентность.

This article reflects on the theoretical significance of patriotic ideas, which are also manifested in the struggle for the development of the national feeling of the Uzbek people, the promotion of ideas of national uplift, strengthening friendship, peace and harmony between different nationalities and estates living in our country.

Key words: patriotism, spirituality, youth education, agitation for ancestors, cultural competence.

Vatanparvarlik – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak namoyon bo'lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarini saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlardan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto, zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalik kabilar yotadi. Vatanparvarlik el-yurt manfaatlariga xizmat qilish, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish demakdir [1, 35-b.].

Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida mustahkamlanishi, uning iqtisodiy,



ma'naviy-madaniy taraqqiyoti, mehnatkashlarning tezroq farovon hayotga erishishi uchun tinmay mehnat qilishi va izlanishi fidoyilik deyishimiz mumkin. Fidoyilik Vatanga bo'lgan sadoqatdan, muhabbatdan boshlanadi. Istagan sohada vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qilish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish kabilar ham vatanparvarlik hisoblanadi [2, 35-b.].

Vatanparvarlikning oliy ko'rinishi jasoratdir. Jasorat kishining Vatan va yurtdoshlari uchun o'z manfaatlaridan, kerak bo'lsa jonidan ham kechib namoyon etadigan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlaridir. Jasorat xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi. Vatan himoyasi uchun qilingan uzoq mehnatda ham, o'zini fido qilish talab etiladigan favqulodda holatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin [3].

Vatanparvarlik o'zbek xalqining milliy tuyg'usini rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyalari targ'ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, u O'zbekistonda demokratiya va hurfiylikning qaror topishiga g'ov bo'layotgan hollarga qarshi kurashishni ham o'z ichiga oladi [4].

Demak, talabalarda madaniyat kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda «insonparvarlik» tushunchasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ham talabalarga tushuntirib berish zarur.

Insonparvarlik («inson» – arabcha –; «parvar» – fors-tojikcha; «lik» – o'zbekcha – kishiga g'amxo'rlik, gumanizm) – odamzotning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi [3].

Adabiyotlarda keltirilishicha, insonparvarlik – adolat, shafqat, mehribonlik, himmat, kishilarga odamiylik, olijanoblik baxsh etish, inson ozodaligi va uning kamol topishini aks ettiruvchi tuyg'u.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonparvarlik g'oyasi Farobiy, Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy ijodida chuqur yoritilgan. Jumladan, Ahmad Yassaviyning talqinicha, inson dunyosi insonparvarlik bilan oboddir. Uning hikmatlarida yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik qoralanadi, shu bilan birga, kishilarni mehribonlikka, himmatga, g'arib-yetimlarga ozor bermaslikka da'vat etilib, inson ma'naviy kamolotga intilib yashashi lozim, ko'nglida e'tiqod yo'q odam esa inson nomiga nomunosibdir, deb ta'kidlanadi.

Milliylik jamiyat hayotining eng muhim omillaridan biridir, chunki jamiyat va umuman insoniyat millatlar va elatlardan iboratdir, shu boisdan jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik va kishilarning bunyodkorlik faoliyati ko'p jihatdan millatlar hamda elatlarning o'zaro munosabatlari qanchalik to'g'ri va odilona hal



qilinganligiga bog'liq. Milliylikni millatlar yoki elatlarning faqat ma'lum xususiyatlari orqali tushuntirishga intilish milliylikning ba'zi nozik tomonlari va qirralarini inobatga olishga to'sqinlik qilib, millatlar yoki elatlar ongida noroziliklar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Milliylik masalasida to'g'ri fikr yuritmoq uchun har bir millatning va elatning tarixi, an'analari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, madaniyati, boshqa millatlar va elatlar bilan munosabatlarini o'rganmoq zarur [4].

Adabiyotlarda [4] milliy ong – bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarida faollik darajasi, deb ta'riflanadi.

Milliy ong alohida milliy muhitda sodir bo'ladi. Uning shakllanishiga tarix to'plagan bilimlar, siyosiy va huquqiy g'oyalar, san'at erishgan yutuqlar, axloq, din va ijtimoiy ruhiyat, umuman, jamiyat ongi ta'sir ko'rsatadi. Milliy ongning tarixdagi ijobiy ahamiyati shundan iboratki, u jamiyat taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong tarixiy tajribani, oldin o'tgan ajdodlar ishlab chiqqan bilimlarni va tafakkur-mantiq usullarini o'ziga singdirib olgach, voqelikni g'oyaviy tarzda o'zlashtiradi, vazifalarni o'rta qo'yadi, kelajakdagi faraziy loyihalarini tuzadi, insonning butun amaliy faoliyatini belgilaydi. Milliy ongni milliy faoliyat shakllantiradi, milliy ong ham o'z navbatida milliy faoliyatga bevosita ta'sir o'tkazadi, uni belgilaydi va tartibga soladi. Millat, o'z orzu-havaslarini amaliy ravishda ro'yobga chiqara borib, tabiatni, jamiyatni, shu bilan birga, o'z ongi tufayli o'zini ham o'zgartiradi [5].

Milliy o'z-o'zini anglash, real moddiy kuch sifatida, millat sha'ni, qadr-qimmat, obro'-e'tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millatning moddiy va ma'naviy manfaatlariga zid ikkinchi bir tomondan zo'rovonlik harakatlari yuzaga keltirilgan holatlarda namoyon bo'ladi. Sha'ni, qadr-qimmat, or-nomusi, obro'-e'tibori, nufuzi va manfaatlar poymol etilgan millat vakillari, qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki qambag'al bo'lishidan qat'i nazar, yagona umummilliy kuch bo'lib birlashadilar va o'zligini himoya qiladilar [2].

Mazkur fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, milliy ong millatning o'ziga xos rivojlanib borishini belgilovchi bosh mezon bo'lib, millatning yagona tili, urf-odatlar, an'analari, qadriyatlar va ma'naviyatining oddiydan-murakkabga, eskilikdan yangilikka qarab rivojlanib borishini ifodalaydi va o'z navbatida milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millat – milliy qadriyatlarning sohibi; millatning tanazzuli - milliy qadriyatlarning tanazzulidir.



Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi [3].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bir necha asrlardan beri shakllanib va rivojlanib kelayotgan Vatanga muhabbat va ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, sabr-toqat, ma'suliyatlilik, bosiqlik, sipolik, hayo, andisha, odoblilik, tadjriyilik, mehmondo'stlik va h.k. kabi qator qadriyatlarimiz tiklandi. O'zbek millatiga mos mazkur qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uni asrab-avaylash yo'nalishida ma'naviy asos sifatida xizmat qiladi, chunki mamlakatimiz mustaqilligini qadriga etish va uni asrab-avaylash O'zbekistonning har bir fuqarosining burchi bo'lishi bilan bir qatorda, ularning manfaatlarini ham ifodalaydi.

O'zini Yangi O'zbekiston fuqarosiman, o'zbek farzandiman, Vatanim – ona yurtim O'zbekiston deb hisoblaydigan hamda Vatan hissi va Vatan tuyg'usi bilan yashaydigan har bir inson tinchlik-osoyishtalik, mehr-muhabbat, insonparvarlik, g'amxo'rlik, huquq, erkinlik, e'tiqod erkinligi, hurmat, obro'-e'tibor va h.k. kabi mustaqillik tuhfaridan xursand bo'ladi va o'zini baxtli deb hisoblab, o'zbekligidan va Yangi O'zbekistonda yashayotganligidan faxrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайруллаев М.М. ФОРБИЙ ПСИХИК ПРОЦЕССЛАР ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҲАҚИДА. Т.: 1967.
2. Raximov S. Abu Ali ibn Sino «Ta'lim va tarbiya haqida»
3. Samiyeva S. Yangi O'zbekiston ilm-fan taraqqiyotida ayollarning o'rni va roli //ЦЕНТР научных ПУБЛИКАТСИЙ (бухду, уз). - 2023. - Т. 31. - №. 31.
4. Olimov S. S., Mamurova D. I. Graphic Information Processing Technology and its Importance //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). - 2021. - Т. 10. - С. 1-4.



BO'LAJAK TARIX FANI O'QITUVCHILARINING DIDAKTIK MADANIYATINING STRUKTURASI

G.B.SHERTAYLAKOVA,
JizDPU mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining didaktik madaniyatining strukturasi va ta'limning didaktik tamoyillariga muvofiq pedagogik faoliyatni amalga oshirishning elementlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *didaktik madaniyat, integratsiya, kognitiv element, proyeksion, shaxsiy - faoliyatli, motivatsion, texnologik.*

This article discusses the structure of the didactic culture of future teachers of history and the elements of the implementation of pedagogical activity in accordance with the didactic principles of Education.

Key words: *didactic culture, integration, cognitive element, projective, personal - functional, motivational, technological.*

В данной статье рассматривается структура дидактической культуры будущих учителей истории и элементы осуществления педагогической деятельности в соответствии с дидактическими принципами воспитания.

Ключевые слова: *дидактическая культура, интеграция, познавательный элемент, проекционный, личностно-деятельностный, мотивационный, технологический.*

Yangi O'zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida «Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida» qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta'kidlab o'tildi. Sh.Mirziyoyev tomonidan «2022-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi» yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etildi. So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilari ta'lim va tarbiyasi sifatini oshirishning eng samarali yo'llari bo'yicha ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim jarayonlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish o'qituvchilarning o'z faoliyatini, kompetentligini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchisining (ideal holda) kasbiy shakllanishini ta'minlaydigan didaktik madaniyatining tarkibiy qismlarini aniqlaymiz:

1. Meta fan kontent – bu bo'lajak o'qituvchining ixtisosligidan qattiq nazar zarur bo'lgan elementlarni o'z ichiga olgan komponent: shaxsiy – faoliyatli, motivatsion-qadriyat, proyeksion (loyihaviy) va texnologik.



2. Shaxsiy – faoliyatli element bo‘lajak tarix o‘qituvchisining didaktik madaniyatining quyidagi tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi:

bilimlilik

yoshlar va ularning qiziqishlarini tushunish;

liderlik fazilatlarini;

avtoritet;

o‘quvchiga nisbatan hurmat;

adolat;

xayrixohlik;

madaniyatning umumiy darajasi;

ijodkorlik;

kommunikativlik;

bolalarga bo‘lgan muhabbat va ularni psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu elementni biz barcha tarkibiy qismlarni quyidagi kasbiy kompetensiyalarga kiritish mumkinligini ko‘ramiz:

shaxsiy fazilatlar bo‘yicha kompetensiyalar (lo‘z-o‘zini tashkil etish, yuksak madaniyat);

pedagogik faoliyatni tashkil etish bo‘yicha kompetensiyalar (subyekt-subyekt munosabatlarini o‘rnatish qobiliyati; o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati; pedagogik baholash qobiliyati).

Ushbu elementni amalga oshirib, o‘qituvchi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini takomillashtiradi, shaxsiy madaniyat va o‘zini o‘zi tashkil etishni takomillashtirish ustida ishlaydi, ijodiy, tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

7Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisining didaktik madaniyatining ushbu elementini amalga oshirib, o‘qituvchi bolalar va o‘smirlar psixologiyasining xususiyatlarini bilish, faol o‘qitish usullarini qo‘llash orqali o‘quvchilar faoliyatini motivatsiyalash orqali ular uchun muvaffaqiyat holatini yaratadi. O‘quvchilarning mustaqil ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, uslubiy tavsiyalar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zini o‘zi motivatsiyalashtirishi uchun sharoit yaratadi.

Proyektsion (loyihaviy) element didaktik madaniyatning quyidagi tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi: o‘quvchilarning rivojlanish psixologiyasini bilish, o‘quvchilarning qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quv jarayonini amalga oshirish uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni aniqlash. Ushbu elementni biz barcha tarkibiy qismlarini quyidagi kasbiy kompetensiyalar guruhiga kiritish mumkinligini ko‘ramiz:

pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash sohasidagi kompetensiya (o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq maqsad va vazifalarni belgilash qobiliyati; dars mavzusini pedagogik vazifaga tenglashtirish qilish qobiliyati; o‘quvchilarni maqsad va vazifalarni shakllantirish jarayoniga jalb qilish qobiliyati);



pedagogik faoliyatni tashkil etish bo'yicha kopmetentsiyalr (subyekt-subyekt munosabatlarini o'rnatish qobiliyati; o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati; pedagogik baholashni amalga oshirish qobiliyati, nizolarni boshqarish).

Ushbu elementni amalga oshirib, o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatini, darsini, laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlarini davlat, jamiyat, ish beruvchining ijtimoiy buyurtmasi asosida loyihalashtira oladi, o'rganilayotgan fan doirasida uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsad va vazifalarni qo'ya oladi. Maqsadlarni belgilash va dars mavzusini aniqlash jarayonida o'qituvchi dars mavzusini o'quvchilar uchun qulay shaklda tashkillashtirgan dars vazifalariga aylantirishi mumkin. Dars vazifalarini belgilash uchun o'qituvchi o'quvchilarni faol ravishda jalb qiladi, ularning bilim faoliyati va motivatsiyasini faollashtiradi.

To'g'ri tashkil etilgan proyeksion (loyihaviy) elementi o'qituvchiga subyekt-subyekt munosabatlarini o'rnatishga, ya'ni o'quv jarayonini tashkil etish jarayonida «o'quvchi – o'qituvchi» munosabatlarini o'rnatishga imkon beradi. Belgilangan maqsadlar va loyihalashtirilgan o'quv jarayoni o'qituvchiga o'quv jarayonini tashkil etishda juda muhim nuqta bo'lgan ijtimoiy buyurtma, o'quvchining individual xususiyatlari va o'quv materialining mazmunini hisobga olgan holda pedagogik baholashni amalga oshirishga imkon beradi.

Texnologik element didaktik madaniyatning quyidagi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi:

– o'qitish texnologiyalariga ega bo'lish, mualliflik pedagogik texnologiyalarini qo'llash;

– faol o'qitish usullaridan foydalanish.

Ushbu elementni biz barcha tarkibiy qismlarni o'quv dasturni ishlab chiqish, uslubiy, didaktik materiallar va pedagogik qarorlarni qabul qilish bo'yicha kompetensiyalar kabi kasbiy kompetensiyalar guruhiga kiritish mumkinligini ko'ramiz (tipologik ta'lim dasturlarini ishlab chiqish qobiliyati; xususiy dasturini, uslubiy va didaktik materiallarni ishlab chiqish qobiliyati; pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati).

2. Fan kontenti – bu o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini, uning tor ixtisosligini hisobga olgan holda uning kasbiy va shaxsiy qadriyatlarini ochib beradigan kasbiy va shaxsiy xarakterning tarkibiy qismidir. Bo'lajak tarix fani o'qituvchisi uchun vositaviy komponenti, bizning fikrimizcha, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– vatanparvarlik, siyosiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasi;

– tarixda rivojlanishning milliy – mintaqaviy xususiyatlarini, mintaqaning etnik-madaniy xususiyatlarini hisobga olish;

– axloqiy, ko'p madaniyatli fazilatlar, obyektiv fikrlash va tahlil qilish qobiliyati, millatlararo bag'rikenglik elementlari va h.k.



Ushbu komponentning ko'pligini hisobga olgan holda, biz ushbu komponentning zarur va etarli miqdordagi elementlarini ajratamiz, masalan:

- ijtimoiy-madaniy savodxonlik;
- siyosiy savodxonlik;
- tanqidiy fikrlash;
- faol fuqarolik pozitsiyasi;
- vatanparvarlik.

Ular tarix fani o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettiradi.

Kognitiv element – bu tegishli fan sohasidagi bilimlar to'plami, bizning holatlarimizda – tarixiy bilimlar bo'yicha kasbiy faoliyatni ancha yuqori darajada amalga oshirishga imkon beradi. Bunga «Tarix» fanining o'zi, uning barcha jihatlarini bo'yicha bilim va umumta'lim maktabida ushbu fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq pedagogik bilimlar kiradi.

Biz «ijtimoiy-madaniy savodxonlik» elementiga quyidagilarni kiritamiz: millatlararo bag'rikenglik, tarixda rivojlanishning milliy-mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish, mintaqaning etnik-madaniy xususiyatlari va tarkibi.

«Siyosiy savodxonlik» elementiga quyidagilar kiradi: siyosatni tushunish qobiliyati, davlatning asosiy siyosiy kuchlarini bilish, davlatning siyosiy hamorlari va raqiblarini tanish, mamlakatlarning tashqi va ichki siyosatini bilish va uzluksiz rivojlantirish, muayyan qarorlarning siyosiy ahamiyatini tushunish.

Biz «faol fuqarolik pozitsiyasi» elementiga quyidagilarni kiritamiz: shaxsning jamiyat hayotidagi ongli ishtiroki, ijtimoiy – siyosiy faoliyatda ongli ishtirok etish, rivojlangan fuqarolik o'zini o'zi anglash, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy faoliyatga qiziqish, ijtimoiy tashabbus, javobgarlik hissi, davlat taqdiridagi shaxsiy ahamiyatini anglash.

«Vatanparvarlik» elementi bo'lajak tarix fani o'qituvchisining quyidagi fuqarolik fazilatlarini o'z ichiga oladi: ijtimoiy muhit ta'siri ostida shakllangan Vatanga muhabbat tuyg'usi, o'zining harakatlari uchun javobgarlikni his qilish, tashabbuskorlik, mustaqillik.

«Tanqidiy fikrlash» elementi shaxsning analitik fikrlash qobiliyatini anglatadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: sodir bo'lgan voqealarni taqqoslash va tahlil qilish qobiliyati; jamiyatdagi, davlatdagi siyosiy va ijtimoiy voqealarni bashorat qilish va ularni to'g'ri talqin qilish qobiliyati; axborot oqimlari bilan ishlash, uni tanqidiy baholash qobiliyati.

Didaktik tayyorgarlikning klassik tuzilishining kamchiliklari, bizning fikrimizcha, kasbiy tayyorgarlik jarayonida didaktik yo'naltirilgan fanlarning teng taqsimlanmasligi bo'lib, bu bo'lajak pedagogik faoliyatning ushbu fan sohasi bilan o'zaro bog'liqlikni murakkablashtiradi; o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini etarlicha hisobga olmaslik, ularning ta'lim jarayonlari



subyekti sifatida ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlarini kamaytirish kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi. Buning natijasida kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarning tizimsizligi, kasbiy malakalarning etarli darajada rivojlanmaganligi va o'quv jarayonini rejalashtirish, samarali o'qitish texnologiyalarini tanlash va ulardan samarali foydalanish, pedagogik aloqalarni tashkil etish bilan bog'liq ta'limiy va kasbiy faoliyatdagi didaktik muammolarni hal qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida didaktik madaniyatni rivojlantirishdagi aniqlangan bo'shliqlar OTM bosqichidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchisining didaktik tayyorgarligini o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi. Didaktik yo'nalishdagi fanlarning ko'proq amaliyotga yo'naltirilganligi, shuningdek, kasbiy va shaxsiy rejada o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini baholash jarayonlarini boshqarishga hissa qo'shadigan «Kasbiy faoliyatda o'zini o'zi boshqarish» tanlov fanini joriy etish ushbu o'zgarishlarni amalga oshirishga katta hissa qo'shadi. Ushbu fan 3-kursda o'qitilishi kerak, chunki ushbu turdagi kasbiy faoliyatni rivojlantirish uchun o'quv materialini samarali o'zlashtirishga yordam beradigan minimal (asosiy) kasbiy tayyorgarlik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. «O'zbekiston», 2021. - 233 b.
2. Davlatov O.G'. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish: Avtoref. ped.fan.bo'yicha fals.dok. - Toshkent, 2018. - 57 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. <https://t.me/YangiTaraqqiyotStrategiyasi>.
4. Андреева, Ю.В. Саморазвитие как личностный рост в контексте психолого-педагогических стратегий / Ю.В. Андреева // Образование и саморазвитие. - 2012. - №6(34). - С. 3-9.
5. Осипов, П.Н. Глобализация как фактор саморазвития студентов / П.Н. Осипов, Ю.Н. Зиятдинова // Высшее образование в России. - 2015. - №1. - С.140-145.
6. Toshtemirova, S., & To'rayeva, A. (2021). Tarix fanlarini kurslararo uzviylik asosida amalga oshirishga qo'yiladigan talablar. Academic research in educational sciences, 2(5), 894-906.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

F.X.IBRAGIMOVA,
O'zPFITI doktranti

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari, bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, kasbiy ijodkorlik orqali shaxsning mustaqil fikrlash sifatleri, ijodkorlik faoliyatida intellektual rivojlanishning pedagogik ta'sir vositalari yoritib berilgan

Tayanch so'zlar: kasbiy ijodkorlik, motivatsiya, intellektual, rivojlanish, ijod, ta'lim, tarbiya, jamiyat, texnologiya, tamoyil, konkretlashtirish, metod, didaktika, ma'naviy ijodkorlik, reproduktiv, kreativ.

In this article, the pedagogical aspects of the development of professional creativity in future teachers, improvement of the system of activation of cognitive processes, the qualities of independent thinking of the individual through professional creativity, and the means of pedagogical influence of intellectual development in creative activities are highlighted.

Key words: professional creativity, motivation, intellectual, development, creativity, education, upbringing, society, technology, principle, concretization, method, didactics, spiritual creativity, reproductive, creative

Talabalarda kasbiy ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun alohida ijodkorlik masalalari emas, balki ularda mashg'ulotlar jarayonida yuqorida ko'rsatilgan tasniflar va tamoyillar orqali mantiqiy operatsiyalar shakllanadigan va rivojlanadigan ijodkorlik masalalari tizimi zarur. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darslikda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim. Demak, ijodkorlik faoliyati o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tashkil qilish butun ta'lim jarayonining sifatini ta'minlab beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni shakllantirish, bu jarayonda mahsuldor va texnologiyalardan foydalanish, bo'lajak o'qituvchilardan kreativlikni ta'minlash masalalari R.G.Safarova, X.I.Ibraimov, B.Adizov, N.Muslimov, B.S.Abdullaeva, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, B.Ma'murov, G.Ibragimova, G'.Nafasovlarning ishlarida tadqiq etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Insonning bilish jarayoni psixik jarayonlarning tizimli tarzda namoyon bo'lishini ifodalaydi. Bular bo'lajak o'qituvchining kasbiy bilimlarni idrok etishi, xotirasida saqlab qolishi, eslab qolishi, qayta ishlashi, interpretatsiyalashida o'z ifodasini topadi. Ta'limda mazkur jarayonlarni faollashtiruvchi, mahsuldor usullar va metodlarni o'tgan asrning oxirlaridayoq



mutaxassislar tomonidan tizimli tarzda o'rganila boshlangan. Kognitiv pedagogikada bo'lajak o'qituvchisni faollashtirish, o'quv jarayoniga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, yetakchi masalalardan biriga aylangan. Bunda bo'lajak o'qituvchining bilish faoliyatini jadallashtirish orqali kasbiy ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bilish faoliyati ko'p qirrali, murakkab jarayon bo'lib, uning samaradorligi ta'lim jarayonida ko'p jihatdan o'quvchi qobiliyati, izlanuvchanligi, tafakkuri, kuzatuvchanligi va ijodiy yondoshuviga bog'liq. Shuning uchun ham bilish jarayonida ijod muhim o'rinni egallaydi.

Ijod – insonning fan, texnika, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi, kashf etishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayondir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste'dod namoyon bo'ladi. Abu Nasr Forobiyning ta'rifiga ko'ra «ijod – bilish jarayonida shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak». Darhaqiqat, inson ijod qilish jarayonida izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani tajribada sinab boriladi[7].

Kasbiy ijodkorlik shaxs mustaqil fikrlash sifatleri namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Unga berilgan ta'riflar bir-biridan jiddiy farq qilsa-da, uning ba'zi umumiy jihatlarni ko'rsatish mumkin. Bular: birinchidan, ijodkorlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo'lishi; ikkinchidan, ushbu jihatlarning kasbiy ijodkorlikning dastlabki asoslarida mavjud bo'lmaganligi; uchinchidan, har qanday kasbiy ijodkorlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi[8].

Ijodiy izlanish natijasida hosil bo'ladigan bilim mazmuni yangi texnik yechim, badiiy asar, matematik formula, nazariya, qonuniyat kabi shakllarda jamiyatga taqdim etiladi. Ulardan jamiyat bahramand bo'lishiga erishilgandagina, ijod haqiqiy to'laqonli namoyon bo'ladi.

Turli-tuman, o'zaro qarama-qarshi jihatlarni birlashtirish ijodkorlikning eng muhim manbalaridan biri sanaladi. Buning muhim jihati yangi hosil qilingan jihatning dastlabki mahsulotda mavjud bo'lmaganidir. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ijodkorlikning yana bir manbai sanaladi. Inson tomonidan turli buyumlardagi umumiylikni ko'ra olishi abstrakt tafakkur bilan bog'liq. Agar ikki voqea qaysidir jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lsa, u sabab-oqibat bog'liqligida o'z aksini topadi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ijodkorlikning san'at va falsafa bilan bog'liq turlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy jihatlarga ko'ra, ijodkorlik faoliyati turlarini uch guruhga bo'lish mumkin: a) prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; b) ushbu yangilikning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uni detallashtirish, konkretlashtirish, ishlab chiqish; v) yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish, u yoki bu moddiy shaklda keltirish bilan bog'liq faoliyat.



Zehnlik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatleri, mustaqil va tanqidiy fikrlashning tarkib toptirilishi shaxs ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarining ushbu asosda tashkil etilishi o'qituvchi va o'quvchi muloqotida individual va differensial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ma'naviy ijodkorlik – o'qituvchi va o'quvchilar orasida ma'naviy-axloqiy sohada yangi sifatlari natija beruvchi takrorlanmas, o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turidir.

Didaktik ijodkorlik – o'quv materialini tanlash, loyihalash hamda o'quvchilar o'zlashtirishining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turidir.

Texnologik ijodkorlik – yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchining faoliyatini butunlay qamrab oluvchi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi[8].

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, o'quvchilar va o'qituvchi orasidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir.

Kasbiy faoliyatda muayyan mavqeni egallashda shaxsning moddiy ta'minlanganlik holati, ma'lumot darajasi, tillarni bilishi kabi omillar o'z ta'siriga ega bo'lishi mumkin, biroq shaxs ijodiy sifatlarini rivojlantirmasdan turib yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Shu sababli kasbiy ijodkorlik faoliyati shaxsning asosiy intellektual mulki hisoblanib, aynan u har bir insonning kasbiy sohasidan qat'iy nazar muvaffaqiyatli natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Talabalarning kognitiv qiziqishlarini ma'lum bir darsdagi faolligi, sinfdan tashqari o'qish doirasi, fan olimpiadalarida, tanlovlarda qatnashish kabi belgilar bilan baholash mumkin. Bunda o'lchov quyidagicha bo'lishi mumkin: o'qituvchining savollariga berilgan javoblarning to'g'riligi va to'liqligi; darsdagi o'rtoqlarning javoblariga qo'shimchalar soni va sifati (o'z tashabbusi bilan), o'qituvchiga savollar; o'qituvchiga maslahat so'rab murojaatlar soni va savollarning sifati; ma'ruzalar bilan chiqishlar.

Kognitiv so'zi inglizcha «cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq» dan olingan bo'lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik bu jihatdan psixoling-vistika, antropolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi turli sohalar bilan bog'lanadi.

Sh. Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir. [7,8]



Talabalarining ijodiy namoyon bo'lish dinamikasini bajarilgan ijodiy ishlarning miqdori va sifati, ularni amalga oshirishdagi o'ziga xoslik va mustaqillik darajasi bilan baholash mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlash uchun maktab hujjatlarini (sinf jurnallari, muvaffaqiyat qaydnomalari, bilim sifatini tahlil qilish shakllari va boshqalar) tahlil qilish kerak. Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini shakllantirishda quyidagi metodlarga ustuvorlik berish nazarda tutilmoqda:

1. Reproduktiv;
2. Izlanuvchanlikka undovchi evristik;
3. Kreativ metodlar.

Ko'rinib turibdiki, kognitiv pedagogika tadqiqotlarning yangi sohasini kashf etish imkonini berdi. Kognitiv pedagogikada shaxsning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan kognitiv texnologiyalardan foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Shunday qilib, talabalarni kasbiy ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda yuqorida bayon talablarning bajarilishi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, ularning o'zaro pedagogik munosabatlarini yangi asoslarda yo'lga qo'yish, bunda ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida aks etuvchi ta'lim mazmunini talaba shaxsini ijodiy rivojlantirish talablari asosida takomillashtirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov, X., M. Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). Toshkent.: 2022-y.
2. Ibraimov X. I. Kreativnost kak odna iz xarakteristik lichnosti budushogo pedagoga // Nauka, obrazovanie i kultura. - 2018. - №. 3 (27). - S. 44-46.
3. Ibragimovich X. I. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari // integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - S. 209-214.
4. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. «Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system». International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.
5. Sergeev S.F. Teoretiko-metodologicheskie problemy pedagogiki obrazovatelnykh sred [Tekst] / S.F. Sergeev // Shkolnye texnologii. 2010. № 6. S. 32-40.
6. Sergeev C.F. Instrumenty obuchayushyey sredy: intellekt i kognitivnyye stili [Tekst] / S.F. Sergeev // Shkolnye texnologii. 2010. № 4. S. 43-51. Sergeev C.F. Instrumenty obuchayushyey sredy: stili obucheniya [Tekst] / S.F. Sergeev // Shkolnye texnologii. 2010. № 5. S. 19-27.
7. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya - T.: "Fan", 2005. -131-b.
8. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: Diss. ... ped. fan. nomz. - T., 2001. -140-b.



TA'LIM JARAYONIDA TALABALARGA NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI QURISH VA TASVIRLASHNI O'RGATISH METODIKASI

M.A. UMATALIYEV,
NamDU

Maqola bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda natyurmort kompozitsiyasini tuzish va tasvirlash malakalarini takomillashtirishga qaratilgan. Unda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari batafsil ko'rsatilgan va natyurmortni metodik izchillikda ishlash texnologiyalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Natyurmort, shakl, kompozitsiya, konstruksiya, metodik bosqich, nisbat.

The article is devoted to improving the skills of compiling and depicting a still life composition in the professional training of future teachers of fine arts. It details the basic rules and techniques for painting and presents the technology of working on still life productions in a methodical sequence.

Key words: still life, form, composition, construction, methodological stage, ratio.

Статья посвящена на совершенствование навыков составления и изображения натюрмортной композиции в профессиональной подготовке будущих учителей изобразительного искусства. В нем подробно излагаются основные правила и приемы по изобразлению и представлены технологии работы над постановками натюрморта в методической последовательности.

Ключевые слова: натюрморт, форма, композиция, построение, методологический этап, соотношение.

Tasviriy san'at yo'nalishidagi bo'lajak o'qituvchi kadrlarni kasbiy tayyorlashda kompozitsiya tasviriy san'atning asosi bo'lgan san'at tarixi, uning rivojlanishi, tasviriy san'at kompozitsiyasi qonun-qoidalari, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda fanlar ahamiyatini kasb etadi. Shuningdek, kompozitsiya fani talabaga tabiatdagi shakllarni o'quv mashg'ulotlar jarayonida xaqqoniy tasvirlashga o'rgatib tahsil oluvchida kompozitsiya fanining tasviriy san'atdagi o'zini, murakkab tasviriy san'at kompozitsiyasi asarlarini ishlashda uning qonunlari, kolorit munosabatlari, rang psixologiyasi va ularning tugatilgan badiiy asarlar yaratishdagi tasavvur va bilimlarga ega bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Barcha kasbiy fanlari qatorida kompozitsiya bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabaga nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy



bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi. Chunki, rassom pedagog o'zining kelajakdagi ish jarayonida tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar tasviriy san'at kompozitsiyasiga oid ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Tasviriy san'atda kompozitsiyasi mashg'ulotlarini rejalashtirishda natyurmort mavzusida turli murakkablikdagi postanovkalar tashkil etish va tasvirlash talabaning tasvirlash texnologiyalarini, san'at asarlarini taxlil eta olish, o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, ularning ijodiy ishlarini baholay olish malakalariga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

Maqolamizning quyidagi bosqichida uy jihozlaridan tashkil etilgan natyurmortning qalamtasviri tasvirini chizish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining oldiga yangi, yanada murakkabroq vazifalarni qo'yadi. Bunda jismlar turli xil shaklga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu jismlarning shaklini geometrik shakllarga o'xshatishimiz mumkin. Naturadan chiziladigan barcha amaliy mashqlarni bajarish jarayonida qo'llaniladigan qonun-qoidalar ushbu natyurmortni o'ziga qarab chizish davomida ham qo'llaniladi va kerakli bosqichlarda amalga oshiriladi.

Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil etilgan natyurmortning rasmini chizish bundan avvalgi topshiriqqa qaraganda (ir necha guruh geometrik shakllar rasmini chizish) ga nisbatan ancha mushkul. Bu yerda nafaqat jismlarning nisbatlari va tus munosabatini ko'ra olish, balki shakl jihatdan turli bolgan va rassomga nisbatan har xil joyda joylashgan jismlarning har birining perspektiv ko'rinishini aniqlay bilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Natyurmortdagi har bir jism boshqalariga boliq bo'lishi kerak. Shunda qog'oz yuzasida bir necha tuzilish tarxlari namoyon bo'ladi.

Uy-ro'zg'or buyumlari natyurmortini chizishda turli materiallardan ishlangan jismlar yuzasidagi yorug'-soya kuchini solishtirish kerak. Masalan, metall idishning yuzasini tasvirlash chog'ida uning shakli va fakturasini to'liqroq tasvirlash uchun boshqacha xarakterdagi shtrixlardan foydalanish lozim. Rasmda tus munosabatlarini to'g'ri belgilash orqali talaba, jism materialini tasvirlay oladi. Shisha, metall, sopol va yorug'likni kuchli qaytaradigan buyumlar yuzasiga tushuvchi yorug'lik o'zining xususiyatiga ko'ra yuzaning yorug'likni aks ettirish xususiyati kuchli boiganligi sababli xarakterlanadi. Bunday holat boshqa materialdan ishlangan jismlarda, masalan, gips, yog'och va boshqalarda kamroq bo'ladi. Bu tasvirni ishlashda shtrixlash va tasvir bajarish ketma-ketlikka rioya qilish katta ahamiyatga ega.

Quyida natyurmort chizish jarayonini ko'rib chiqamiz. Tasvirga qo'yilgan shakllar hajmining dastlabki tahlili kompozitsiyaviy tuzilishini topish. Natyurmortni



turli tomonlardan kuzatib yorug‘-soya munosabatlarini hisobga olgan holda, shakl ko‘rinishining eng ma‘qul joyi tanlanadi.

1-bosqich. Tasvirning qog‘ozda kompozitsion joylashuvi. Ma‘lum formatdagi qog‘ozda natyurmort shunday joylashtirilishi kerakki, unda qog‘ozning butun yuzasi naturani tasvirlashda faol ishtirok etsin. Agar tasvirlanayotgan jism (yoki jismlar guruhi) vertikal yo‘nalish bo‘yicha cho‘zilgan bo‘lsa, tabiiyki qog‘ozning uzun tarafini tik holatda joylashtirish kerak. Tasvirlanayotgan jismlar o‘lchami to‘g‘ri tanlanishi lozim: tasvir juda kichik yoki juda katta bo‘lmasligi, hamda u bir burchakka taqalib qolmasligi kerak. Chizilayotgan rasm qog‘ozning taxminan o‘rtasida joylashtirilishi kerak. Har bir alohida holat uchun, qog‘ozning hajmini hamda tasvirlanayotgan jismlar va umumiy tasvir maydonining o‘zaro munosabatini hisobga olgan holda, alohida kompozitsiya tanlashni talab etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarida kompozitsiya ko‘rish maydonidagi tasvir asosida tanlanadi, qog‘oz formati aniqlanib, unga tasvir joylashtiriladi. Tasvir kompozitsiyasini aniqlash (ayniqsa natyurmort chizish jarayonida) – uning joylashuvini, o‘lchamlari va fonini to‘g‘ri belgilashdan iborat. Yaxshi joylashtirilgan tasvirda, umumiy tasvirning butunligi va o‘zaro munosabatini buzmay turib, hech narsani o‘zgartirish yoki olib tashlash mumkin emas. O‘quv rasmini sifatli ishlash uchun bir necha chizgilarni bajarish tavsiya etiladi. Tasvimi qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirishda kompozitsiyaviy tasvir izlash moslamasi yordam beradi. Ushbu moslamani yasash uchun karton yoki qalin qog‘ozning o‘rtasidan to‘g‘ri to‘rtburchakli darcha ochiladi va ushbu darcha qog‘oz yuzasiga proporsional bo‘lishi kerak. Moslamani chizilayotgan jismga qaratilgan ko‘z nuriga perpendikulyar holatda ushlab, uni jismga yaqinlashtiramiz, uzoqlashtiramiz va jism qirralarini moslama tomonlariga to‘g‘rilab jismning aniq joylashuvini belgilab olamiz.

O‘quv rasmini ishlash jarayonida qo‘yiladigan asosiy talab – qog‘ozda jismlar joylashuvini to‘g‘ri belgilashdan va har tomondan (o‘ng, chap, yuqori va past tomonlardan) bir xil bo‘sh joy qoldirishdan iborat. Bunda, shuningdek, jismlarning rangi va ular yasalgan material ham hisobga olinadi. Chunki, ular tasvirda tabiiy chizishi kerak. Shu sababli ham natyurmortdagi eng katta jism hech qachon qog‘ozning o‘rtasiga joylashtirilmaydi, balki chap yoki o‘ng tomonda ifodalanishi lozim. Yaxshi joylashtirilgan tasvir hech qachon siqilib qolganga yoki qog‘ozda bo‘sh joy ortib qolganga o‘xshamaydi. Shuningdek, o‘quv natyurmortida jismlarning nisbatlar qog‘ozda to‘g‘ri belgilanishi kerak.

2-bosqich. Shaklning konstruktiv tahlili va perspektiv tuzilishi. Natyurmortdagi jismlar tasvirini ishlash chog‘ida, rassom o‘z joylashgan o‘rniga



ko‘ra, ularning shakli, nisbatlari va perspektiv o‘zgarishidan kelib chiqishi kerak. Dastlab jismlarning umumiy ko‘rinishi engil chizgilar orqali belgilab olinadi, chegara chiziq-lari chiziladi va ushbu chiziq-lar doirasida barcha jismlar tasvirlanadi. Jismlar joylashgan tekislik yuzasi ko‘rsatiladi. Shundan so‘ng bir-biriga bog‘liq ravishda barcha jismlar alohida belgilab chiqiladi. Har bir jismning o‘lchami, nisbati va joylashgan o‘rni aniqlanadi. Jismlar nisbatini aniqlash chog‘ida, albatta, solishtirish uchun o‘lchov birligini tanlash lozim. Balandlikni solishtirish uchun o‘rta yoki kichik jismning o‘lchamini olish qulay hisoblanadi.

Jismlar tarxini doimiy tarzda oy-dinlashtirish orqali jismlarning perspektiv ko‘rinishi sinchiklab kuzatiladi: jismlar bir-birini to‘smasligi va ular o‘zaro kesishmasligi lozim. Jismlar orasidagi masofa va gorizantal yuzaga nisbatan jismlar asosining joylashuvi aniqlanadi. Buning uchun natyurmortni yaqin masofadan, yon tarafd-an, orqa tarafd-an, tepasidan kuzatish va jismlarning o‘zaro joylashuvini aniqlash kerak. Har bir jismni to‘g‘ri tasvirlash uchun, ularni proyeksiyalash, ya‘ni chiziq-li konstruktiv yoki shishasimon jism sifatida tasavvur etib chizish kerak. Jismlarning perspektiv ko‘rinishi va shaklining to‘g‘ri ishlanayotganligini kuzatib, uzluksiz ravishda jismlar nisbati aniqlab boriladi. Bunda avvalo katta qismlarning, so‘ngra esa kichikroq – yordamchi qismlarning o‘zaro munosabati oy-dinlashtiriladi.

Talaba tasvirning haqqoniyligini tekshirish uchun molbertdan uzoqlashadi. Bunda oraliq masofa natura va chizilayotgan rasmni to‘liq solishtirish imkonini berishi lozim. Tekshirish davomida natura va tasvirga ketma-ket qaraladi va mavjud xatolar o‘sha zahotiy-oq tuzatiladi. Shuningdek, agar rassom turgan holda ishlayotgan bo‘lsa, u molbertdan bir oz uzoqlashib tasvir va naturadagi jismni solishtirishi mumkin. Rasm chizishning so‘nggi bosqichida xatolarni aniqlab, so‘ngra ularni tuzatishga ko‘p vaqt sarflagandan ko‘ra, rasm chizish jarayonining har bir bosqichida uni boshqarib, tekshirib borish tavsiya etiladi.

3-bosqich. Yorug‘soya munosabatlari yordamida jismlarning hajmini tasvirlash. Jismlarning perspektiv tasvirini ishlash davomida, ularning hajmi, joylashuvi va tushayotgan yorug‘lik darajasini ko‘rsata olish muhimdir. Bunga turli tus va qalam bosimidan foydalanish orqali erishiladi. Naturaning tus munosabati to‘q, o‘rta va yorqin tuslarning rasmdagi o‘zaro munosabatini, ularning tahlilini ko‘zda tutadi. Bir seansli o‘quv rasmlarda tus munosabatlari yoritilgan va soyadagi yuzalarni tasvirlash, hamda ushbu yuzalarning chegaralarini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Rasmda avvalo chegaralar, soya va yorug‘lik engil tuslarda belgilab olinadi. Jismning yoritilmagan yuzasi konturining atrofiga boshqa yuzalarning (devor, mato v.b) aksi tushadi va bu



joyga jismning o'z soyasiga nisbatan yorqinroq tus beriladi. Bunda jismlar nisbatlari rasm va naturani yorqin va to'q tuslar munosabatini solishtirish orqali aniqlanadi. Yorug' va soya yordamida tasvirga tabiiylik bahsh etadi.

4-bosqich. Rasmni umumiyashtirish. Ushbu bosqichda rasm deyarli tugatiladi va tasvirni natura bilan solishtirish, keraksiz detallarni olib tashlash, birinchi va ikkinchi darajali qismlarni umumiyashtirish va ishdan umumiy taassurot olish kerak. Yosh rassom uchun natyurmort chizish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Naturadan natyurmort chizish realistik rasmdagi jismlar joylashuvini to'liq ochib berish, e'tiborni asosan perspektiv tasvirga qaratish, hamda chiziqli-konstruktiv tasvir bajarishning qonun-qoidalarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa o'rinda shularni aytish kerakki, natyurmort ustida ish olib borish talabalarda yangi ijodiy qirralarining namoyon bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Mavzuni mustahkamlash uchun esa ular uyda turli shakllardan iborat buyumlar, meva va sabzovotlarning alohida tasvirlarini ishlashlari mavzuni mustahkamlashda muhim omil bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Baymetov Botir Boltaboevich Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122)

2. Botir Boltabaeovich Baymetov, Muratov Khusan Kholmuratovich, Self Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30493 Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Vol. 63. No. 2, (2020) @ www.solidstatetechnology. us

3. Б. Байметов. История развития изобразительного искусства Узбекистана. Наука, образование и культура, Москва, 2016. стр. 19-23.

4. Baimetov Botir Boltabayevich, Sharipjonov Muhiddin. Development of students' descriptive competencies in pencil drawing practice. Issue 08, 2020 issn 2689-100x the usa journals, usa www.usajournalshub.com/index.php/tajssci... mso, ISSN 2689-100X The USA Journals, 261-267.

5. Boltabayevich, B. B., & Shodievna, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 637-642.



MODDA TUZILISHI TO'G'RISIDAGI ILK TASSAVUURLAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARINI UZLUKSIZ TAMOYILLARI ASOSIDA O'RGANISH

CH.M.SHAYMANOV,
Toshkent Davlat Agrar Universiteti
Fizika va kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

O'qitishning barcha tamoyillari didaktikaning asosiy funksiyasi – ta'limning shaxsni tarbiyalovchisi va rivojlantiruvchisi sifatidagi vazifasini amalga oshirishga qaratiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim qanday o'qitish va nimalarni o'rgatish masalasiga yangicha nuqtai nazardan yondashuvning tarkib topishiga asos bo'lmoqda. Mazkur maqola hozirgi zamon fizikasini uzluksizlik tamoyi asosida o'qitish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: fizik tushunchalar, moddalar haqidagi tasavvurlar, molekulyar fizika, hozirgi zamon fizikasi, ta'lim mazmuni, uzluksizlik tamoyillari.

All the principles of teaching are focused on the implementation of the main function of didactics - the role of education as an educator and developer of the individual. Developmental education is the basis for the development of a new approach to the question of how to teach and what to teach. This article focuses on the issues of teaching modern physics based on the principle of continuity.

Key words: physical concepts, ideas about substances, molecular physics, modern physics, educational content, principles of continuity.

Hozirgi zamon fizikasining ta'limotiga ko'ra hamma elementlarning zamini atomlar tashkil qiladi. Atom elementning barcha xossalarini o'zida mujassamlashtirgan eng kichik zarra bo'lib «kichik massa» ma'nosini beradi. Barcha moddalarning molekulyar tuzilishini Broun harakati, ularning diffuziyasi kabi misollar isbotlaydi.

Hozirgi zamon molekulyar fizika fani qo'yidagi asoslarga tayanadi. Barcha moddalar shu moddaning barcha xossaini o'zida mujassamlashtirgan molekullardan tashkil topgan.

Mexanikada biz jismlarni bir butun deb hisoblab, ularning ichki tuzilishiga e'tibor bermadik. Vaholanki, istalgan jism mayda ko'zga ko'rinmas zarralardan tashkil topganligini suyuqlik va qattiq jismlarning bug'lanishi va issiqlikda kengayishi isbotlaydi.

Molekulalar fizik fanida istalgan jismlarning ichki tuzilishi, qanday nima uchun odatdagi sharoitda ayrim moddalar gaz, ayrim moddalar suyuq, ayrim moddalar qattiq holatda bo'ladi degan savollarga javob beriladi.



Moddalarning tuzilishi kishilik jamiyatining eng ilg'or kishilarini qadim zamondan qiziqtirib kelgan. Masalan, bizning Eramizdan oldingi (624-547) yillarda yashagan va aniq falsafaning asoschisi Fales moddiy dunyoning asosida suv yotadi, degan g'oyani ilgari surgan. Uning zamondoshlari Anaksimenes (588-525) borliq dunyo zaminida havo, Geraklit (544-483) borliq dunyo asosi olov degan g'oyani ilgari surishgan. Empedokl (eramizdan avvalgi 490-430) bu g'oyalarni birlashtirib yer, suv, havo va olov borliq asosidir degan edi. Modda tuzilishi to'g'risidagi bu ilk tassavvurlar faqat kuzatishga asoslangan edi.

Molekulalar uzluksiz xotik issiqlik harakatida bo'lib, ma'lum kinetik energiyaga ega va molekulalar harakat davomida bir-biridan ma'lum masofada bo'lalilar. Molekulalar o'zaro ta'sirlashadi. Ular orasidagi ta'sir kuchi zarralar o'rtasidagi masofaga bog'liq. Kichik masofalarda ular o'zaro itarishadi, kattaroq masofalarda ular o'zaro tortishadi.

Moddalarning qattiq, suyuq va gaz agregat holatlarida bo'lishi modda zarralari orasidagi ta'sirning masofaga bog'liqligi bilan tushuntiriladi.

Modda molekulalari orasidagi ta'sir deyarli nolga teng bo'lganda modda molekulalari biro-biridan yetarli masofada bo'lalilar. Gaz deb ataluvchi bunday modda molekulalari erkin va tartibsiz harakat qilib, o'zaro to'qnashib ham turadi. Agar xonaga biror o'tkir hidli gaz kiritilsa ma'lum vaqt o'tishi bilan kuzatuvchiga yetib boradi. Gaz molekulalari kuzatuvchiga yetib kelguncha uning molekulalarining harakat traektoriyasi uzluksiz siniq chiziqlardan iborat bo'ladi. Buni birinchi marta suyuqliklarda eritilgan kolloid zarralarining harakatini mikroskop ostida kuzatgan ingliz botanigi R. Broun (1897 yil). Shuning uchun bu harakatga Broun harakati deb aytiladi.

Suyuqlik molekulalari orasidan o'zaro tortishish kuchlari gazlardagiga qaraganda bir necha ming marta katta. Har qanday suyuqlik molekulalari o'zaro ta'sir sferasiga ega. Suyuqlik molekulalari muvozanat holat atrofida tebranma va aylanma harakat qilish bilan birga bir muvozanat holatdan ikkinchi muvozanat holatga ham o'tib turadi. Shuning uchun suyuqliklarda diffuziya gazlardagiga nisbatan ancha sekin ro'y beradi.

Qattiq kristall jismlarda zarralar aniq tartib bilan joylashgan bo'lib, muvozanat holat atrofida tebranma va aylanma harakatda bo'ladi. Bir muvozanat xolatdan ikkinchi holatga o'tish deyarli bo'lmaydi. Shuning uchun qattiq jismlar o'z hajmlari bilan, birga o'z shakllariga ham ega, ya'ni qattiq jism zarralari orasidagi ta'sir kuchi suyuqliklardagiga qaraganda ancha kuchli. Shu sababli ham qattiq jismlarda diffuziya hodisasi deyarli kuzatilmaydi yoki juda sust kuzatiladi.

Temperaturaning o'zgarishi bilan qattiq, suyuqlik va shuningdek gazlarning xossalari ham o'zgaradi. Xususan, gazlar va suyuqlarda temperaturaning



ortishi bilan Broun g'arakati tezlashadi. Temperaturaning ortishi bilan qattiq jismlarning ham xossalari o'zgara boradi. Xususan, qizdirilish orta borsa qattiq jismlar eriy boshlaydi, ya'ni suyuq holatga o'tadi. Bu esa temperaturaning ortishi bilan uni tashkil etuvchi zarralarining harakat tezligi va ular orasidagi ta'sir kuchi ham o'zgarishini ko'rsatadi. Shunday qilib, modda qanday agregat holatda bo'lishidan qat'i nazar uni tashkil etuvchi zarralar uzluksiz issiqlik harakatda bo'ladi. Gazlarda harakat intensivligi yuqori, suyuqlarda sustroq qattiq jismlarda yanada sustroq bo'lar ekan.

Molekulalarning o'lchami inobatga olinmaydigan va molekulalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirini hisobga olmasa ham bo'ladigan gazga, ideal gaz deb aytiladi. Garchi tabiatda bunday gazlar bo'lmasa ham, past bosimdagi gazlari ideal gazdan iborat deb qarash mumkin. Past bosimlarda gaz molekulalari orasidagi masofa shunchalik kattaki. ular deyarli o'zaro ta'sirlashmaydi. Bunday sharoitda gaz molekulalarning diametri (D) molekulalar orasidagi masofa (R) nisbatan juda Kichik (sl KKK).

Gaz molekulalari tartibsiz, xaotik harakat qilib idish devorlari bilan to'qnashib, idish devoriga ma'lum kuch bilan ta'sir ko'rsatadi, gazning zichligi qancha katta bo'lsa ham birlik vaqt ichida hisoblash mumkin. Bosim ortgan sari ideallikdan chetlashishlar ortib boradi.

Moddalarning agregat holatini xarakterlovchi asosiy fizik kattaliklar qo'yidagilar:

1. Moddani zichligi ya'ni hajm birligida massasi. Demak massa qancha katta, hajmi qancha kichik bo'lsa zichlik shuncha katta bo'ladi.

2. Moddani konsentratsiyasi ya'ni hajm birligidagi molekular soni va ularning soni qancha ko'p bo'lsa shunga qaraladi.

3. Modda molekulalari orasidagi erkin chopish yo'li ya'ni ular orasidagi masofa.

4. Moddani molekulalarini o'zaro tortishish va itarish kuchlari ular orasidagi masofaga teskari proporsionoldir. Yuqoridagi fizik kattaliklar moddalarning agregat holatlarini ko'rsatish bilan har bir moddani chidamliligini, oquvchanligini va aniq shaklga ega bo'lish – bo'lmasligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadjonov O. Fizika kursi. 1-tom. Mexanika va molekulyar fizika. - T. O'qituvchi, 1987.

2. Nazarov O'Q. va b. Umumiy fizika. 1 - tom. Mexanika va molekulyar fizika. - T., O'zbekiston, 1992.

3. Qodirov O.Q. - Fizika kursi. Mexanika va molekulyar fizika. - T. O'qituvchi, 1993.



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDAGI TALABA-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

G.M.QURBONOVA,
TDPU dotsenti

Ushbu maqolada talaba-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish shakllari, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlarni tarbiyalash demokratik jamiyatni rivojlantirishda muhimligi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: talaba-qizlar, shakllari, pozitsiya, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faollik.

В данной статье показано значение типов развития социальной активности у студенток-девушек, важность воспитания духовно зрелой, самостоятельно мыслящей молодежи с твердой позицией в развитии демократического общества.

Опорные слова: студентки, позиция, духовная зрелость, социальная активность.

This article shows the importance of the mechanisms of development of social activity in female students, the importance of raising spiritually mature, independent-thinking young people with a firm position in the development of a democratic society.

Key words: female students, mechanisms, position, spiritual maturity, social activity.

2019-yil 2 sentabr qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda Imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi» qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan birinchi bor milliy qonunchiligimizda «gender» tushunchasiga tarif berilgan. Qonunda hotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqni ta'minlash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohadagi davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.

